

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

1918-yil dekabrdan chiqa boshlagan

Jurnal O'zMAA tomonidan
2013-yil 4-martda qaytadan
ro'yxatga olinib, 0104-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bosh muharrir:

Sarvar MAHMUDOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Aliyor ORIPOV

Mas'ul kotib:

Nurbek TASHXANOV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Risboy JO'RAYEV
Hikmatilla RASHIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Yo'ldosh ASADOV
Fayzulla AHMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Maqsudjon YULDASHEV
Islom ZOKIROV
Alisher ZOKIROV
Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV
Abdug'ani XOLBEKOV
Ulug'bek ABRUYEV
Erkin ISKANDAROV
Bahodir SHAMSIYEV
Norbek TAYLAQOV
Abdusamat RAHIMOV
Muhammadjon QURONOV

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2015.

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2-son (mart-aprel)

2015

**Badiiy muharrir:**

Akbarali MAMASOLIYEV

Sahifalovchi: Muqaddas XAFIZOVA

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan parchalar "Xalq ta'limi" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. Maqolalarda keltirilgan ma'lumot va annotatsiyalarning to'g'riligiga mualliflar javobgardir.

Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"PRINT LINE GROUP" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 30.03.2015-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 12,0. Adadi 34245 nusxa. - buyurtma.

TAHRIRIYAT

Pedagoglar ish faoliyati samaradorligini oshirishda ilmiy-metodik nashrlarning o'rni	4
--	---

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Barno ABDULLAYEVA, Abduqayum ABDULLAYEV. Sog'lom turmush tarzini yaratishda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish yo'llari	7
Nigora QODIRQULOVA, Nodira GAFUROVA. Iqtisodiy ta'limda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	11
Gulbahor AKRAMOVA. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish usullari va yo'nalishlari.	16
Furqat NURIDDINOV, Nafisa MURATOVA. O'quvchi-yoshlarda milliy ongni shakllantirish omillari	20

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Shuxrat NE'MATOV, Farxad RO'ZIYEV. Baho – ta'lim taraqqiyotini belgilovchi mezon sifatida	24
--	----

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

G'ayratjon TAJIBAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda pedagogik mahorat	28
---	----

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Ixtiyor ERMATOV. Ta'lim texnologiyalarida qadriyatlar va tilning roli	32
--	----

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Xurshid XAYDARALIYEV. Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	36
Abdulla ABDIYEV, Nodir ABDIYEV. Oliy ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish omillari	41

MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

Saidaxbor BULATOV, Madina PO'LATOVA. Tasviriy san'at darslari jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashga o'rgatish	45
---	----

MAKTABGACHA TA'LIM

Mariya MUSURMONOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyati	49
Nozima ASLANOVA, Go'zal BARNOYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qobiliyatini aniqlashning samarali usullari	56

TA'LIMDA SOTSIOLOGIYA VA STATISTIKA

Nigora XIKMATOVA. Shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy institutlarning o'rni	61
---	----

EKOLOGIK TA'LIM

To'raxon RAXIMOVA, Shoirax RAXIMOVA. O'quvchilarga ekologik ta'lim berishning didaktik asoslari	65
Maxfuza ALIQULOVA. Ekologik ta'lim jarayonini takomillashtirishda ijtimoiy pedagogika fanining imkoniyatlari	69

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

Jo'ra YO'LDASHEV. Mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini boshqarishda innovatsion yondashuvning o'rni	74
Gulnoza QARSHIBOYEVA. O'quvchilarda fan tushunchalarni shakllantirish jarayonlari.....	78

TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

Qahhor TURSUNOV, Nodira NORMAMATOVA. Darslik tuzilishiga qo'yiladigan zamonaviy metodik talablar	83
---	----

MASOFAVIY TA'LIM

Ilxom NAZAROV, Salohiddin BOBODJONOV, Mirabbos PAYOZOV. Mustaqil ta'limni tashkil etishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish	89
--	----

PSIXOLOGIYA

Zaynab KURBAMURATOVA. Ta'lim oluvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish	94
Maxmudjon NISHONOV, Dilxumor MIRZABDULLAYEVA. Ijtimoiy psixologik treninglarni o'tkazish metodologiyasi.....	99

MEDIA TA'LIM

Gulbahor GAYNAZAROVA. Axborotlashuv jarayonining yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	103
Muyassar DIVANOVA, Farid KUCHUKBAYEV. O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida Internetning roli.....	107

AXBOROT XAVFSIZLIGI

Bahodir XURRAMOV, Nurislom XUDOYBERDIYEV. Axborot texnologiyalari hamda Internet tarmog'ining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.....	112
--	-----

MUSTAQILLIK YILLARI PEDAGOGIKASI

Userbay ALEUOV, Tajibay UTEBAYEV. Qoraqalpog'istonda mustaqillik yillaridagi ta'lim islohotlarining pedagogik g'oyalar ijobiy o'zgarishiga ta'siri.....	118
Fayzulla TOLIPOV. Arxiv materiallari asosida talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishning ayrim jihatlari	122

МОНИТОРИНГ ОБРАЗОВАНИЯ

Гавхар КАРИМОВА. Разработка содержания педагогического мониторинга в процессе личностно-ориентированного образования.....	126
--	-----

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Нигора АХМЕДОВА. Интенсификация процесса обучения иностранным языкам в начальных классах	130
---	-----

МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

Шерзодхон КУДРАТХОДЖАЕВ. Актуальность медиаобразования в условиях глобализации информационного пространства	134
--	-----

МУЗЫКАЛЬНОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Фахридин ХАЛИЛОВ, Сурайё ХОДЖАЕВА. Воспитательные возможности музыкально-ритмического обучения детей дошкольного и школьного возраста.....	139
---	-----

PEDAGOGLAR ISH FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY-METODIK NASHRLARNING O'RNI

Kitob ilm va ziyo manbai bo'lsa, ilmiy-metodik jurnallar kitob va darsliklardagi duru injularni yoshlar ongiga singdirishda, ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda o'qituvchi-pedagoglarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mash'aladir.

Ta'lim tizimidagi yangiliklar, pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarni ilmiy maqolalar orqali respublikamizda ommalashtirishga munosib hissa qo'shayotgan insonlarning fidoyi mehnati tufayli jurnalimiz yil sayin talabga ega bo'lib borayotganini e'tirof etish joiz.

Umrini buyuk kelajagimizning mustahkam qalqonlari – yosh avlodga ta'lim berishga bag'ishlagan jonkuyar o'qituvchi borki, albatta, pedagogika sohasida to'plagan tajribasini hamkasblari bilan o'rtoqlashishga intiladi. Bu jarayonda eng maqbul yo'l ta'lim tizimidagi ilmiy-metodik nashrlarda ilmiy-tahliliy maqolalar e'lon qilib, sohadagi ilg'or ish uslublarini ommalashtirishdir.


Tahririyatimiz har yili oliy o'quv yurtlari o'rtasida jurnalning uslubi, unda e'lon qilinayotgan maqolalar mazmun-mohiyati haqida so'rovnoma o'tkazib borishni amaliyotga kiritdi. Joriy yilgi so'rovnoma natijalariga ko'ra, bugun umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, sport va musiqa-san'at maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida xizmat qilayotgan o'qituvchi-murabbiylar jurnal haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Tahlillarga ko'ra, o'qituvchi-pedagoglarning deyarli barchasi ilmiy-metodik maqolalarga talab katta ekanini bayon etgan. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarga jurnal sahifalarida muntazam ravishda "Ta'lim va tarbiya metodikasi", "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari", "Ta'lim va tarbiya nazariyasi", "Jismoniy tarbiya va sport" kabi qator ruknlar ostida e'lon qilinayotgan turkum ilmiy maqolalar manzur bo'lgan.

O'qituvchi-pedagoglarning talab va istaklaridan kelib chiqib 2015-yildan boshlab, jurnal sahifalarida "Media ta'limni tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish", "Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali axborot xavfsizligini tashkil etish", "Mustaqillik yillaridagi pedagogik tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish va ularni takomillashtirish" kabi ruknlar tashkil etildi.

Xalq ta'limi tizimidagi nufuzli nashr – “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnali sahifalarida ta'lim tizimida xizmat qilayotgan pedagog-o'qituvchilar o'zlarining ilg'or tajribalarini ilmiy maqolalar orqali tahliliy yoritishlari mumkin. Bunda sohadagi dolzarb yo'nalishlar, qimmatli fikr-mulohazalar, yillar davomida o'qitishning hech kimnikiga o'xshamagan o'ziga xos uslublari qamrab olinishi lozim.

Shu o'rinda ilmiy maqolaning tuzilishi, g'oyasi va dolzarbligi, tizimga oid muammolarning yechimi qanday bo'lishi zarurligi haqida to'xtalib o'tish foydadan xoli emas.



Rasmda pedagoglar ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan maqolalarning tuzilishi, g'oya mazmuni va qanday maqsadlarga xizmat qilishi ochib berilgan. Shuningdek, har bir ilmiy-tahliliy maqolada pedagogikaga oid dolzarb muammolarning qo'yilishi va atroflicha tahlil qilinishi lozim. Ilmiy ish mukammal bo'lishi uchun esa rasmda ko'rsatilgan barcha talablarga to'liq javob berishi kerak.

Ilmiy maqola aniq tuzilishga ega va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

- maqolaning nomi (sarlavhasi);
- annotatsiya (o'zbek, rus va ingliz tillarida);
- kalit so'zlar (o'zbek, rus va ingliz tillarida);
- kirish;
- mavzuga oid adabiyotlar tahlili;

- asosiy qism (metodologiya, natijalar);
- xulosalar va tadqiqotning kelajakdagi vazifasi, qimmat, foydasi;
- foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

Aksariyat hollarda maqolaning kirish qismiga urg'u berilib, asosiy maqsadini yoritishga uncha e'tibor qaratilmaydi. Yoki kirish qismi berilmasdan to'g'ridan-to'g'ri maqolaning maqsadiga o'tib ketiladi. Buning oqibatida maqola talab darajasida bo'lmashligi mumkin.

Kirish qismida asosiy e'tiborni bugungi kunda tizimga oid dolzarb masalalarga qaratish hamda mavzuga oid manbalardan iqtiboslar keltirish maqsadga muvofiqdir.

Maqolani o'qiyotgan o'quvchi mavzuning maqsadi, shu mavzudagi boshqa ilmiy maqolalardan, milliy va xorijiy tadqiqotlardan farq qilishini istaydi. Shu bois, har bir maqolada mavzudan kelib chiqib, ta'lim tizimiga oid biror-bir yangilik yoki o'qitishning yangi metodologik uslublari bo'lishi ilmiy ishning yanada sarmazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosalar annotatsiya emas! Ularning vazifasi o'zgacha. Xulosalarda qanday natijalar olinganligi, annotatsiyada esa qanday ishlar amalga oshirilganligi yoritiladi.

Maqolada ko'tarilgan muammo va masalalarga qiziqqan o'quvchi mavzuga oid adabiyotlarni topish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Agar o'quvchi adabiyotlarni topa olmasa, ilmiy maqolaga nisbatan ishonchi yo'qolishi mumkin.

Maqolaning sifatli bo'lishi, albatta, omma tushunadigan til va uslubda yozilishini talab etadi. Shu bois, maqolada:

- barcha tushunadigan, ko'p hollarda foydalaniladigan, aniq, bir necha ma'nolarni anglatmaydigan atamalardan foydalanish;
- yangi atama kiritilayotganda uning ma'nosini sharhlab berish;
- ko'p ma'nolarni ifoda etuvchi so'zlardan foydalanmaslik;
- xorijiy atamalarni zarur hollarda va o'z o'rnida ishlatish.

Xulosa qilib aytganda, “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalida e'lon qilinayotgan maqolalarning salmoqli bo'lishi nafaqat tahririyatda xizmat qilayotgan xodimlarga, balki ilmiy ishlarning mualliflariga ham bevosita bog'liq. Shunday ekan, yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, o'qitishning ilg'or pedagogik uslublarni yoritishda hamjihatlik eng ustuvor yo'nalishimiz bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimida xizmat qilayotgan barcha pedagog-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilarning jurnalda berib borilayotgan maqolalar haqidagi fikr-mulohazalarini kutib qolamiz. Muhtaram o'quvchining taklif va istaklari, albatta, jurnalning yanada sarmazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Barno ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f.d
Abduqayum ABDULLAYEV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

SOG'LOM TURMUSH TARZINI YARATISHDA IJTIMOIIY HAMKORLIKNI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila, umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati hamda ushbu harakatlarning samarasi o'laroq, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, mualliflar olib borilayotgan hamkorlik ishlarini takomillashtirish maqsadida qator uslubiy tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Maktab, oila, mahalla, hamkorlik, farzand tarbiyasi, ishonitirish, taqlid qilish, uqtirish, ergashtirish, tajriba almashish.

В статье речь идёт о значимости и эффективности такого фактора, как сотрудничество образовательного учреждения и органов самоуправления. Рассмотрены вопросы организации содержательного досуга учащихся. Авторами даны рекомендации по совершенствованию форм сотрудничества.

Ключевые слова. Школа, семья, махалля, сотрудничество, воспитание ребенка, доверие, подражание, разъяснение, руководство, обмен опытом.

This article expresses the significance matters of cooperation of family, neighborhood and institution in secondary special educational system. Given recommendations to representatives of educational institutions and social organizations.

Key words. School, family, neighborhood, cooperation, child education, confidence, imitation, elucidation, persuasion, explanation, manual, change of experience.

Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar amal-da o'zini to'la oqlab, hozirda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo'lmoqda. Bularga asosiy sabab, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va yana bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligidir.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxslar sifatida voyaga yetkazish asosiy masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori

bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”.

Bu esa, mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini yaratish, yoshlarni ham ma'n'an, ham jismonan yetuk shaxslar etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan ekanligini anglatadi. Bugungi kunda sog'lom turmush madaniyati o'smirlarning jismoniy va ma'naviy jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, “Sog'lom turmush madaniyati” tushunchasi sog'lom rivojlanish, sog'lom hayot kechirish, sog'lom tarbiya olish kabi pedagogik kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Sog'lom turmush tarzini yaratish hozirda umumiy o'rta ta'lim maktabi tizimida ham izchillik bilan davom ettirilmoqda. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablardagi pedagogik faoliyatning oila, mahalla bilan hamkorlikda olib borilayotganligi kutilgan samaralarni bermoqda.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarining oila va mahallalar bilan hamkorligini yanada yuksaltirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Taassuf bilan aytish kerakki, ayrim umumiy o'rta ta'lim maktabi muassasalarida ba'zi tarbiyachilar tomonidan o'quvchining tarjimai holi, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish holati, oilaviy ahvoli, undagi ma'naviy-ma'rifiy muhit yuzaki o'rganiladi. Bunday ishlarga vaqtni qizg'anish yoki beparvolik bilan qarash holatlari kuzatilmoqda.

Buning natijasida oila-mahalla-ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uziladi. Hamkorlikning uzilishi nimaga olib keladi? O'quvchining kundalik faoliyati haqida na ota-ona, na mahalla raisi yoki uning faollari va na ta'lim muassasasi xabardor bo'ladi. E'tibor va nazoratdan chetda qolgan o'quvchi o'zboshimchalik bilan noto'g'ri yo'lga kiradi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ota-onalar:

- farzandi tahsil olayotgan umumiy o'rta ta'limi maktablari faoliyati, uning maqsad-vazifalari, pedagogik tarkib hamda tahsil oluvchilar jamoasiga oid umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- farzandining o'zlashtirishi, darslardagi ishtiroki, birga tahsil oluvchilarga munosabati, o'qituvchi va tarbiyachilar haqidagi fikrlaridan xabardor bo'lishi, faoliyatini to'liq nazorat ostiga olishi;

- haftada bir marotaba ota-ona tarbiyachidan farzandi haqidagi fikrlarini eshitishi va unga munosabat bildirishi zarur.

Mahalla fuqarolar yig'ini raisi, faollari va a'zolari:

- mahalladagi yoshlarning qaysi maktabda tahsil olishi, bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanishlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari;

- ularni mahalla tadbirlariga faol jalb qilish, o'zini tutishi haqida ota-onalariga va tarbiyachilariga ma'lumot yetkazib turish, kerak bo'lsa, faollar ishtirokida maktab dargohida uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish;

- o'qishlarida samarali yutuqlarga erishib kelayotgan o'g'il va qizlarimizning faoliyatiga bag'ishlab, “Mahallaning eng ibratli farzandi” mavzusida kechalar o'tkazish, barcha mahalla yoshlariga o'rnak qilib ko'rsatish, rag'batlantirish lozim;

Umumiy o'rta ta'lim maktablari muassasasi pedagog jamoasi, tarbiyachi va murabbiylar:

- o'quvchilarning ota-onalari haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- o'quvchi yashayotgan oiladagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, unga yaratilayotgan sharoitlardan muntazam ravishda xabardor bo'lib borish, bu borada muammolar mavjud bo'lsa, ularni hal etish yuzasidan ota-onalarga tavsiyalar berish;

– o‘quvchining ota-onasi bilan darsdagi va darsdan tashqari vaqtdagi faoliyati yuzasidan o‘zaro axborot almashib turish;

– o‘quvchini iste’dodiga qarab, turli to‘garaklarda, tanlovlarda ishtirok etishga jalb qilish.

Bunda, ya’ni o‘zaro o‘rnatilgan hamkorlik jarayonida ota-onalar, mahalla faollari, murabbiy va tarbiyachilar oqilona hamda mohirona pedagogik-psixologik faoliyat olib borishlari lozim. Uning uchun, o‘quvchini har tomonlama yetuk, ilm-fan sirlarini egallashga qiziqishini oshirish, yaratuvchanlik va bunyodkorlikka ishtiyoqi baland shaxs sifatida tarbiyalash.

Mazkur vosita va usullar o‘smirlar ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi uslublar tarkibiga kirib, yoshlarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish jarayonida ulardan o‘rinli foydalanish uchun imkon yaratadi:

Ishontirish – tarbiya usuli bo‘lib, u yoki bu mulohaza yoki xulosani mantiqiy asoslab berish jarayoni. So‘z bilan ishontirish tarbiyaning g‘oyat murakkab usulidir. Sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda bola tafakkurini va uning e’tiqodini ishontirish samarali natijalar asosini tashkil qiladi. Ma’lumki, yoshlarda o‘smirlik davridan boshlab, turli zararli illatlar ta’siriga tushib qolish holatlari ko‘p uchraydi. Bunga ko‘proq taqiqlangan narsalarni iste’mol qilishga qiziqishning ustunligi sabab bo‘lishi mumkin, lekin bu zararli illat ta’siridan qutulish qiyin kechishini o‘smir yoshlar hali yetarli darajada tushunib yetmaydilar. Zararli illatlardan tamaki chekish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni iste’mol qilish yomon oqibatlariga olib kelishini o‘smirlarga aniq dalillar asosida isbotlab berish, misollar (kinofilmlar, suhbatlar, disputlar, bellashuvlar) asosida ko‘rsata olish zarur.

Taqlid qilish – tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning yana bir usuli hisoblanadi. O‘quvchi-yoshlarning kattalar yoki do‘stlarining hulq-atvor, xatti-harakat, yurish-turishlarining muayyan tashqi xususiyatlarini takrorlashdir. Taqlid boshqa bir kishining ijobiy xatti-harakatiga nisbatan, xuddi shuningdek, uning salbiy xatti-harakatiga nisbatan ham shakllantirilishi mumkin. Shuningdek, bevosita ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan pedagoglarning hulq-atvori, tashqi ko‘rinishi, yurish-turishlari va o‘zaro munosabatlari yoshlar tomonidan ko‘chirib olinadi.

Taqlid ikki xil bo‘lib, ichki taqlid va tashqi taqlidga bo‘linadi. O‘qituvchiga kimdir ichki taqlid qilsa, kimdir tashqi taqlid qiladi. Ichki taqlidda o‘qituvchining hulq-atvori va tuyg‘ulari hissiyot orqali bilib olinadi. Ichki taqlidda uning tashqi ko‘rinishi hisobga olinmaydi, uning hulq-atvoridagi ijobiy yoki salbiy sifatlar o‘quvchi-yoshlar tomonidan egallab olinadi.

Uqtirish – usulidan o‘smir sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda keng foydalaniladi. Uqtirish odamga so‘zlar va fikrlar orqali ta’sir ko‘rsatishdir. Uqtirish ixtiyoriy va ixtiyorsiz, bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Pedagogik jihatdan mohirona qo‘llanilgan uqtirish kuchli tarbiyaviy ta’sirga ega. Uqtirishning mohiyati shundaki, tinglovchi gapirayotgan kishiga to‘la ishonch hosil qilsa, gapirayotgan insonning so‘zlari tinglovchida u xohlagan tasavvur va obrazlarni, his-tuyg‘ularni uyg‘otsa, tinglovchida “shunday qilishim kerak” degan tushunchani shakllantirsa, yaxshi natija beradi. Uqtirishda bir tomondan axborot manbaining ishonchligi, ikkinchi tomondan, ta’sir o‘tkazuvchining o‘z maqsadini mohirona yetkazib berishi muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, pedagog o‘smirlarga sog‘lom hayot tarziga ega, yuksak ma’naviyatli, insonparvar kishilarni namuna qilib ko‘rsatish va ulardek bo‘lishga intilish kerakligini uqtirishi lozim. Uqtirishda ko‘proq sog‘lom hayot kechirish borasida mavjud ilg‘or

tajribalardan namuna keltirish o'smirda sog'lom hayot borasida his-tuyg'ularni uyg'otadi. Taqlid qilish va uqtirish jarayonida o'smir sport bilan shug'ullanuvchi insonlarning yutuqlari, sport o'yinlaridan keladigan xush kayfiyatni his etadi, shunday bo'lishga intiladi.

Ergashtirish – ayrim insonlar o'zining kuchliligi, oqil va oqilaligi, g'ayrati, shijoati bilan boshqalarni o'ziga ergashtira oladi. O'smirlik davrida “men kattaman, men bola emasman”, degan tushunchalar paydo bo'ladi. Ana shu paytda jamoada ularni sog'lom turmush madaniyatiga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli kishilarga ergashishlari uchun sharoit va imkoniyat yaratib berish zarur. Aks holda o'smir ko'chadagi g'araz niyatli kishilarga ergashishi hamda ularga taqlid qilishi mumkin. Bola ota-onasi yoki o'qituvchisining oldida turganida o'zini kuchli va aqlli sezadi. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar yoshlarni o'zlariga ergashtira olishi nazorat qilishlari lozim. Yoshlarni ergashtirishda jamoadagi har bir kishi shaxsan mas'ullikni his qilishi zarur.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktabi tizimida ham oila, mahalla va muassasa hamkorligi kutilgan pedagogik natijalarni beradi. Buning uchun esa hamkorlik mazmuni va sifatini tubdan yaxshilash, uning ishini mexanizm darajasiga olib chiqish va ishtirokchilarni bunga faol jalb etish lozim. Bir so'z bilan aytganda ushbu hamkorlik:

- o'quvchilarni oila-mahalla-ta'lim muassasasi doirasida qamrab olgan holda, bilim olish, yuksak odob-axloqli shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlaydi;

- o'quvchilar ongi va qalbida oila, mahalla, ilm maskani deb atalgan ulug' qadriyatlarga nisbatan cheksiz hurmat, ehtirom tuyg'ularini kamol toptiradi;

- bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib, el-yurt manfaatlari yo'lida xizmat qilishdek oliy maqsadlar sari ruhlantiradi va tarbiyalaydi;

- ota-ona, ustozlar, yoshi ulug'larni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilishdek insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.

2. Matchanov I.D. *Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'smirlarning sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish. Nomzodlik dissertatsiyasi*. – T.: 2011.

3. Давиденко Д.Н. *Основы здорового образа жизни: Вестник Балтийской академии*, 1996 – вып. №8. – С.15-24.

Nigora QODIRQULOVA,
Nodira GAFUROVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

IQTISODIY TA'LIMDA O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni iqtisodchi pedagog kasbiga tayyorlashda o'zbek xalqining manbai bo'lgan qadriyatlarni hozirgi zamon madaniy-manaviy hayoti bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, muallif amaliy faoliyatda ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, iqtisodchi pedagog, ta'lim, tarbiya, madaniyat, shakl, usul, urf-odat, an'analar, shaxs, jamiyat, g'oya.

В данной статье раскрыта необходимость изучения ценностей узбекского народа, связанных с современной духовно-культурной жизнью, при подготовке студентов к профессии педагога по экономике. Авторами предложены научно-методические рекомендации по применению духовно-культурного наследия в практической деятельности.

Ключевые слова. Педагогика, экономист педагог, образование, воспитание, культура, форма, личность, общество, рыночная экономика, будущие поколения, природа, идея.

This article described necessity of study of the rich cultural heritage of Uzbek people, connected with modern spiritual cultural life, in the preparation of students to profession of teacher in economy. Authors offer scientific methodic recommendations for application of spiritual cultural heritage in practical activity.

Key words. Pedagogy, economist teacher, education, culture, forms, methods, custom, rituals, identity, society, market economy, future generations, nature, idea.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, texnik, texnologik o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan talab va ehtiyojlar pedagogika fanidagi barcha ilmiy-nazariy muammolarning yechimini va ularning amaliy yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiluvchi metodologiyani yaratishni talab qildi.

Har qanday metodologiya mazmun va mohiyat jihatdan ma'lum bir xalqning, millatning tarixiy, madaniy, diniy, hududiy boy merosining asl negizini yoritishga, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzining ma'naviyati dialektikasining rivojlanish yo'llarini aniqlab berishga, ulkan muammolarni hal qilishda, zamonaviy va kelajakdagi ilg'or g'oyalarni oldindan ko'ra bilishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Uzoq tariximizdan ma'lumki har qanday zo'ravon bosqinchilar va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi

bo'lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun, avvalo, milliy madaniyat va an'analarimizni yo'q qilish, shu yo'l bilan bizni ma'naviy jihatdan zaiflashtirishga, kuch-qudratimizni yo'qotishga harakat qilganlar. Bu haqiqatni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak” – deydi, Oliy Majlisning IX sessiyasida berilgan savollarga javoban.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quv rejalari, darsliklarini joriy etish, zamonaviy didaktik ta'limni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, o'z Vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy, madaniy, tarixiy an'analarimizga va xalqimizning intellektual merosini hurmat qilish, dasturini joriy qilish omillaridan biridir.

O'zbek xalqi pedagogikasining ta'limoti ta'sirida talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlashning metodologiyasi: ma'naviy ong, tafakkurni, milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi asosiy xususiyat hisoblanadi.

Jamiyatda insonparvarlik, adolat, demokratiyani vujudga keltirish uchun o'tmish tajribasini haqqoniylik nuqtayi nazaridan ko'ra olishni, o'z-o'zini anglashni va jahon ijtimoiy, madaniy taraqqiyotini, umuminsoniy, milliy, ma'naviy, qadriyatlarni uyg'un holda o'zlashtirish mahoratini talabalarda shakllantirish lozim.

Iqtisodiy ta'limda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini hal etishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- oliy o'quv yurtlari negizida iqtisodiy ta'lim-tarbiyani milliyalashtirish;
 - har bir talaba xatti-harakati, xulq-atvorida milliy-ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish;
 - talabalarni xalq urf-odatlari, an'analari mohiyatini chuqur anglab yetishlarida dasturiy yo'llanma berish;
 - pedagoglarni ta'lim tarbiyaning samarali shakl, usul va vositalarini to'g'ri tanlashga yo'llash;
 - talabalarni xalq an'analari, urf-odatlari orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishlarini ta'minlashda to'g'ri yo'llanma berish.
- Olg'a surilgan metodologik yondashuvlar yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etish va tadqiq etishning quyidagi tamoyillarini aniqlashga imkon yaratadi:
- Sharq xalqlarining boy falsafiy, tarixiy, ilmiy merosida mujassam bo'lgan, tarixan tarkib topgan ma'naviy-madaniy xalq an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini zamonaviy pedagogik g'oyalar nuqtayi nazaridan o'rganish;
 - o'tmishdagi urf-odatlar, an'analar, marosimlar mazmunini, mukammallashtirish yo'llarini izlashga, ijtimoiy adolat, shaxsning erkinligi, ma'naviy boyishi, demokratik jamiyat qurish yo'lida targ'ib etish;
 - o'zbek xalqining urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlarida mavjud bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarni yaxlit pedagogik tizim sifatida ta'lim jarayoniga singdirish;
 - talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga yo'naltirishda milliy xalq urf-odatlari, an'analar taraqqiyotining uzoq davom etgan boy tarixiy yo'lini boshqa millatlar urf-odatlari, an'analari bilan o'zaro aloqada o'rganishga e'tiborni kuchaytirish;
 - pedagogika fanining dolzarb iqtisodiy muammolarini o'rta qo'yish va hal etish;
 - bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq urf-odatlari, an'analari, marosimlari va milliy qadriyatlari asosida talabalarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish. Bular

aqliy, axloqiy, estetik, badiiy, siyosiy, ekologik, mehnat, huquqiy, diniy madaniyatni shakllantirishdan iborat. Biz tayangan metodologiya asosida talabalar ongida va faoliyatida milliy-odatlar, an'ana va marosimlarning barcha qirralari bozor iqtisodiyoti bilan o'zaro aloqada shakllantirilsa yaxshi samara beradi.

Mazkur tamoyillar talabalar ongiga tejamkorlikni singdirib ularni hayotga tayyorlaydi.

Mustaqillik jamiyatning ma'naviy erkinligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar (urf-odatlar, an'analar, bayramlar) ni, madaniy merosni, asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib kelgan xalq pedagogikasini chuqur o'rganishga imkon berdi.

Xalq pedagogikasi (xalq og'zaki ijodi, amaliy tajribadagi an'analar, urf-odatlar, xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at) jamoa ijodkorligining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ma'naviy birlashuvi timsoli, tub manfaatlar, orzu-armonlari umumiyligini ifodalovchi tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasining tarkibiy qirralari kishilarning oliy maqsadlari, tasavvurlari, his-tuyg'ularining ifodasi sifatida pedagogik madaniyatning amaliyotda sinovdan o'tgan muhim belgilari, ya'ni xalqni ezgulikka, adolatga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka da'vat etishdan iboratdir.

Sharq ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida rivojlangan bo'lib, bunday sharoitda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Yusuf Xos xojib, Sa'diy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida insonning ma'naviy-ahloqiy kamolotida, umumbashariy ma'naviy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular sharqona odob-axloq qobig'ida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Ijtimoiy tengsizlikni jamiyat a'zolarining o'zaro kelishuvi, bir-birlariga insoniy munosabati, aql va ilm olish, davlatni adolat bilan boshqarish asosida nizolarni bartaraf etish mumkin degan mushohadani ilgari surdilar.

Bu davr ma'naviy qadriyatlari mazmunida insonning ichki va tashqi ruhiy holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr-oqibati, muhabbati, sadoqati, bilimiga (diniy va dunyoviy) intilishi, aql-idroki, erki, asosan insonni tabiatning buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, ulug'lashdan iboratdir, eng muhimi oliy ahloq, ma'rifatli va adolatli jamoa g'oyasi qo'llab quvvatlandi.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida insonning oliy maqsadga erishishi, adolatli jamoa qurishi uchun milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar vositasida tafakkurni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish lozim, degan qoidani olg'a surdi. Uning fikricha, inson kundalik faoliyatida aql-idrokka, tafakkur qudratiga tayanib ish ko'rmog'i lozim.

Uyg'onish davrining yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g'oyalari negizini tashqi muhit va insonning jismoniy sog'lomligi orqali ma'naviy kamolotga erishishi muammosi tashkil etadi. U o'zining bir qator asarlarida fozil jamoaning har bir a'zosi ma'naviy madaniyati uning insoniy va ruhiy madaniyati orqali shakllantirilishi lozim degan fikrni bildiradi.

Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarida kishilarning ma'naviy dunyosini belgilovchi fazilat insonparvarlikdir. Allomaning talqinicha, ma'rifatli, adolatli, har qanday noaxloqiy sifatlardan ham yuksak tafakkurli inson ma'naviy yetukdir.

O'tmish xalq pedagogikasi va pedagogik tafakkur jamiyatdagi maishiy qiyinchiliklarni yengish yo'llaridan biri ma'naviy barkamollikka erishish degan fikrni targ'ib qilgan holda, adolatli shahar tasviridagi jamiyat g'oyasini targ'ib qiladi.

Xalq urf-odatlari, an'analari va milliy qadriyatlarini, o'zbek xalqining kelib chiqishi, millat sifatida shakllanishi va rivojlanishi, uning etnik yadrosining o'ziga xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganish, ayni vaqtda tarixiy bosqichlarda bu zaminda yaratilgan ijtimoiy madaniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar O'rta Osiyo xalqlarining ham madaniy boyligi ekanligini, ular yaratgan madaniy manbalarning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini unutmaslikni taqozo etadi.

Tarixiy davrlarda jamiyatning gullab-yashnashi, uning ilmiy-texnik taraqqiyoti, kelajakdagi o'rni shu jamiyat ma'naviy boylik darajasi bilan baholanib keladi. Shu boisdan ham xalq milliy an'analari, urf-odatlari, uning barcha tarkibiy qismlari o'zining tarixiylik, insonparvarlik yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Milliy xalq urf-odatlarimizning tabiat va jamiyat qonunlaridan, o'zining yuksalishi, turg'unlikka uchrashi, ziddiyatli jarayonlari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlari mavjud bo'lib, doimo ularning negizida sinovdan o'tgan yuksak insoniy fazilatlar targ'ib etilganligini nazarda tutmoq zarur.

Har qanday jamiyat shaxsining har tomonlama barkamol bo'lishidan manfaatdor. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlashda jamiyatning moddiy va ma'naviy talablari, ajdodlar tajribasi, hayot taqozo etgan umuminsoniy va milliy insonparvarlik xususiyatlariga bo'lgan ehtiyoj yetakchi o'ringa qo'yilishi lozim. Buning uchun har bir davrni o'sha davr tuzumiga chuqur kirib borgan holda jamiyat madaniyati, shaxs madaniyati, fikrlar va g'oyalarning yuksalishi jarayoni nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etib o'rganish, “tayanch nuqta”ga asoslanish talab etiladi.

O'rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining boy madaniy merosida muhim o'rinni egallagan tarixan tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarni pedagogik g'oyalar rivoji orqali o'rganish talabalarni kasbga yo'llashda katta ta'sir etadi. O'rta Osiyo xalqlari yaratgan milliy o'zbek xalq urf-odatlari, an'alarining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida, ularni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlashda foydalanish orqali ularning umumjahon madaniyati xazinasida tutgan o'rni ochib beriladi.

Milliy urf-odatlarimiz, an'alarimizning yana qayta tiklanib, rivojlanib borishi madaniy manbalarning o'zaro aloqasi va ta'sirisiz kechmaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida, talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlash barcha xalqlar, millatlar ma'naviy manbalarining o'zaro ta'siriga e'tibor berish talab etiladi.

Xalq urf-odatlari, an'alarining metodologik asoslarini o'rganish talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Sharq xalqlarining boy xalq pedagogikasi, yozma adabiyoti, diniy qadriyatlari, buyuk mutafakkirlar olg'a surgan g'oyalar asrlar davomida sayqallanib kelgan o'ta-onaga hurmat, keksalarga izzat, o'zaro iqtisodiy yordam, mehmonnavozlik, boshga kulfat tushganda iqtisodiy yordam berish, saxiylik va sahovatlilik, ayollarga, muhtoj va nogironlarga ko'rsatiladigan mehr-muruvvat, halollik, samimiylilik, pok-

lik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik kabi umuminsoniy, milliy qadriyatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Avlodlarimiz milliy (meros) xazinasidan bahramand bo'layotgan talabalar muammolar (son-sanoqsiz manbalar, hajm jihatidan juda katta materiallar) ichida qolib ketmaslik uchun eng zarur bo'lgan g'oyalarni tanlab, dasturga tizimlashtirib ularni har bir davrning imkoniyatlariga mos sharoit bilan bog'liq holda talabalar ongiga singdirish zarur. Tanlangan materiallar quyidagi prinsipga javob berishi kerak: talabalarni yosh xususiyati, bilim darajasi, qiziqishi, qiziqarli va ilmiy bo'lishi kerak. Bu esa talabalarni milliy an'ana va qadriyatlarimizni atroflicha mushohada etishda, muammolar mohiyatini anglab yangi sharoitda hal qilishda, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan madaniy boyliklarni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish mas'uliyatini o'ziga olishda yordam beradi.

Talabalarda umuminsoniy va milliy urf-odat, an'analarni o'rganishga ehtiyojni oshirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va ma'naviy muammolarni to'g'ri anglashga yordam berish;

- talabalarni har tomonlama yetuk iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlash zamirida, uni jamiyatning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shishini ta'minlash;

Talabalarni iqtisodchi-pedagog kasbiga tayyorlashning muhim manbai bo'lgan o'tmish madaniy merosi, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni hozirgi zamon madaniy-ma'naviy hayoti bilan o'zaro aloqada, uyg'unlikda o'rganish, amaliy faoliyatda ularda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarga rioya etish, ularning umrboqiyiligini ta'minlash, rivojlantirish zarurligini tub ma'noda anglab yetish.

Xulosa qilib aytganda, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti talablariga to'la javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashda iqtisodchi-pedagoglarning alohida o'rin tutadi. Zero, yuksak malakali iqtisodchi-pedagoglarni yetishtirish davlat va ijtimoiy buyurtmaning eng asosiy ustuvor yo'nalishlaridan birini o'zida mujassamlashtiradi. Bu jarayondagi hal qiluvchi ahamiyat pedagogik iqtisodchi nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish hamda amaliy faoliyati davomidagi iqtisodiy-pedagogik ko'nikmalarni hosil qilish tajribasini shakllantirishga dahldor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch*. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. *Tanlangan asarlar*. – T.: "Fan", 1983.
3. *O'zbek pedagogikasi antologiyasi / Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Ochil S; Tahrir hay'ati: Xayrullayev M (rais), Iskandarov I, Hoshimov K, Mirzayev O va boshq.* – T.: "O'qituvchi", 1995.
4. Джуреев.Р.Х., Цой.М.Н., Данияров.Б.Х., Гаер.Т.В. *Интерактивный комплекс в образовательном процессе*. – T.: "Шарқ", 2011.

Gulbahor AKRAMOVA,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi

O'zPFITI ilmiy xodim izlanuvchisi, p.f.n.

O'QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish borasidagi nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, uning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, muallif o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun uzluksiz ta'lim jarayonida ilg'or innovatsion texnologiyalarni ta'lim maqsadi va mazmuniga mos tarzda, yosh xususiyatlari hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda qo'llash bo'yicha bir qator tavsiyalarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagog, tanqid, tafakkur, tahlil, usul, munosabat, ta'lim, jarayon, axborot.

В статье анализирован теоретический подход к развитию критического мышления учащихся, научно обоснована актуальность проблемы. Освещены эффективные методы процесса подготовки учащихся к социальным отношениям на основе развития их критического мышления.

Ключевые слова. Педагог, критическое мышление учащихся, анализ, метод, отношение, образование.

In this article has been analyzed theoretical approach to improve critical thinking of students, scientifically proved relevance of the problem. Here has been dealt with the question of effective methods of students training to social relations on the basis of development of their critical thinking.

Key words. Teacher, critical thinking, analysis, method, attitude, education, effective method.

Axborotlar oqimi jadal harakatda bo'lgan XXI asrda o'quvchi shaxsining tanqidiy fikrlash salohiyatini uzluksiz tarzda rivojlantirib borish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish asosida ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash ikkita o'zaro aloqador jarayonni o'z ichiga oladi:

a) ta'lim-tarbiya jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;

b) tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash jarayoni.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar o'quvchilarning atrofdagilar bilan muomala qilishga, mavjud vaziyatni to'g'ri baholashga, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlashiga imkon beradigan o'quv vaziyatlarini tashkil etish zaruriyatini qo'ymoqda. Bu esa, ta'lim jarayonida barcha yoshdagi o'quvchilarning individual imkoniyatlariga qarab, ularning bilish faolligini oshirish, tanqidiy, ijodiy tafakkurini rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur muammo pedagog, psixolog, sotsiologlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J.Still, K.Meredis, Ch.Templar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni amalga oshirish uchun o'qish va yozish loyihasini ishlab chiqdilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishi, tanqidiy hamda mustaqil fikrlashini faollashtirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish masalasi bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

P.P.Blonskiy o'quvchilarda mustaqil tafakkurni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratib: "O'quvchiga tayyor bilimlarni bermasdan, balki o'z fikri bilan dunyoni bevosita yaqqol hissiy jihatdan idrok etishga yordamlashish" lozimligini uqtiradi. Olim bu ma'noda o'quvchilarda tanqidiy tafakkur orqali barcha narsalarni shubha ostiga olish ko'nikmasini shakllantirish muhimligini ta'kidlagan.

O'quvchilarda ijodiy, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muammosiga oid qarashlar mustaqillik yillarida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bular J.G'.Yo'ldoshev, O.Roziqov, M.H.Mahmudov, R.Safarova, B.Adizovlarning tadqiqotlarida mazkur masalaga nazariy-konseptual hamda amaliy yondashuvlar bayon qilingan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar o'quvchilarda mustaqil, mantiqiy, ijodiy hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, tafakkur qilish imkoniyatlarini boyitish masalalari tadqiq etilgan bo'lsada, o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov o'z asarlarida: "Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor. Shu ma'noda, axborot olamidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi", – degan g'oya ilgari suriladi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni necha yoshdan boshlash kerak degan haqli savol tug'iladi? Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi bolaning ilk yoshidan boshlab uzluksiz rivojlantirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Agar bolani yoshligidanoq har bir narsa, voqea-hodisaning o'ziga xos tomonlarini ko'ra olish, ularga ijodiy yondashishga o'rgatilsa, uning tafakkuri ijodiy, moslashuvchan bo'lib, mustaqil mulohaza yurita oladi.

Buni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim jarayonida ilg'or innovatsion texnologiyalarni ta'lim maqsadi va mazmuniga mos tarzda, o'quvchining individual yosh xususiyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda qo'llash samarali natija beradi.

Quyida o'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator usullarni tahlil qilishga intildik.

Fikrlash har qanday yoshda namoyon bo'ladi. Tanqidiy fikrlash – bu axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayonidir.

O'qish, ona tili, atrofimizdagi olam, adabiyot, tarix, geografiya darslarida o'quvchilar ko'proq matn o'qishlari kuzatiladi. "Insert" usuli o'quvchilarda yangi matnni tushunib, diqqat bilan o'qish ko'nikmalarini shakllantirib, ularning har bir jumla yuzasidan tanqidiy tafakkur yuritishlariga ko'mak beradi. "Insert" usulining qo'llash tartibi quyidagicha:

a) o'quvchilarga yangi matn tarqatiladi;

b) o'quvchilar matnni o'qish jarayonida har bir xat boshiga 4 xil belgi qo'yadi:

1) “V” – bilganlarimni tasdiqlaydi;

2) “+” – yangi axborot;

3) “-” – bilganlarimga zid keladi;

4) “?” – meni o‘ylantirib qo‘ydi.

s) matn yuzasidan o‘quvchilar bilganlari yoki bilmaganlari haqida bir-birlariga so‘zlab, aqliy hujumni amalga oshiradilar.

O‘quvchilarni fikrlashga, ularning hayotiy tajribalarini ortishiga, yozma va og‘zaki nutqlarini o‘stirishga “FSMU” texnologiyasi yordam beradi. Bu usul uzluksiz ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida samarali natijalarni beradi.

“FSMU” texnologiyasi bir necha bosqichda qo‘llaniladi:

I-BOSQICH.

– pedagog o‘quvchilar bilan birga ta‘lim mazmunidan kelib chiqib bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni tanlaydi;

– pedagog o‘quv mashg‘ulotida avval har bir ishtirokchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlashi haqida ishtirokchilarga ma‘lumot beradi;

– mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

II-BOSQICH.

Har bir o‘quvchiga “FSMU” texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

M – ko‘rsatilgan sababingizni asoslab misol (dalil) keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

O‘quvchilar yakka tartibda tarqatilgan varaqasidagi “FSMU” ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradilar.

III-BOSQICH.

Har bir o‘quvchi o‘z varaqasini to‘ldirib bo‘lgach, pedagog ularni kichik guruhlariga bo‘ladi:

Pedagog har bir guruhga “FSMU” texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi varaqalarni tarqatadi.

Kichik guruhlarda har bir o‘quvchi yakka tartibda yozgan fikr va dalillarini katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlari lozim bo‘ladi.

IV-BOSQICH.

Kichik guruhlarda har bir o‘quvchi o‘zi barcha bosqichlarda yozgan fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Har bir guruh a‘zosining barcha fikrlari tinglangach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadilar:

Guruhdagi ishtirokchilar “FSMU” ning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirish, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

To‘plangan fikrlarni umumlashtirish jarayonida har bir ishtirokchi o‘z fikrini himoya qilishi hamda asoslab berishi lozim.

V-BOSQICH.

Kichik guruhlarning ishtirokchilari umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: Har bir guruh vakili barcha bosqichlarda bildirilgan fikrlarni alohida o'rganib, guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganligini izohlashi talab qilinadi.

VI-BOSQICH.

Pedagog mashg'ulotga yakun yasaydi, bayon qilingan fikrlarga munosabat bildiradi.

Turli yoshdagi o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning asosiy vositalaridan biri – muammoli vaziyatlarni yaratish jarayonidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarda faraz, inkor, tanlash, yuqori sinf o'quvchilarida esa nomutanosiblik, favqulodda holat, nizo vaziyatlaridan foydalanish samarali natija beradi.

Ta'lim jarayonida pedagog o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash uchun ikki shartga amal qilish lozim;

– o'quvchi o'zining kichik rasmiy guruhida shaxslararo muloqotga kirishish uchun doimo tayyor bo'lishiga erishilishi, o'quvchining shaxsiy fikr bayon qilish, muntazam rivojlantirish;

Buning uchun ta'lim jarayonini tashkil etishning ikkita o'zaro aloqador yo'nalishini uyg'unlashtirish talab etiladi:

– o'quvchilar faolligining ahamiyatligini oshirish maqsadida ularga, bilimlarni samarali o'zlashtirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish, buning uchun ular oldiga intellektual topshiriqlar qo'yish. Bunday topshiriqlarni yechish orqali o'quvchilar kashfiyotlar qilish, ijodiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltiradilar.

– o'quvchilarning o'zlari uchun ahamiyatli faoliyatni amalga oshirishlarini ta'minlash maqsadida, ularning o'zaro fikr almashishlari, bir-birlarining tajribalarini o'rganish uchun qulay pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz.* –T.: "O'zbekiston", 2009. – 280 b.

2. Still J., Meredis K., *Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari.* –T.: 1998. – 49 b.

3. Still J., Meredis K., *Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan keyingi usullar.* –T.: 2000. – 90 b.

4. Байрамов А.С. *Развития самостоятельности и критичности мышления у детей младшего школьного возраста. Автореф.дис..доктора псих.наук.* Баку. 1968.

Furqat NURIDDINOV,
Nafisa MURATOVA,
Samarqand DU o'qituvchilari

O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada yosh avlod ongiga mustaqillik, vatanparvarlik, sadoqat kabi tushunchalarni singdirish, ularning ongiga mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishda dunyoqarashini keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zlariga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning ko'magiga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish kerakligini ta'kidlab, qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Milliy ong, milliy iftixor, vatanparvarlik, mafkura, ma'naviyat, ma'rifat, urf-odat, an'ana, qadriyat, mentalitet.

В статье раскрыта сущность проблемы внедрения в сознание молодого поколения понятий независимости, преданности Родине, недопущения идеологического вакуума в умах молодежи. Также определена актуальность и важность формирования у учащейся молодежи национального самосознания, гордости и достоинства.

Ключевые слова. Независимость, национальное сознание, национальная гордость, патриотизм, идеология, духовность, просвещение, обычаи, ценности, менталитет.

The article presents a theoretical overview of the problem of formation of national consciousness among the young generation in the system of continuous education. Has been given highlights of the subjective and the objective factors of national consciousness formation in educational process. Discusses the education of patriotism, national pride, humanistic attitudes in children and adolescents.

Key words. Independence, national consciousness, national pride, patriotism, ideology, spirituality, education, customs, values, mentality.

Bugungi demokratik jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-ma'naviy muhit va uning asoslarini tashkil qiluvchi ma'naviy omillar muhim o'rin tutadi. Chunki hozir xalqimizga xos bo'lgan hamjihatlik va bag'rikenglik, mehr-oqibat, mehmondo'stlik va saxovat kabi insoniy fazilatlar yanada yorqin namoyon bo'lmoqda va bunday ma'naviy muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastladki yillarida, “Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir”, deb ta'kidlagan edi.

Yosh avlodda milliy ongni shakllantirish va uni mustaqillik ruhiyati bilan uyg'unlashtirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barchaning zamirida mujassam ko'tarildi. Prezidentimizning 1994-yil 23-apreldagi “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik

markazini tuzish to'g'risida", 1996-yil 9-sentabrda esa "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida", 1999-yil 3-sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2006-yil 25-avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi "Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Milliy ong – muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda "milliy ong" tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "millatning yagona tili, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezonini hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongni rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi".

Milliy ong tushunchasining mohiyatida ma'naviy hayot asosiy o'rin egallaydi. Bu esa, ma'naviyat aslida qanday tushuncha ekanligini anglab olishimiz kerak deganidir. Ma'naviy-ruhiy qiyofani o'rganish, xalqimiz dunyoqarashida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, ma'suliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy holatlarning oldini olish imkonini beradi. Milliy ong ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, dunyoqarashi, fikrlashi, tafakkur tarzi hisoblanadi. Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar milliy ong doirasida tadqiq qilinadi.

O'quvchilarda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "rivojlanish", "tarbiyalash", "shakllantirish", "omil", "pedagogik ta'sir", "milliy g'urur", "milliy iftixor" va "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday faoliyatni olib borish esa, avvalambor o'qituvchi va tarbiyachilarning zimmasidagi muhim vazifadir.

Milliy ong, milliy iftixor tushunchalarini to'laqonli anglab olishi, uchun yoshlarga bog'cha yoshidan, kichik maktab yoshidan va undan keyingi bosqichlarda uzluksiz davom ettirish lozim. Bunda esa, o'quvchilarning yoshlari va ularning xarakter xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalarga milliy ong, vatanparvarlik, milliy iftixor, milliy qadriyat tushunchalarini o'yin orqali, har xil qiziqarli va vatanni e'zozlashga, ona tuproqni avaylab-asrashga qaratilgan ertaklar orqali ifodalash mumkin.

Bog'cha yoshidagi bolalar ertak qahramonlariga taqlid qilishi va shu orqali ertakda targ'ib qilingan insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishi mumkin.

Mashg'ulotlar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilariga olib boriladigan vatan tushunchasini targ'ib etuvchi har xil sh'erlar, ertaklar, shu bilan birga, milliy o'zlikni anglashga doir tarbiyaviy tadbirlar, badiiy kechalar uyushtirish orqali ularda vatanga nisbatan mehr-muhabbat, qadriyatlarini e'zozlash, urf-odatlariga hurmat bilan qarash, milliy g'urur kabi tushunchalarni shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ham o'quvchilar ertaklardagi salbiy va ijobiy qahramonlar rolini ijro etish orqali ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi, salbiy illatlarga nisbatan nafrat ko'zi bilan qaraydigan bo'ladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining dunyoqarashi shakllanganligi, bilim darajasi yuqoriligi bois, ularda bu tushunchlarni o'yinlar orqali singdirish emas balki, har xil bayram tadbirlari, badiiy kechalar, uchrashuvlar, vatanni e'zozlashga qaratilgan “Vatan muqaddasdir”, “Jannat onalar oyog'i ostidadur”, “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”, “Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaylik”, “Mardlar qo'riqlaydi vatanni” kabi bayram tadbirlar o'quvchilarda milliy iftixor, milliy g'urur, ona vatanga sadoqat tushunchalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida milliy ongni shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish ularni vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. Shuningdek, o'quvchilarda jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, millatlararo totuvlik qaror topishiga o'z ulushini qo'shish hamda o'z qadrgimmatini anglab yetishlarini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ko'zga tashlangan muammolarni tahlil etish asosida o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishda quyidagi omillar ustuvor o'rin tutadi:

Subyektiv omillar:

- shaxsning o'zligini anglashga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi;
- kishilik munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi;
- milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;
- ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aksi;
- o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlashiga erishish;
- o'quvchilarda milliy ong tuyg'usini shakllantirishga e'tiborni qaratish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning istak va xohishlarini inobatga olish, bunda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish;
- o'quvchilarda milliy ongni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi;
- o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning ko'magiga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishning mukammal tizimini yaratish.

Obyektiv omillar:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;
- o'quvchilarda milliy ongni shakllantiruvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi;
- o'quvchilarda milliy ongni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning keng yo'lga qo'yilganligi va boshqalar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berishni joiz deb bildik:

– yoshlarda umummillat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish;

– xorijiy mamlakatlar va respublika ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari milliy ongni shakllantirishga oid tajribalarni o‘rganish, ularda ilgari surilayotgan ilg‘or qarashlarni umumlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarda milliy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi tadbirlarning yetakchi o‘rin tutishi hamda ularning g‘oyaviy jihatdan yuksak saviyada bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim. Yoshlarda milliy ongni shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o‘rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo‘llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o‘rganish maqsadga muvofiq. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarida milliy ongni shakllantirish ijtimoiy zaruriyat bo‘lib, bu muammoning hal etilishi milliy mustaqillikni mustahkamlash va millatning xalqaro maydondagi obro‘sin oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Sharq”, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
3. Boboyev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. –T.: Yangi asr avlodi, 2001.
4. Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. T.: “Ijod dunyosi” nashriyot uyi. 2002.
5. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsad va vazifalari. –T.: “Ijod dunyosi” nashriyot uyi, 2002.
6. <http://www.bilimdon.uz>

Shuxrat NE'MATOV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi

O'zPFITI ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, p.f.n.

Farxad RO'ZIYEV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI

katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BAHO – TA'LIM TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada baho ta'limning istiqboldagi taraqqiyoti va o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga moslashuvlaridagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quv-tarbiya jarayonidan kutilayotgan natija ta'lim taraqqiyotini belgilashi, ta'lim natijasi esa o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirilganlik darajasi bilan bog'liqligi haqida bir qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim mazmuni, o'zlashtirish darajasi, ta'lim maqsadi, faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim natijasi, ta'lim taraqqiyoti, uzluksiz ta'lim.

В данной статье раскрыта роль оценки степени усвоения учащимися учебных материалов в процессе обучения и адаптации учащихся к социально-экономической жизни; определена сущность оценки знаний учащихся как средства достижения всё новых и новых целей в общественной жизни.

Ключевые слова. Содержание образования, уровень усвоения, цель обучения, деятельность, социально-экономическое развитие, результат обучения, развитие образования, непрерывное образование.

In the article the conversation is carried about the importance assessment in the development of education and teacher's role in pupils' adaptation in socio-economical life.

Key words. Content of education, level of study, aim of education, activity, social and economical development, result of education, development of education, continuous education.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni uning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uzluksiz ta'lim tizimining istiqboli va ahamiyatiga bog'liq. Ta'lim jamiyatning ma'naviy hayoti va iqtisodiyotini rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, ta'lim taraqqiyotini esa uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarning ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir, uning mazmuni jamiyat kelajagi uchun xizmat qilishi kerak, u nafaqat bizni o'rab turgan ijtimoiy – iqtisodiy sohalarining holati va parametrlari haqida konstruksiyalovchi, balki ularning istiqboldagi taraqqiyotini ham hisobga olgan holda belgilab berishi lozim.

Hozirgi kunda pedagog shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyektga aylandi, o'quvchilar esa, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga jalb qilinmoqda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy qoidalaridan biri o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka bilan birga, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish, ya'ni ularni egallagan bilimlaridan ijtimoiy-iqtisodiy hayotda duch keladigan vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir. Shuning uchun ham o'quv jarayonini boshqarish, rejalashtirish, uning natijalarini tahlil qilish va baholash pedagogik diagnostika natijalariga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi kerak.


O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunlarining talabi asosida, ta'lim, davlat va jamiyat qiziqishlarini hisobga olgan holda, muayyan maqsadga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonidir. Mazkur jarayonda o'quvchi shaxsining umumiy kamolotini ta'minlash va barkamol shaxsni yetishtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik harakat amalga oshiriladi.

O'quv-tarbiya jarayonidan kutilgan natija o'quvchining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan madaniy-iqtisodiy, huquqiy, tarixiy-ma'naviy, lingvistik, badiiy-estetik va tabiiy matematik bilimlar yig'indisi bo'lib, uning kelajakda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga moslashishi uchun ahamiyatli bo'lgan jarayondir. Buning natijasida jamiyatning madaniy, iqtisodiy, huquqiy darajasi ortadi.

Demak o'quv-tarbiya jarayonidan kutilayotgan natija, ta'lim taraqqiyotini belgilaydi desak xato qilmagan bo'lamiz, ta'lim natijasi esa o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasi bilan bog'liqdir. Ushbu o'rinda o'qituvchi va o'quvchi Davlat ta'lim standartlarini bajarish baraborida o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yadi va shunga erishish uchun harakat qiladi, qachonki o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlari kesishgan nuqtada bo'lsa ta'lim natijasi samarali bo'ladi, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor, ya'ni ta'lim natijasi har doim subyektiv va individual xarakterga ega bo'lgan, chunki o'quv materialining o'zlashtirish qiyinchiliklari va quvonchlarini faqatgina o'quvchi his qiladi, aynan shu jarayonda pedagog o'quvchining motivlari, psixologiyasi, intilish va qiziqishlariga ta'sir qila oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagog ta'lim natijasini tekshirib, o'quvchilarni, o'quv materiallarini o'zlashtirganlik darajalaridan ogoh qilib turadi, o'quvchilar o'z yutuq va kamchiliklarini anglab, ta'limning subyektivligi, binobarin, o'quvchi uchun ta'limning ahamiyati oshadi. O'quvchilar o'qish-organishning zaruriyligini ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytda anglashadi. Buni biz quyidagi 1-rasm orqali tahlil qilamiz.

1-rasm



Ushbu tahlilimizdan kelib chiqib ta'lim natijasi har doim subyektiv va individual xarakterga ega ekanligini e'tiborga olib ta'lim natijasini baholash haqida fikr yuritamiz, avvalo baho o'quvchilarni ma'naviy-intellektual rivojlantirishda alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Baho pedagogik, falsafiy hamda psixologik mohiyat kasb etib, o'quvchi faoliyati, xulqiga bo'lgan tashqi va ichki munosabatni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda baho obyektiv hamda subyektiv xarakterga ega, uning yordamida o'quvchining xulq-atvori va o'zlashtirish darajasi muayyan talablar va axloq me'yorlariga qay darajada mos kelishi aniqlanadi.

Baholash deganda o'qish jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalarni o'quv predmetlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablari bilan solishtirish orqali erishilgan yutuqlarni aniqlash tushuniladi. Baholashda o'quvchining bilimi, ko'nikmasi va malakasi aniqlanadi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida bahoga quyidagicha ta'rif berilgan: “Baho – ijtimoiy hodisalararo, inson faoliyati, xulqiga bo'lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan axloq me'yorlari va tamoyillariga mosligini ko'rsatish, ma'qullash yoki qoralash, rozi bo'lish yoki tanqid qilishdan iborat. Shuningdek, insonning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, madaniy saviyasi, aqliy va axloqiy kamoloti bilan belgilanadi. Boshqa tomondan esa, qilingan harakat sabablari, vositalari va maqsadlarini, uning qanday sharoitda bajarilganligini, shaxs xulqidagi o'rnini hisobga olish, bu shaxsga to'g'ri baho berishning muhim shartidir”.

Pedagogik ensiklopediyada esa, baho o'quvchining o'zlashtirish darajasini ko'rsatuvchi vosita sifatida ta'riflanadi. Unda baho “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari” dasturi talablari asosida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarining darajasini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'luvchi pedagogik birlik ekanligi ta'kidlangan.

Bugungi kun talablari nuqtayi-nazaridan yondashganda baho – o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy sifatlarni egallaganlik darajasiga o'qituvchi tomonidan bildirilgan munosabatdir, shuni inobatga oladigan bo'lsak o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirganlik darajalarini baholash O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Test Markazining 2010-yil 8-iyundagi 23- va 11/QQ-sonli “5 – 9-sinf o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom”ga asosan quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi;
- har bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'iy nazar, besh (5) ballik (“5”, “4”, “3”, “2”, “1”) usulda butun sonlar yordamida baholanadi;
- o'quvchilarning har bir nazorat turi bo'yicha bilimni baholash va reyting ko'rsatkichini aniqlash ularning o'quv fani mavzusi bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi, mavzuning mohiyatini tushunib yetishi va aytib bera olishi, olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi, mustaqil mushohada yurita olishi, ijodiy fikrlay olishi va xulosa qabul qila olishi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajarishi kabi mezonlarga qarab amalga oshiriladi;


- “5” bo'lganda — 86, 90, 95 va 100 reyting ko'rsatkich ballaridan biri;
- “4” bo'lganda — 71, 75, 80 va 85 reyting ko'rsatkich ballaridan biri;
- “3” bo'lganda — 56, 60, 65 va 70 reyting ko'rsatkich ballaridan biri qo'yiladi.

Yillik reyting ko'rsatkich ballari yuqorida qayd etilgan ballardan iborat bo'lib, uni belgilashda boshqa raqamlardan foydalanilmaydi, minimal 55 ball bundan mustasno.

Agar o'qituvchi o'quvchining yillik reyting ko'rsatkich ballni 56 balldan kamligini e'tirof etsa, u holda o'quvchining yillik reyting balli minimal 55 ball bo'lib belgilanadi.

Ushbu nizomga asosan o'qituvchi o'quvchilarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanganligi darajasini nazorat qiladi va o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlaydi, kasb tanlashga yo'llash ishlarini amalga oshiradi, shularni inobatga olib o'quv materiallarini o'zlashtirganlik darajalarini 2-rasm orqali quyidagicha tahlil qilamiz.

2-rasm



Demak, pedagog o'quvchilarni baholashda ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida **“maqsad”**, **“faoliyat”**, **“natija”** kontekstida o'z faoliyatini tashkil qilishi zarur, chunki maqsad – oldindan anglangan, rejalashtirilgan natija bo'lib, unga erishish ongli, yo'naltirilgan faoliyatni talab etadi. Maqsad va maqsadga muvofiq faoliyat oldindan belgilangan natijaga erishish jarayonining elementlari sanaladi. Qo'yilgan maqsad bilan natija qanchalik bir-biriga mos tushsa yoki yaqinlashsa o'quvchi o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi. Amalga oshgan maqsad natijaga, erishilgan natija esa, o'quvchilarga ijtimoiy hayotda yangi-yangi maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilarning o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirishi ta'limning taraqqiy etishini ta'minlaydi, ta'lim taraqqiyoti o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997.
2. Safarova R. va boshqalar. Istiqboldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari”. – T.: “Fan”. 2009.
3. Roziqov O. va boshqalar. Ta'lim texnologiyasi. – T.: “O'qituvchi”. 1999.
4. Ксензова Г.Ю. Оценочная деятельность учителя. Учебно-методическое пособие. – М; Педагогическое общество Россия. 2001.

G'ayratjon TAJIBAYEV,
Namangan DU katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILINI TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarga tinglab tushunish texnikasi bilan tanishtirish uchun uslubiy tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Nutq faoliyat turlari, reproduktiv, tinglab tushunish, ko'nikma, malaka, nutqgacha davr, asorat nazariyasi.

В статье освещены вопросы формирования умений и навыков, аудирования у учащихся начальных классов при обучении английскому языку. Автором даны методические рекомендации по ознакомлению учеников с техникой аудирования.

Ключевые слова. Виды речевой деятельности, аудирование, репродуктивный, умение, навык, доречевой период.

The article deals with issues and concepts in pedagogical research that is related to teaching listening comprehension. The author presents proposals to apply principles of designing listening techniques and formats for assessing listening comprehension.

Key words. Speech aspects, receptive, reproductive, listening comprehension, experience, skill, audited interpretation, language material, silent period, trace theory, miming, gesture, stress free environment.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tufayli farzandlarimiz har tomonlama komil inson bo'lib tarbiyalanmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida birinchi sinfdan boshlab chet tillar (asosan ingliz tili) o'qitilishini amaliyotga joriy qilinishi barkamol avlod tarbiyasiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaldagi isbotidir. Bu esa, amaliyotchi pedagog va soha mutaxassislari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyat turlaridan farq qiladi va u chet tilini o'qitish jarayonida ta'lim maqsadi hamda vositasi tarzida o'rganiladi. Nutqni "tinglab tushunish" deganda, ovoqli nutq (gapirish), ya'ni verbal vositalar yordamida ifodalanayotgan fikr yoki axborotga quloq solish, uni idrok etish va fahmlash anglanadi. Chet tilida og'zaki ifodlangan ma'lumotni idrok qilish, ya'ni tinglab tushunish (аудирования, listening comprehension) J.Jalolov ta'biri bilan aytganda, gapirishni tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish metodikaga nisbatan kam tadqiq etilgan.

Odatda “Ingliz tilida gaplashasizmi?”, “Вы говорите по английски?”, “Do you speak English?”, degan savol ko‘p beriladi. Lekin “Ingliz tilidagi nutqni tushunasizmi?” yoki “Вы понимаете английский речь” tarzida murojaat qilinmaydi. Aksariyat til o‘rganuvchilar tinglash jarayonida til materialining 30 foizini idrok qiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkazilgan testlar natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda tinglab tushunish va tinglab xotirada saqlashga nisbatan ko‘rib tushunish va xotirada saqlash malaka hamda ko‘nikmalari yaxshiroq rivojlangan. Ya’ni o‘quvchilar ko‘rish orqali tinglashga nisbatan olti marotaba ko‘p ma’lumot olishar ekan. Bu esa, o‘quvchilarning tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishga yetarlicha ahamiyat qaratilmayotganidan dalolat beradi.

Auditiv idrokni rivojlantirish chet til o‘qitishning dastlabki bosqichida tilning og‘zaki asosini egallash va og‘zaki ilgariylash tamoyiliga amal qilinishini ta’minlaydi. Til materiali tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ketma-ketligida mukammal o‘zlashtiriladi. Birinchilardan bo‘lib metodist X. Palmer chet tilni egallashni tinglab tushunish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni yoqlab chiqqan. 1970-yil oxirlarida J. Asher tomonidan yaratilgan “Total Physical Response” metodida tinglab tushunish chet til egallashning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan. U chet tilni o‘zlashtirilishi birinchi tilni, ya’ni ona tilini o‘zlashtirish jarayonlari bilan parallel deb qaraydi. Ya’ni bolalarda gapirishdan avval eshitish ko‘nikmasi rivojlanadi. Ona tilini o‘zlashtirilishining dastlabki bosqichlarida bola murakkab nutqni tushuna oladi lekin, spontan nutq hosil qiloilmaydi.

Bolalar nutqqacha davrda (rus tilida “довербальный этап”, ingliz tilida “silent period”) eshitish orqali juda ko‘p miqdorda nutq namunalardan bahramand bo‘lishadi. Ta’limning dastlabki bosqichidagi chet til sun’iy muhitini yaratishga mo‘ljallangan mashqlarda o‘quvchilarga ko‘p miqdorda nutq namunalari (tinglash uchun namunaviy bo‘lmish muallim nutqi) taqdim etiladi va ularning xotirasida iz qoldiriladi. Bunga takroran murojaat etilib o‘quvchining tanish leksikasiga aylantiriladi. Iz xotirada qanchalik tez-tez va intensiv qoldirilsa xotira mustahkam bo‘ladi va uni qayta chaqirib olish oson kechadi. Bu davrda o‘quvchilardan nutqiy javob talab qilish maqsadga muvofiq emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni havola etamiz.

1. Auditiv til materiali to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchiga qaratilgan va og‘zaki javob qaytarishni talab qilmaydigan buyruq gaplardan iborat bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘p takrorlangan so‘zlar va ular anglatadigan narsalarning nomini yaxshi eslab qoladilar. Masalan, chapak-chapak deb takrorlab turib chapak chalinsa, o‘quvchi shu so‘z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki unga “assalomu alaykum” ta’zim qilib ko‘rsatilsa, bola so‘zni eshitishi bilan ta’zim qiladigan bo‘ladi. Shu tariqa bolalar buyruqlarga javoban turli harakatlarning mosini tanlab bajara boshlaydilar.

Dastlab bolalarda nomi aytilgan buyumga burilib qarash, turmush tajribasida egallagan harakatlarini o‘qituvchi eslatishi bilan bajarishga intilish, uning nutq orqali ko‘rsatmasidan oddiy nutq topshiriqlarini bajarish, o‘qituvchining nutq orqali ko‘rsatmasi bo‘yicha zarur predmetni tanlab olish va mumkin emas ta’qiqlovchi so‘zi yordamida harakatni to‘xtatish kabi ko‘nikmalarni hosil qilish mumkin. Buning uchun o‘quvchilarga turish, o‘tirish, chapak chalish, ta’zim qilish, qo‘lni ko‘tarish, doskani artish, eshikni ochish, derazani yopish tarzidagi buyruqlarga javoban mos jismoniy harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatish kerak. Masalan, Sardor o‘rningdan tur. Doskaga chiq. Eshikni yoniga bor. Eshikni och. Eshikni yop. Rahmat. Joyinga borib o‘tir. Sening

bahoying a'lo. O'quvchilarning tinglab tushunganligini aniqlash uchun Lund quyidagi usullarini taklif qiladi:

- bajarish – tinglovchi buyruqqa jismoniy javob qaytaradi;
- tanlash – tinglovchi eshitgan so'zini anglatuvchi rasm yoki buyumlarning mosini tanlaydi;
- transformatsiyalash – tinglovchi eshitilgan narsaning rasmini chizadi;
- modellash – buyurtma berish yoki buyruq berish tartibini tinglagan o'quvchi o'zi mustaqil buyruq berishni mashq qiladi;
- nusxa ko'chirish – o'quvchi eshitgan so'z, so'z birikma, standart nutq namunasi va gapni aynan qaytaradi, yoki o'qituvchiga taqlid qiladi.

1.Tinglab tushunish mashqlari zo'riqish va asabiylashishdan xoli vaziyatlarda o'tkazilishi kerak.

Tilni muvaffaqiyatli o'rganish uchun muhim vaziyat bu stressdan xoli muhitdir. Ona tilini o'zlashtirilishi stressdan xoli, xotirjam muhitda sodir bo'ladi. Asherning fikricha, kattalarning chet tilni o'rganishlari asabiy va ruhiy zo'riqish holatida kechadi. Xotirjam muhitni yaratishning kaliti esa tilni rivojlantirish bio-dasturining muruvvatini burash va ona tilini o'zlashtirilishiga o'xshash erkin hamda zavqli tajribalarni qamrab olishdir.

Diqqat markaziga abstrakt holda o'rganilgan til shaklini emas harakatlar orqali talqin qilingan mazmunni olish orqali til o'rganuvchi ongli va stressli vaziyatlardan xoli qilinadi va u bor kuchini o'rganishga sarflaydi. O'quvchilarni zaruriy miqdordagi so'zlarni tushunmasalarda yaxshi tinglovchi bo'la olishlari mumkinligiga ishonitirish kerak. Ertak va qisqa hikoyalardan foydalanish o'quvchining tinglab tushunish ko'nikma va malakasini rivojlantiradi. Buning uchun tinglab tushunish mashqlari ma'lumot olish uchun emas, balki zavqli mashg'ulot sifatida olib borilishi lozim.

2.Auditiv til materialining tushunishni osonlashtiradigan omillarga boy bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Nutq sohibining o'ziga xos talaffuzi, ohangi va ovozinig xarakterli jihatlar, nutqning tezligi va ko'rgazmalilikdan soqit qilinganligi, mexanik yozilgan audiomatnning murakkabligi nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklardir. Bundan tashqari, tilga oid shakliy qiyinchiliklarni ham hisobga olish zarur. Ma'nosi har xil, tovush shakli esa o'xshash so'zlarni (omofonlarni) yoki chet til fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakablik kasb etadi. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar, ayniqsa, dialog nutqni tinglashda ko'proq uchraydi. Fikrning ixcham va situativ, ya'ni ma'lum nutq vaziyatiga xos bo'lishi, kontekstual, ixchamlashtirilgan, reaktiv, va tayyorlanmagan bo'lishi dialog nutqqa xosdir.

Bundan tashqari, nutqning emotsianalligi, ekspressivligi, obrazlilik, intonatsiya va talaffuzning subyektivligi, noverbal vositalar (imo-ishora, yuz, qo'l va bosh harakatlari) orqali ma'no ifodalanishi, adabiy til me'yorlariga amal qilinmasligi, gapirishni jonli tilda sodir bo'lishi, muloqot jarayonida shevaga oid so'zlarning ko'p ishlatilishi, tasodifiy til hodisalari, frazeologik birliklar, his-tuyg'uga yo'g'rilgan ifodalar, kinoya, piching, istehzo hamda “qog'ozga o'ralgan” jumla va ko'chma ma'nodagi so'zlarning ko'p uchrashi ham dialog nutqni tinglab tushunishga g'ov bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qisqa va sodda gaplardan tuzilgan monolog nutqni tinglab tushunishga o'rgatish tavsiya etiladi.

Chet tilda og'zaki ifodalangan fikrni tushunishda eshitish nutq analizatori muhim rol o'ynaydi. Eshitish nutq analizatori tovush to'lqinlarining tebranma harakati ta'sirida

bosh miyaga axborot uzatadi va bundan tinglovchi turli darajada ta'sirlanadi. Bolalar nutqni assotsiativ tarzda bog'lash orqali emas, balki intonatsiya (ohang) va imo-ishoralar orqali tushunadi. O'zgalar nutqni tushunishlari ko'rish idrokining zamirida vujudga keladi. Shu sababdan bolalarga qaratilgan nutq ohangdor, ya'ni quloqqa yoqadigan bo'lish bilan birga, mimika va imo-ishoralarga, tana harakatlari, emotsiyani ifodalovchi boshqa ramziy tasvirlarga, shuningdek, rasmlar, posterlar, qo'g'irchoqlar va turli buyumlarga boy bo'lishi kerak.

Masalan, o'quvchilarga ob-havo haqida gapirayotgan o'qituvchi go'yoki o'zini isib ketgan (sovqotgandek) ko'rsatishi yoki o'quvchilar ustidan qor parchalarini sepib yuborib qor yog'ayotganini ifodalashi mumkin. Bunday vaziyatda o'quvchilar tepadan tushayotgan qor parchalarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, qo'llari bilan ushlaydilar va ularni his qiladilar. Shu yo'l bilan tinglab tushunishda barcha nutq analizatorlarining ishtiroki ta'minlanadi. Nutq analizatorlarining to'liq ishtiroki til materialini mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, til materialining autentligi, haqiqiy hayotiy vaziyatlarga bog'langanligi, ya'ni til materialining sun'iy emasligi, bolalarning kundalik turmush tarzidagi vaziyatlar bilan bog'liqligi, o'quvchilarning qiziqishlariga moslanganligi va tanish leksikaga boyligi tinglab tushunish samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, yozma axborotni idrok qilishdan ko'ra og'zaki axborotni idrok qilish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Fiziologik jihatdan tushuntiradigan bo'lsak, eshitish a'zolari faoliyati ko'rish a'zolari faoliyatidan 16 barobar ko'p asab tolalarining harakatlanishini talab etadi. Tinglab tushunish jarayonida toliqish koeffitsienti 176 foizga oshsa, o'qish jarayonida 135 foizga ortadi. Tinglab tushunishda ko'p quvvat sarflanishi esa til materialini mustahkam va mukammal o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ya'ni tinglash orqali qabul qilingan axborot o'qish orqali qabul qilingan axborotga nisbatan xotiradan mustahkam va to'liq joy oladi. Bolalikda eshitilgan ertaklar, matallar va rivoyatlar insonlar xotirasida bir umrga muhrlanib qolishining sababi ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. *Chet til o'qitish metodikasi* –T.: “O'qituvchi”, 2012.
2. G'oziyev E. *Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi)* –T.: “O'qituvchi”, 1994.
3. Немов Р.С. *Психология (Психология образования)* – М.: “Просвещение”, 1995.
4. Демьяненко М.Я. *Основы общей методики обучения иностранным языкам “Высшая школа”, Киев 1976.*
5. Lightbown P.M., Nina Spada *How languages are learned 3rd ed.*, “Oxford University Press”, 2011.
6. Carol Read *500 Activities for the Primary Classroom “Macmillan” 2013.*

Ixtiyor ERMATOV,
Sirdaryo viloyati xalq ta'limi
boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari

TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA QADRIYATLAR VA TILNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarini o'qitish jarayonida til orqali o'quvchi-yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda ta'lim texnologiyalarining roli xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, muallif o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda ona tilining ahamiyati beqiyos ekanligini bir qator misollar yordamida ochib bergan.

Kalit so'zlar. Jarayon, ta'lim texnologiyalari, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat, millat, milliy meros.

В статье выражена мысль о роли образовательных технологий во внедрении в сознание учащихся идей национальной независимости в процессе обучения родному языку в общеобразовательной школе.

Ключевые слова. Процесс, образовательные технологии, идеи национальной независимости, национальное наследия.

This article interprets the idea about the role of educational technologies of teaching national independence ideology within the framework of mother language lessons in secondary educational establishments.

Key words. Process, educational technology, ideology of national independence, national heritage.

Insonning dunyoni idrok etishi, atrof-muhitni anglashida tilning ahamiyati beqiyosdir. Til-millat ko'zgusi. Millatning o'zligini anglatuvchi omillardan biridir. Tilsiz millat, millatsiz til ham bo'lmaganidek, ma'naviyatsiz til, tilsiz ma'naviyat ham bo'lmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlarida shunday deb yozgan: "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz".

Darhaqiqat, til tarixiga nazar tashlar ekanmiz, insoniyatga xos til qachon paydo bo'lganligi, dastlab tilda qanday so'zlar bo'lganligi, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi o'rganilmagan. Lekin bizga shu narsa ma'lumki, kishilik tarixidagi barcha ma'naviy boyliklar til orqali bizgacha yetib kelgan. Xalq dostonlari,

qo'shiqlar, afsonalar, ertaklar shular jumlasidandir. "Alpomish" "Kun tug'mush" va boshqa dostonlar xalqimizning ana shunday ma'naviy va lisoniy boyligidir.

Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. U jamiyat taraqqiyoti ila ravnaq topib, boyiydi. Kishilik jamiyati tarixi shuni ko'rsatadiki, jamiyat a'zolarining avval urug'dosh tili, qabila tili, keyin elat, xalq va ayrim millat tili paydo bo'ladi. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy tilidir.

Tilning yagonaligi shundaki, til shu millatning barcha tabaqalar, guruhlar va sinflariga bir xil xizmat qiladi, ularning hammasi uchun birdan-bir aloqa vositasi hisoblanadi. Chunki uni xalq yaratadi, til – jamiyatning barcha a'zolari umumxalq tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisadir.

Milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan ona tiliga yuksak e'tibor tufayli 1989-yilning 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarida bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalariga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, xalqlarning milliy va baynalmilal o'zligini anglashda milliy tillarni har tomonlama rivojlantirish taqozo etiladi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasining butun hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillariga o'z ona tilini rivojlantirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Umumiy o'rta ta'lim maskanlari ochilib, madaniy markazlar tashkil etildi hamda gazeta, jurnallar chop etila boshlandi.

O'zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatishda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ulkan xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. Shoirning nafaqat badiiyati, balki tilshunoslikka bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asari shu sohadagi qiyosi yo'q manba hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlashtirilgan bo'lib, tilimizning lug'at boyligi, tovush tizimi va grammatik qurilishi olimlar tomonidan ilmiy asoslarda o'rganildi. Bu sohadagi izlanishlar bugun ham davom etmoqda.

Jamiyatdagi har qanday o'zgarish dastlab tilda o'z ifodasini topadi. Mustaqillik yillarining boshlarida ona tili darsliklari bir qancha muqobillari bilan chop etila boshladi. Bu o'zbek tili terminologiyasining taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Natijada o'z so'zimiz va terminlar paydo bo'ldi. Tashqi tazyiqlar ostida kirib kelgan terminlar o'rnida o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida ishlab chiqilgan terminlar vujudga keldi.

O'zbek tili terminologiyasida yuzaga kelgan noxush holatlarni, chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida

Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita terminologiyaning ushbu davrdagi taraqqiyotini tartibga solishda muhim o'rin tutdi.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq, ona tili darsliklarini takomillashtirish, fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi. Til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat qanchalik taraqqiy etmasin, rivojlanmasin tildagi voqea-hodisalar nomi, predmetlar nomi ma'lum muddatgacha saqlanib qoladi. So'zlarning yo'qolishi yoki boshqa nomlar olishi bilan oldingi so'zlar ham yo'qola boshlaydi. Shuning uchun ham tilda birdan uzilishlar bo'lmaydi.

Ona tili darsliklarida barcha lingvistik terminlar ham tushuncha mohiyatini to'liq ochib bera olmagan. Buning sababi bor albatta. Tilda dastlab yangi tushunchani anglatgan so'zlar sinonimlari bilan paydo bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan tushunchani to'liq anglata olgan, ommalashgan so'zlarga yashab qoladi. Qolganlari esa iste'moldan chiqib ketadi yoki unutiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida til haqida to'xtalib, shunday yozadi: “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”.

So'zlarni o'z ona tilida ravon va ixcham ifodalay oladigan, hozirgi o'zbek adabiy tili normalarini o'zlashtira olgan yoshlarni tarbiyalash dolzarb masaladir. O'zbek tili davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaga to'g'ri nutq, to'g'ri talaffuz normalarini singdirib borish ota-onalar, tarbiyachilarga katta mas'uliyat yuklaydi. Adabiy til normalariga amal qilmagan tarbiyachi yoki murabbiy to'g'ri nutqli, ma'naviyatli avlodni tarbiyalay olmaydi.

Hazrat Alisher Navoiy bobomizning ushbu misralariga izohning hojati bo'lmasa kerak.

*Oldiga kelganni yemak hayvonning ishi,
Og'ziga kelganni demak nodonning ishi.*

Donishmandlarning aytishicha, dono ko'p tinglaydi, oz so'zlaydi, nodon esa ko'p so'zlaydi, oz tinglaydi. Uni shuning uchun ham nodon deydilar. Xalqimizda shunday ajoyib maqol bor: “O'ynab aysang ham o'ylab ayt”. O'ylamay aytilgan so'z insonlar boshiga ko'p tashvishlar keltirgan.

Buyuk so'z ustasi Abdulla Qodiriy “So'z so'zlamakda, jumla tuzmakda uzoq andisha kerak”, deydi.

O'quvchilarimizning kundalik hayotdagi yoki dars mashg'ulotlaridagi o'zaro so'zlashuvi, fikr almashuvi bilan chegaralanib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Kundalik hayotimizda qo'llanadigan so'zlarning ko'лами juda keng emas. Yoshlarni ko'proq badiiy asarlar mutolaa qilish orqali nutqini o'stirish mumkin. Chunki badiiy asarlarda kitobxon ko'p so'zlarga duch keladi. Jumla tuzish, so'zlash madaniyati shakllanadi. So'z qo'llashda so'zlarning bir qancha variantlaridan sinonimlaridan foydalanib, jumla tuzish ko'nikmasi shakllanadi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun keng imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Shulardan biri “Axborot-kutubxona markaz”laridir. Ularda o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlar,

o'quv qo'llanmalar, ilmiy-siyosiy adabiyotlar, lug'atlar mavjud. Bular yosh avlod tilini, tafakkurini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'ladi. O'zbek tili tarixidan ma'lumki, xalqimiz asrlar mobaynida turli xil yozuvlardan foydalanib keldi. Lekin hech qaysi yozuv o'zbek tili tovushlarini o'zida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi kabi to'liq aks ettira olmadi. Shuning uchun 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining to'liq lotin yozuvidagi yangi o'zbek alifbosidagi darsliklar bilan ta'minlanganligi mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlardan biri bo'ldi.

Jamiyatning aloqa quroli bo'lgan til tarixiy taraqqiyot jarayonida xalqning ma'naviyatini, madaniyatini, hayotini, turli urf-odatlarini aks ettirib boraveradi. Barcha tillar, jumladan, o'zbek tili ham xalqiga xizmat qilib, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy va boshqa sohalarida eng muhim aloqa vositasi bo'lib qolaveradi.

O'zbek tili o'zbek xalqining, o'zbek millatining bitmas-tuganmas boyligi shu xalqning ma'naviyatini, madaniyatini yuksaltirishda eng muhim vositadir.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda darsliklarga qo'yilgan yangicha ta'lab ona tilida yaratilgan darsliklarning takomillashuviga sabab bo'ldi. Lingvistik terminologiya taraqqiyoti fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirildi. Bugun umumiy o'rta ta'lim maskanlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yangi avlod darsliklari yaratilib, ularda tilimizni yangicha asosda o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'zining ijobiy natijalarini berishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongiga Vatanni sevis, uni ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda ona tilining beqiyos ahamiyatini uqtirish har birimizning burchimiz bo'lmog'i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.* – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* – T.: "O'zbekiston", 1997.
3. Karimov I.A. *O'zbekiston buyuk kelajak sari.* – T.: "O'zbekiston", 1998.
4. Mirzaqulov T. *"Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari",* – T.: "O'qituvchi", 1994.
5. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N. *Pedagogika fanidan izohli lug'at.* – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2009.
6. *O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya,* – T.: "Fan", 1975.

Xurshid XAYDARALIYEV,
Farg'ona DU magistranti

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SOG'LOMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYONLARGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish vazifalari keng yoritilgan. Shuningdek, muallif sanitar-gigiyenik me'yorlar va vositalarning faoliyat ko'rsatish darajasini hisobga olgan holda ularning moddiy-texnik negizini mustahkamlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. O'quvchi, pedagog, salomatlik, jamiyat salomatligi, harakatsiz hayot tarzi, noratsional ovqatlanish, davolash, moslashtirish, muhofaza, jarayon.

В статье изложены задачи организации педагогического процесса оздоровительной направленности. Автором подчеркнута необходимость укрепления материально-технической базы образовательных учреждений с учётом соблюдения санитарно-гигиенических норм и направлений деятельности.

Ключевые слова. Ученик, педагог, здоровье, общества, неподвижный образ жизни, нерациональное питание, лечение, координация, защита, процесс.

The article highlights tasks of organization of pedagogical process of health improving directions. Author emphasizes necessity of strengthening of resource technical base of educational institutions subject to observance of sanitary hygienic norms and directions of activity.

Key words. Student, health, society, fixed life mode, healthy life style, irrational nutrition treatment, coordination, protection, process.

Jamiyatning o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligiga munosabati va ta'lim jarayonining tarixiy rivojlanishini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, inson salomatligini muhofaza qilish iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq tarzda "salomatlik" tushunchasi o'z doirasiga jismoniy hamda axloqiy-ma'naviy salomatlik yo'nalishlarini qamrab oladi.

Salomatlik ikki yo'nalishda ko'rib chiqiladi: bu jamiyat salomatligi va yakka shaxs salomatligidir. Jamiyat salomatligi bir qator demografik ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Bular: tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, o'rtacha umr ko'rishning davomiyligi, kasallikka chalinish statistikasi kabilardir. Salomatlik muammosi bilan shug'ullanuvchi

tadqiqotchilar ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq tarzda shaxs salomatligining yomonlashuviga asos bo'la oladigan bir qator sabablarni ko'rsatib o'tganlar.

"Individual shaxs salomatligi"ni olimlar turlicha sharhlaydi. Ammo individual shaxs salomatligining yagona mezonini bugungi kunga qadar ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham barcha mualliflar inson salomatligi endogen, konstitutsion moslashgan, genetik sabablar bilan bog'liq, deb hisoblaydilar. Biroq, ular bir qator ijtimoiy omillar ta'siri ostidadir. Jumladan, muhit, oila, ta'lim, tarbiya va hokazolar.

Hozirgi zamon psixologiyasi va fiziologiyasining ilmiy asoslariga tayangan holda shaxs salomatligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini vujudga keltirish bugungi kunda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. O'quv jarayonining psixofiziologik hamda psixopedagogik qiyinchiliklarini, o'quvchilar salomatligini nazorat qilish asosida ularning individual va yosh jihatdan o'ziga xosligiga tayangan holda aniqlash lozim.

Ta'limni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish, telekommunikatsion va axborotlashtirish texnologiyalarining yangi vositalarini o'zlashtirish, ta'lim mazmunining muntazam modernizatsiyalashtirilishi, keng ko'lamli axborotlarning mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilishi, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob berish ta'lim jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligining yomonlashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillardir.

O'quv yuklamasi hajmining kengayishi o'quvchilar salomatligining yomonlashuviga asos bo'ladi. Asab buzilishi holatlari, umumiy madaniyat darajasining pasayishi, zararli odatlarning tarqalishiga imkon beradigan holatlar: chekish, giyohvand moddalarning iste'mol qilinishi, harakatsiz hayot tarzi, noratsional ovqatlanish shular jumlasidandir.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida – ta'lim oluvchilar hamda pedagoglar ishtirok etadi. Salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan o'quv maydonini tashkil qilish uchun birinchi navbatda o'quvchilar hamda pedagoglar sog'lig'ining yomonlashuviga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash lozim.

Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning muhim vazifalari birinchi navbatda sog'lom inson siyosatining muhimligidan kelib chiqadi. Ular quyidagilar:

- optimal psixologik mikroiklim, ijtimoiy hamda moddiy sharoitni vujudga keltirish, jismoniy salomatlikni tarbiyalash imkonini beradigan, ma'naviy boy, yuksak axloqli, bilimli shaxs, o'zi va boshqa xalqlarning an'analari va madaniyatini hurmat qiladigan yoshlarni tarbiyalash;

- sog'liqni saqlash va tiklash maqsadida davolash hamda moslashtirish tadbirlarini o'tkazishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, sog'lom turmush tarzi va salomatlikning qimmatini anglatishni nazarda tutgan holda o'quvchilar, pedagoglar hamda ota-onalar ongini rivojlantirish uchun ruhiy tuzatish jarayonini amalga oshirish;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti masalalari bo'yicha ta'lim jarayoni subyektlarining malakasini oshirish;

- ta'lim jarayonida salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan texnologiyalarni tashkil etish va ulardan foydalanish;

- salomatlikni saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tadbirlar ko'lamini kengaytirish va sifatini ta'minlash;

- salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun istiqbolda ta'limni kengaytirgan holda (inkluziv ta'limni) tashkil etish;

– salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni tajribalarini om-malashtirish hamda faollik ko'rsatish kabilar.

Bugungi kunda mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, nosog'lom turmush tarzi o'smirlarning noijtimoiy xulq-atvori tufayli vujudga kelmoqda. Bu asabga faol ta'sir qiluvchi narsalarning zararlari haqida yoshlarni ogohlantirish orqali bartaraf etiladigan holatdir. Bunday holatlar yoshlar ongida teskari pedagogik ta'sir ko'rsatadi va ularda negativ holatlarni identifikatsiyalash imkonini beradi. Agar shu ma'noda, shaxs rivojlanishi, uning yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarda kattalar biron narsadan ogohlantirsa va qandaydir harakatni ta'qiqlasa, ruhiyatga faol ta'sir qiladigan xodisalar yoshlarning ko'proq e'tiborini jalb qila boshlaydi. Pedagoglar yoshlar muhitida ko'proq qo'rquv soluvchi axborotlarni tarqatganda ular barcha to'siqlardan tezroq qutilishga intila boshlaydilar.

Shaxsiy turmush tarzini aniqlash – ongning mahsulidir. Shunga ko'ra pedagoglar anglab yetishlari kerakki, giyohvand moddalar, ularning zarari haqidagi ogohlantirishning o'zi bugungi kunda yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi muhitini saqlab qolishda yetarli emas. O'smirda shaxsiy tasavvur, mustahkam nuqtayi nazarning shakllanishi doimiy pedagogik yordam ko'rsatishga kasbiy jihatdan tayyor bo'lgan pedagoglarning muhim vazifalaridandir. Pedagoglar o'quvchilar bilan o'zaro muloqot qilish muxitini yarata olishlari kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar quyidagi tamoyillarga tayangan holda tashkil etiladi:

- ta'lim jarayoni subyektlari holatlarini tashxislash va hisobga olish;
- ta'lim jarayoni subyektlarining sog'lom turmush tarzi va hayotiy tayyorgarlikka nisbatan yagona shaxsiy ruhiy ehtiyojlari;
- atrofdagilar va o'zining salomatligi uchun ijtimoiy mas'ullik;
- foydalaniladigan vositalarning yangiligi;
- sog'lom turmush tarzini moddiy hamda ma'naviy jihatdan barqarorlashtirish.


Bugungi kunda “Turmush tarzi” individning ichki va tashqi integral hayoti sifatida ko'rib chiqilmoqda. Insonning o'zaro va tashqi muhit bilan munosabati yagona bir tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy resurslar insonning salomatligini muhofaza qiluvchi foydali vositalar va zararli jihatlar ko'rinishiga ega. Insonga ijobiy ta'sir qiladigan turmush tarzi “sog'lom turmush tarzi” deb ataladi.

Ta'lim jarayoni subyektlari orasida o'z vaqtida tashxislash va psixologik-pedagogik tuzatish tadbirlarini o'tkazish lozim. Psixologik-pedagogik tuzatish shaxsning hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan qirralarini tashxislashdan boshlanadi. O'quvchilar faqat u yoki bu imkoniyatlari darajasi bilan farqlanmaydilar, balki o'zlari haqidagi shaxsiy tasavvurlari – intellektual hamda jismoniy imkoniyatlari bilan farqlanadi.

Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni amalga oshirilishi quyidagi omillarning ta'siriga bog'liq:

- pedagoglarning shaxsiyati va ularning sog'lom turmush tarzini egallashga yo'naltirilganligi;
- salomatlikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash uchun ta'lim muassasasida moddiy-texnik bazaning yetariligi;
- pedagogik jamoaning ijodiy imkoniyatlarga egaligi;
- har tomonlama sifatli pedagogik nazoratning mavjudligi kabilar.

Ta'lim jarayoni subyektlarining sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash quyidagi chizmada aks ettirilgan ikki integral yo'nalishda amalga oshiriladi:



Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta'lim tizimini takomillashtirish yo'nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar faoliyatiga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Bular o'z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishi, sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashi, mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, subyektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishi, ta'lim muassasasida tarbiyaviy munosabatlar pedagogik jarayon sifatida mavjudligi hamda tarbiyaviy munosabatlar ko'p qirrali ekanligi va mazkur jarayonni e'tiborga olishi zarurligini taqozo etadi.

Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini va hamkorlikda boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini keltirish mumkin. Salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlashga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga rahbarlik qilish ta'lim muassasasi direktori zimmasiga yuklanadi. Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda maktab direktori quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

- ta'lim muassasasi direktorining ta'lim jarayoni subyektlari ongiga pedagogik-psixologik korreksiya metodlarini mohirlik bilan qo'llash sohasida yetakchi mavqega egaligi;

- davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish;
- ta'lim jarayoni har bir sub'ektining vazifalarini uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlash;

- ta'lim muassasasi barcha tarkibiy qismlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ta'lim muassasasi faoliyatining barcha turlari ustidan nazorat o'rnatish;
- moddiy hamda ma'naviy barqarorlashtirish metodlaridan faol foydalanishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshqarish amaliyotidan ma'lumki, rahbarlik faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u rahbardan nafaqat oliy ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi.

Umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning muhim yo'nalishi sanitar-gigiyenik me'yorlar va vositalarning faoliyat ko'rsatish darajasini hisobga olgan holda ularning moddiy-texnik negizini mustahkamlash maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagilarni ko'rib chiqish zarur:

– texnik qurilmalarning mazmuni va ta'mirini amalga oshirish rejasi, isitish, suv bilan ta'minlash, yoritish, muhandislik yo'llarini ta'mirlash kabi chora-tadbirlarni va sanitar-gigiyenik me'yorlar hamda qoidalar asosida o'quv qurollari, aynan:

a) yuqorida ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish;

b) mikroiklimni saqlash talablariga rioya qilish, yoritish, mebellar, sanitar-gigiyenik me'yorlar asosida auditoriya o'quv jihozlarini saqlash;

v) davlat sanitar-gigiyenik tekshirishlari asosida berilgan tavsiyalarga rioya qilish;

– sanitar-epidemiologik nazorati talablari asosida hujjatlarni to'plash;

– hayotning gigiyenik yo'nalishlari mehnatni muhofaza qilish, texnik xavfsizlik va yong'inga qarshi xavfsizlik bo'yicha pedagoglar, o'qituvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

– tibbiy xizmatni tashkil etish kabilar.

Faqat shu asosdagina sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar samaradorligiga erishish mumkin. Bugungi kunga kelib ta'lim muassasalarida o'quvchi salomatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks dasturlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

Pedagoglarning o'ziga xos mehnat faoliyati uzoq davom etadigan va sekin amalga oshadigan jarayon bo'lib, masalan, o'quvchining yozuv daftarlari ustida ishlashi mobaynida osteoxondroz, uzoq masofani yaxshi ko'rmaslik, umurtqa pog'onasining yog' bosishi, nevroz kabi jiddiy kasalliklarni qo'zg'atadi.

Bizningcha, sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun salomatlik darslarini o'tkazish: jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, salomatlik holatidan kelib chiqib, kasbiy mehnat sharoiti bilan bog'liq tarzda, musiqa jo'rligida va tomir urish o'lchovini nazorat qilish asosida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil ishlash uchun tavsiyalar ham beriladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishga oid seminar, ma'ruza-maslahat mashg'ulotlarini o'tkazish: o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun sog'lomlashtirish ishlari darajasini oshirish maqsadida ularning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish jismoniy tarbiya hamda sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тилозов М.Р. *Здоровьесберегающие педагогические технологии в образовательном процессе колледжа. (материалы международной научно-практической конференции 22-23 декабр) "Перспективы профессиональной подготовки специалистов XXI века"* Алматинская индустриально-педагогическая академия. Алмата: 2005. С.42-46.

2. Трещева О.Л. *Программно-методические основы обучения здоровому образу жизни учащихся общеобразовательных школ. 2000 г. №10 С.29-34.*

3. Веледенская О.В. *Здоровый образ жизни как проблема социального воспитания. / Педагогическое наследие профессора Н.М. Таланчука и современные проблемы социального воспитания. Тезисы докладов и выступлений на 2-ой Всероссийской научно-практической конференции 14.11.2001. – Казань, ИСПО РАО, 2002. С.67-70.*

Abdulla ABDIYEV,
Nodir ABDIYEV,
O'zDJTI o'qituvchilari

OLIV TA'LIMDA JISMONIV TARBIYA MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy pedagogika ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy tayyorlash hamda "Alpomish" va "Barchinoy" test sinovlarining me'yorlarini topshirish uchun ijtimoiy so'rovnomalar orqali bugungi holati o'rganib chiqilgan. Shuningdek, mualliflar olingan javoblar asosida kamchiliklarni bartaraf etish va jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy kamolot, jismoniy tarbiya, o'quv jarayoni, imkoniyat, ijtimoiy so'rovnomalar.

В статье освещено состояние физической подготовки студентов высших педагогических образовательных учреждений на основе социальных опросов и выполнения тестовых испытаний "Алпомыш" и "Барчиной". Авторами выявлены недостатки и даны рекомендации по их устранению и совершенствованию учебного процесса.

Ключевые слова. Физическое воспитание, общефизическая подготовка, деятельность, учебный процесс, социальный опрос.

This article examined the research activities of the physical education department in higher pedagogical educational institutions on the basis of social surveys and realization of test proves "Alpomish" and "Barchinoy". Authors determined weak points and gave recommendations to their elimination and improving the educational process in physical education.

Key words. Physical education, General physical preparation, activity, cabin process, a social survey.

Talaba-yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti, Vatan himoyasi va kelajagi uchun har jihatdan yetuk avlod qilib tarbiyalash dolzarb vazifa. Fakultetlararo Jismoniy tarbiya kafedrası jamoasi tomonidan talabalarning jismoniy tarbiya faniga qiziqishini aniqlash va jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida muayyan ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Mazkur ko'rsatmalarning ta'limiy ahamiyatini sinab ko'rish maqsadida 65 ta savoldan iborat so'rovnoma tuzildi va ular asosida talabalar o'rtasida yozma savol-javob o'tkazildi. "Institutda jismoniy tarbiya darslari qanday bo'lishini xohlar edingiz?" – degan savolga javoblari quyidagicha bo'ldi:

"Dars davomiyligi 80 daqiqa, juftlik orasi tanaffussiz yoki 45 daqiqa keyin tanaffus bilan", degan savolga 80 foiz talaba "tanaffussiz dars o'tilsa", degan istakni bildirishgan. Talabalarning 20 foizi "Dars tanaffus bilan o'tkazilsa", deyishgan. Bu talabalar birinchi bosqich talabalari bo'lib, tabiiyki, ularning jismoniy tayyorgarligi nisbatan past, shuning

uchun tez toliqadilar. Bu holat o'qituvchilar oldiga birinchi bosqich talabalari bilan ishlashda alohida yondoshuv va kerakli ko'rsatmalar ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Ya'ni mashg'ulotning tayyorlov qismiga ajratilgan vaqt uzaytirilishi, talabalarning shaxsiy jismoniy imkoniyatlari aniqlanib, tabaqalashtirilishi hamda ularga beriladigan uy vazifalari individual jismoniy holatlarga qarab rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Respondentlarning 88 foizi “jismoniy tarbiya bo'yicha asosiy va fakultativ mashg'ulotlar jarayonida sportning biror turi bo'yicha 3-darajali toifa talablarini bajarish shartmi?” degan savolga “ha” deb, 12 foizi esa “Toifa talablarining ketidan quvmaslik lozim” degan javobni belgilashgan.

Ma'lumki, sport toifalari tinimsiz mashq va musobaqalarga qatnashish jarayonida bajariladi. So'rovnomadagi “Jismoniy tarbiya fanini ikki yil o'qitish asosida sport gimnastikasi, shuningdek, yengil atletika, kross (erkaklar 1000, ayollar 500 metrga) voleybol, gandbol, basketbol, futbol kabi sport o'yinlari bo'yicha 3-toifa talablarini bajarish mumkin” deya javob berishgan.

Bir yoki har xil ta'lim yo'nalishlari talabalarni maxsus sport turi bo'yicha guruhlariga birlashtirib, mashg'ulot o'tkazish tarafdorlari 76 foizni tashkil etdi. 21 foiz talaba mashg'ulotlar har bir guruh uchun alohida o'tkazilishini talab qilishgan. Uch foiz yoshlar esa ikkilanishgan, biror javobni belgilashmagan.

“Sportning muayyan turi bilan kechki sho'balarda shug'ullanayotgan talabalar jismoniy tarbiya bo'yicha akademik mashg'ulotlarga ham qatnashishlari shartmi?” degan savolga respondentlarning 67 foizi “shart emas”, deb, 33 foizi esa “Sport seksiyasiga ham, akademik darslarga ham qatnashishlari shart”, deb javob berishgan. Ulardan birinchi guruhi “Sport seksiyalarida o'rtiriladigan jismoniy malaka va ko'nikmalar yetarli” desa, ikkinchisi esa “Kundalik jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sport formasini yaxshi ushlab turadi”, deb hisoblaydilar.

Ma'lumki, “Alpomish” va “Barchinoy” sport musobaqalari yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash me'yorlarini ham o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur musobaqa va o'quv rejasida ko'zda tutilgan suvda suzish masalasida so'rovnoma ishtirokchilaridan 72 foizi suzishni bilish shart”, desa, 28 foizi esa “suvda suzishni o'rganish shart, lekin bilmayman”, degan javobni belgilaganlar.

Ikkinchi guruhga esa, “Jismoniy tarbiya darslari qanday o'tkazilishini istar edingiz?”, “Mashg'ulot mobaynida charchaysizmi?” degan savollarga 60 foiz talabalar “Ha, charchab qolyapmiz” deb, 32 foizi esa “Yo'q, charchamayapman”, degan javobni belgilashgan. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida talabalarning qariyb 68 foizi jismonan toliqadi. Bu hol, bizningcha, quyidagi ikki sabab bilan izohlanadi:

– birinchisi – bu darsning umumiy o'rta ta'lim maktablarida 45 daqiqa, oliy o'quv yurtlarida esa 90 daqiqa davom etishidir.

– Ikkinchisi – umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'smirlar va qizlarning yosh va fiziologik holatlari bilan bog'liq holda darslarda jismoniy yuklamaning yengilroq belgilangan, oliy o'quv yurtlarida esa belgilangan normativni bajarish talab etilishida “Yo'q, charchamayman”, degan javobni belgilagan 32 foiz talaba akademik mashg'ulotlaridan so'ng sport sho'balarida ishtirok etadi.

So'ralganlarning 55 foizi “Jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan qoniqish hosil qilaman: sog'lom bo'laman, aqliy mehnatga ishtioqim kuchayadi”, deb javob bergan. 45 foiz talaba bu javobning teskarisini, ya'ni “Qattiq charchab, majolim qolmaydi, undan keyin o'qish yoki biror ishga holim yetmaydi” degan fikrni asosli deb topganlar.

So'rovnomaqa jalb qilingan ikkinchi va uchinchi bosqich talabalariga "Siz qanday sport turi bilan shug'ullangan bo'lar edingiz?" degan mazmunda savol berildi. Ulardan kutilmagan javoblar bo'ldi. So'rovnomaqa futbol, yengil atletika, gimnastika, kurash, stol tennisi va boks kiritilgan holda 80 foiz qizlar voleybol o'yinini, 20 foizi esa qo'l to'pi va basketbol o'yinlarini ma'qul topgan. Natijalarni tahlil qilib bo'lgach, so'raluvchi guruhlar voleybolni ko'p belgilashgani bilan qiziqib ko'rdik. Ularning aytishlaricha, voleybol yigit-qizlar uchun bir xil – oson. Bu sport turi futboldagidek o'yinchini charchatib qo'ymaydi.

Yoshlarning sport turlariga bir yoqlama munosabati joylarda jismoniy tarbiya darslarining yetarli darajada o'tilmayotganidan dalolat beradi. Qolaversa, javoblar mazmunidan ma'lumki, ko'pchilik talabalar o'qigan maktablarda sport zallari yo'q yoki yaroqsiz holatda ekanini aytgan. Ularda gimnastika inventarlari mavjud emas. Maktablarning o'quvchilari institutga kelib, aytaylik, brus yoki turnikka ilk bor duch kelmoqdalar.

Yuqoridagi savol bo'yicha anketani to'ldirgan talaba yigitlarning 77 foizi futbol, 11 foizi voleybol, 12 foizi esa qo'l to'pi, basketbol va boshqa sport o'yinlarini tanlagan. Futbol jismoniy tarbiya darslaridan tashqarida ham ommaviy ekanligi ayon bo'ldi. Umumiy so'raluvchilarning (yigit va qizlarning) 20-30 foizini kurash, boks, stol tennisi kabi sport turlariga qiziquvchilar tashkil etadi.

So'rovnomada "Institutda jismoniy tarbiya darslarida qaysi sport turlarini o'rganishni xohlaysiz?" degan savol mavjud edi. Unga talabalarning 84 foizi futbolni, qolgan qismi esa yakka kurash sport turlarini qayd etishgan. Ishtirokchilar umumiy sonining 65 foizi yengil atletikani yoqlashgan. Bu sport turi "Alpomish" va "Barchinoy" sport musobaqalarini topshirishda qo'l kelishi, ayniqsa, qishloqlardan kelgan yoshlar tomonidan qayd etilgan. Barcha Ishtirokchilarning 67 foizi institutda jismoniy tarbiya darslarida gimnastika turlari o'qitilishi lozimligini ta'kidlaganlar. Shuningdek, respondentlar umumiy sonining 85 foizi sport o'yinlarining barcha turlariga ovoz berishgan.

Ishtirokchilarga "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisini qanday tasavvur qilasiz?" degan mazmunda savol berildi. Ularga quyidagi sifatlarni belgilash so'ralgan edi:

- yuksak madaniyatli pedagog;
- yuqori malakali sportchi;
- jismonan va ruhan kuchli;
- har tomonlama rivojlangani;
- sportning barcha turlari bo'yicha mulohaza yurita oladigani;
- talabchan va epchil;
- xushmuomala va mehribon;
- tajribali erkak o'qituvchi;
- mutaxassis ayol o'qituvchi.

So'raluvchilarning 60 foizi zamonaviy jismoniy tarbiya darslarini tajribali erkak o'qituvchilar olib borishga qodir, deb hisoblasalar, qolgan 40 foizi bu ishni mutaxassis ayolga topshirish maqsadga muvofiq, degan fikrni bildirganlar. Talabalarning 95 foizi 1-,2-,3-,4-,5-,6- va 7-bandlarida sanalgan xususiyatlar zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisiga xos bo'lmog'i lozim deb hisoblaydilar. Chunonchi, pedagogika, psixologiya va ayniqsa, fiziologiya asoslarini puxta egallash hamda talabalar organizmida jismoniy mashqlar tufayli yuz beradigan fiziologik jarayonlarni jiddiy kuzatib borish malakasi belgilangan javoblar alohida va ko'p bor ta'kidlangan.

Turlicha ta'lim yo'nalishdagi birinchi va ikkinchi bosqich talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari jismoniy tarbiya darslarini respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlari, shuningdek, kollej, litsey va maktablarda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda “Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”da belgilangan talablar darajasiga ko'tarishni taqozo etadi.

So'rovnoma natijalari fakultetlararo “Jismoniy tarbiya va sport” kafedra o'qituvchilari tomonidan quyidagi masalalar xususida mutaxassislar fikrini o'rganishga taklif etadi:

1. Juftlikni tanaffussiz o'tkazish uchun ajratilgan vaqtni jismoniy mashqlarda zo'rriqgan talabalar o'zlarini tartibga keltirishlari uchun sarflash.

2. Talabalar jismoniy tayyorgarligini ikkinchi bosqichning oxiriga borib “Alpomish” va “Barchinoy” normativining nishondori bo'lish darajasiga yetkazishi.

3. Talabalar o'zlari xohlagan sport turi bilan shug'ullanishlari uchun sport sekiyalarining sonini oshirish.

4. To'rtinchi semestrqa qadar suzishni bilmaydigan talaba qolmasligiga erishish maqsadida suzish mashqlari uchun o'quv soatlari miqdorini ko'paytirish.

5. Talabalar davomatini yaxshilash maqsadida jismoniy tarbiya darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish.

6. Talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yozda oq rangli futbolka, qishda esa boshqa rangdagi sport liboslarida bo'lishlariga erishishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, oliy pedagogik ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sifati va samaradorligini oshirishning usullari ko'p bo'lib, talabalarning o'zlari bilan savolnoma orqali muloqot qilish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана: Речь на 9 сес. Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 29.08.1997. – Т., 1998. С. 63.

2. Ашмарин Б.Н. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. – М., ФИС, 1978. С. 223.

3. Гандельсман А.Б., Смирнов К.М. Физическое воспитание детей школьного возраста. – М., ФИС, 1966. С. 266.

4. Усмонходжаев Т.С. Научно – педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф. дисс. д-ра пед. наук. – Т., 1995. С.49.

Saidaxbor BULATOV,

professor p.f.d.

Madina PO'LATOVA

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

TASVIRIY SAN'AT DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'sviriy san'at darslari jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashga o'rgatishning bir qator samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarni san'at asarlarini mohiyatini anglashga, badiiy tahlil qilishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llarini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Tasviriy san'at, mohiyat, daraxt, manzara, hayot, tiriklik, ufq chizig'i, daryo, qush.

В данной статье освещены приёмы обучения учащихся логическому мышлению на уроках изобразительного искусства в общеобразовательных средних школах. Определены эффективные пути использования новых педагогических технологий формирования у учащихся навыков восприятия сущности произведений искусства и их художественного анализа.


Ключевые слова. Изобразительное искусство, сущность, дерево, реальность, линия горизонта, река, птица.

In this paper elucidated the methods of teaching students to logical thinking during the visual arts in secondary schools. The effective use of new pedagogical technologies in the formation of students' skills of perception of the essence of art and art analysis.

Key words. Secondary schools, visual art, fine art, essence, nature, tree, reality, skyline, river, bird.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim mazmunini umuminsoniy qadriyatlar bilan xalqimizning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analari asosida boyitishga keng yo'l ochib berdi. Ta'lim tizimida juda katta ishlar amalga oshirilib xususan, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ayni paytda tasviriy san'at darsliklari takomillashtirilib, modernizatsiya qilinib o'quvchilarga yetkazib berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida “Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohada ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi” deya, ta'kidlab o'tgan.



1-rasm. Akmal Nur. “Munavvar tong”

Hozirda fan-texnika juda tez rivojlanmoqda va u har daqiqada o'sib o'zgarib bormoqda. Vaqt o'tishi bilan kechagina qilingan ishlar bugungi kun talabiga javob bermay qolmoqda. Yangi-yangi muammolar oldimizda ko'ndalang bo'lmoqda.

Tasviriy san'at 5-sinf darsligida 1-, 5-, 10 - darslarda manzara janri haqida va ularni tahlil etish mavzulari kiritilgani juda o'rinli. Lekin maktab o'qituvchilari uchun ushbu manzara janridagi asarlarni badiiy tahlil qilish ularni o'qish alifbosi, ularni analiz va sintez qilish hamda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish texnologiyasi to'g'risida qo'shimcha metodik qo'llanmalar yetishmaydi.

Bu esa, ta'lim tizimida dars samaradorligiga salbiy ta'sir etmoqda. Darslikda berilgan rassom Akmal Nurning “Munavvar tong asari” o'zidagi g'oyalar va voqe'liklarni manzara janrida badiiy vositalar yordamida ifoda etgan (1-rasm). Asarlar bilan tanishuv go'zallikdan bahramand bo'lish barobarida san'at asarlarini idrok qilish, anglash imkonini beradi. Badiiy tahlil qilish tizimi haqida to'xtalib o'tamiz.


Manzara – tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janri va shu janrda yaratilgan san'at asari. Mamlakatda shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmualar, dengiz ko'rinishlari (marina) va hokazolar ham tasvirlanadi. Atrof-muhitni tasviriyotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his-tuyg'u va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan dunyoni ma'naviy (qisman amaliy) o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan majmualar katta mazmunga ega. Musavvirning lirik manzara janridagi asarini ko'rar ekansiz, inson qalbida ko'tarinki ruh berib quyidagi fikrlar yuzaga keladi.

Ona yurtida tong otib, yangi hayot boshlanmoqda. Olam go'zalligi inson ko'z oynasi orqali qalbg'a tushmoqda. Qalb torlari orqali borliq go'zalligi qalbidagi hikmatlar xazinalarini birma-bir rang va shakllar orqali insonlarga ruhiy ozuqa bermoqda. Hayot go'zalligi tinch-osoyishta diyorda nay kuylari kabi yangramoqda.

Musavvir Akmal Nurning “Munavvar tong” asari koʻz oldimizda aks etar ekan, birinchi planda birinchi daraxt berilgan keyin esa ikkinchi va uchinchi daraxt berilgan. Manzara sovuq, yaʼni havorang koloritda bajarilgan. Daryo yaqin boʻlganligi sababli tong otishida havo salqinligi musavvirga va musavvir orqali tasvirda ham salqin va sokinlikni ifoda etgan.

Asarning nomlanishi “Munavvar tong” yaʼni nurga toʻlayotgan borliqni anglatadi. Ertalabki mayin shabadani tomoshabin qalban his etadi. Tasvirda musavvir qanday gʻoya va fikr-mulohazalar bermoqchi? Asarni oʻqish uchun nimadan boshlash kerak? Asardagi asosiy elementlar nimalardan iborat?

Klaster usulida (2-rasm) nomlarni yozib chiqamiz. Daraxtlar, tong, daryo, ufq chizigʻi, qush, havorang, tabiat, oʻsimliklar va boshqalar. Ushbu elementlarni 3-rasmda



2-rasm

berilgan jadval asosida ramziy maʼnolarini oʻqib chiqish mumkin. Shular asosida asarning mazmunini ochamiz. 4-rasmda esa asardagi elementlarni sxematik joylashuvini raqamlar orqali koʻrish mumkin.

Asar assimetrik boʻlib, oʻng tomoni ogʻirroq tasvirlangan. Birinchi planda berilgan ikki daraxt, ota va ona hamda uchinchi kichkina daraxt esa, bolaga oʻxshaydi. Bu asarni muqaddas oilaga oʻxshatish mumkin. Shoxchadagi 2 qushni aks ettirilishi esa muhabbatni bildiradi. Yaʼni oilaga, Vatanga hurmat, tabiatga muhabbatni anglatadi. 2-rasm. Akmal Nurning “Munavvar tong” nomli lirik manzara janriga oid asarining klaster usulida badiiy tahlil qilish metodikasi.


Asardagi asosiy elementlar	Asardagi elementlarning ramziy maʼnosi
Daraxt	Ota
Daraxt	Ona
Daraxt	Farzand
Tong	Yangi kun, tiriklik, tugʻilish
Daryo (suv)	Hayot
Ufq chizigʻi	Hayot chegarasi
2-Qush	Muhabbat, oila
Daraxtlar	Oila
Tabiat	Vatan, diyor
Havorang	Tinchlik

3-rasm

3-rasm. A.Nurning “Munavvar tong” asarini ramziy ifodalanishi. (oʻquvchilarga soʻrovnoma tariqasida koʻrsatma materiallar sifatida foydalanish mumkin).

Sokin suv hayotni tez bir zumda o'tib ketishini, ya'ni insonlarni, hayotning, vaqtning qadriga yetishga undaydi. Tong yangi kunni, tiriklikni va insonga har bir kunning qadriga yetish lozimligini bildiradi. Ufq chizig'i hayot chegarasi, ya'ni tug'ilish bor ekan vaqti kelib inson umri ham chegaralanganligi, har bir narsani chegarasi, oxiri borligini anglatadi. Tabiat esa Vatan, diyorni anglatadi. Havorang esa tinchlik, osoyishtalik va sokinlikka ishora qilingan.

O'simliklar esa, borliqning qanchalik go'zal yaratilganligi, ularni ko'z qorachig'idek asrash ifoda qilingan. Musavvirni oddiy bo'lib ko'ringan asari insonlarga ko'tarinki ruh beradi, zavq-shavq ulashadi, ona-Vatanga bo'lgan sadoqatni ifodalaydi.



4-rasm. Akmal Nurning “Munavvar tong” asarining badiiy tahlilining sxematik ko‘rinishi

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlarida san'at asarlarining mohiyatini anglashga o'rgatish uchun tasviriy san'at asarlarining badiiy tahlil qilish alifbosini puxta o'zlashtirish lozim. Bundan tashqari, asarlarni tahlil qilish tarzida yuqorida ko'rsatilgan o'zimizni yaratgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, asrlar davomida ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tomonlari, uslublari, ularni yaratgan musavvirlarning nomlarini unutishga haqqimiz yo'q. Ana shu sababli bu durdonalarni yoshlarga o'rganish va buyuk kelajakning mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Bulatov S.S., Jabborov R.R. Tasviriy san'at asarlarining falsafiy va psixologik tahlili (monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”. 2010.
3. Кузин В.С. “Психология” – М.: 1982.

Mariya MUSURMONOVA,
Jizzax viloyati PKQTMOI prorektori

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM- TARBIYA BERISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda badiiy adabiyotning ahamiyati hamda imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, muallif bolalarni kichik yoshdan boshlab atrofida nimalar sodir bo'layotganligini ko'ra bilib unga o'z munosabatini bildirishga o'rgatish kabi tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha tarbiya, badiiy adabiyot, adabiy janr, tafakkur, munosabat.

В статье раскрыто практическое значение художественной литературы при обучении и воспитании детей дошкольного возраста. Определены возможности литературных произведений в формировании духовности детей. Даны рекомендации по обучению детей раннего возраста вести наблюдения за происходящим в мире и выражать свое отношение к явлениям окружающего мира.

Ключевые слова. Дошкольное образование, художественный жанр, художественная литература, сознание, отношение.

The article illuminates practical significance and importance of literature in teaching preschool aged children, possibilities and its role in moral discipline formation of children and teaching children at an early age to observe and to express their attitudes towards the happenings around them.

Key words. Genre, anecdote, poem, proverb, descriptor, quarrel, good did, tolerance, sincerity, the power of a word.

6 – 7 yoshdagi bolalar doimiy o'tkazilgan mashg'ulotlar orqali ertakni hikoyadan, she'rni topishmoqdan, maqolni tez aytishdan farqlay oladilar. Bunda har bir janrning o'ziga xos muhim belgilari yordam beradi. Masalan, ertakning "Bor ekanda, yo'q ekan" deb boshlanishi, hikoyada qandaydir voqea-hodisaning keltirilishi, she'rning ifodali o'qilishi, maqolda pand-nasihahat berilishi, latifada Afandi obrazi orqali hajv qilinishi bolalar ongiga singib qoladi va shu orqali ular bu janr namunalari o'zaro oson farqlay oladilar.

Bolalar ma'naviyatini shakllantirishda adabiy janrlarni tanlash va ulardan foydalanish o'ziga xos mas'uliyat kasb etadi. Badiiy adabiyot orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy shakllantirib, Vatan oldidagi burchni tushunishda, go'zallikni his qila olishda, yomonlik va yovuzlikdan nafratlanishda, tabiat, moddiy borliq haqidagi tasavvurlarni singdirishda xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot nafaqat bolalarning badiiy fikrlash tafakkurini o'stiradi, balki, ularning hisob, hajm-o'lchov shakllari, o'simliklar olami, hayvonot olami, tasviriy san'at, musiqa va hokazolarga oid dastlabki bilimlarini shakllantirishda ham yordam beradi. Demak, birgina she'r, ertak, hikoyalarda bir necha fanga oid ma'lumot uyg'unlashib keladi. Natijada, bolalar olamning bepoyonligi haqidagi tasavvurga kela boshlaydi.

She'r, ertak, hikoyalar bolalardan insonlarga, tevarak atrofga, tabiatga nisbatan e'tiborli va sahovatli bo'lishni talab etadi. Chunki ular orqali bolalar insonlar hamda hayvonlar to'g'risida bilim olish imkoniga egadir. Masalan:

Tolib Yo'ldoshning “Uvol nima” sheridan

*Xalqimizning bir so'zi bor:
“Uvol” degan.
Uvol demak-nobud qilma,
Uvol! – demak.
Non ushatsang ushoqlarin
To'kib, sochma.
Ko'rib turib nobudga hech
Sen yo'l ochma!*

“Uvol” haqidagi she'r orqali bolalarga nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari uvol bo'lishi, balki bular suvga, kiyim-kechakka ham taalluqliligi haqida bilim beriladi. Bola “uvol” haqidagi tushuncha va malakalarini o'z hayotiy tajribasi davomida yanada boyitib boradi.

Bolalarni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab atrofida nimalar sodir bo'layotganligini ko'ra bilish va unga o'z munosabatini bildirishga o'rgatish, ehtiyot qilish, tejamkorlik tushunchasi orqali ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Natijada bolaning oziq-ovqat mahsulotlariga, kiyim-kechakka, tabiiy bo'yligimizga hurmati oshib boradi.

“Shukr qilish to'g'risida” aytilgan badiiy asarlar orqali bolalar halol mehnat qilib, faravon yashashi va mehnat orqasidan shukr qilishlik o'rgatiladi.

1. She'r, ertak, hikoyalar bolalarga insoniy fazilatlar haqida saboq berishda qo'l keladi jumladan:

a) Kamtarlik haqida. Bunda yurish-turish, kiyinish, odamlarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish kerakligi tushuntiriladi.

b) Mehnatsevarlik haqida. Masalan: Mehnat insonning butun hayoti va faoliyati davomida amalga oshadigan jarayon ekanligi, mehnatsevarlik bilan kasb-hunar egasi bo'lish mumkinligi to'g'risida fikr bildiriladi.

d) Sabr-qanoat haqida. Bunda sabr-qanoat insonlar uchun buyuk bir fazilat ekanligi, uning qanchalik og'ir bo'lmasin keyinchalik shodlik keltirishi haqida ma'lumotlar beriladi.

e) To'g'rilik haqida. Bunda to'g'rilik ma'naviy boylik ekanligi, inson qadrini yuksakka ko'tarishi, yaxshi xulqlarning biri ekanligi to'g'risidagi tushunchalar singdiriladi.

2. So'z qudrati haqida ma'lumot berishga ko'maklashadi.

Shirinsuxanlik inson fazilatining asosiy omillaridan biri ekanligi, uning aql-zakovati, bilim va madaniyati, saviyasi, tafakkuri so'zda ifoda etilishi, yaxshi so'z bilan kishilarning ishonchini hamda ular qalbidan joy egallash mumkin ekanligi ochib beriladi.

3. Vatanparvarlik haqida ma'lumot berib o'tiladi. Masalan: Inson uchun Vatandan azizroq joy yo'qligi, Vatan tuyg'usi har kimning qoniga ona allasi, bolaligida eshitgan she'r, ertak, hikoya, qo'shiqlar orqali singishi, ona zaminni sevish, e'zozlash haqida tushunchalar beriladi.

Xullas, she'r, ertak, hikoyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy shakllantirishda eng qulay usul bo'lib, ular orqali bolalar o'zlarining insonlar bilan, tevarakatrof bilan muomala-munosabatlarini to'g'ri tashkil qila oladilar.

Yuqoridagi mulohazalar asosida tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyot tanlashda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishlari lozim:

- she'r, hikoya, ertaklarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga;
- bolalarga tushunarililigiga;
- badiiy tiliga;
- yaratilish davriga;
- bolalarning yoshi va ruhiy holatiga mos kelishi yoki kelmasligiga;
- bolalarning turmush tarziga muvofiqligiga;
- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlariga to'g'ri kelish va hokozolar.

Bolalarni e'tiqodli, ma'naviy barkamol, namunaviy xulqli, samimiy insonlar qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos ekanligiga yana bir bor o'tkazgan tajribalarimiz natijalarida amin bo'ldik va "Bizlar shoirmiz", "Hikoyani tugat", "Ertaklar yaxshilikka yetaklar", "Chalg'itish she'riy o'yinlari", kabi she'riy to'plamlardan ijodiy foydalandik. Shulardan ayrim namunalarni keltiramiz.

"Hikoyani tugat"

O'yinni ikki xil usulda o'tkazish mumkin.

Birinchi usul: Bolalarga bir hikoya so'zlab beriladi. Lekin hikoyadagi ba'zi bir so'zlar tushib qoladi, unga mos keladigan so'zlarni topib o'rniga qo'yish kerak.

Ikkinchi usul: Matnda qoldirib ketilgan so'zlarning rasmlari bola oldiga qo'yiladi. Tarbiyachi hikoyani o'qib beradi, bolalar esa, so'zlar o'rniga rasmlardan birini ya'ni mos keladiganini qo'yishi kerak.

"Chalg'itish she'riy o'yinlari"

O'yin bolalarni diqqatli bo'lishga, so'zlarni tezda o'qiy olishga o'rgatadi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi.

She'rdagi ma'no to'g'ri bo'lsa bolalar "to'g'ri", agar ma'no noto'g'ri bo'lsa "noto'g'ri" deb aytib borishlari lozim.

"Yaxshi bolami, yoki yomon bolami?"

Assalomu alaykumdan boshlaydi o'z so'zini, (to'g'ri)

Ko'pchilikning orasida yaxshi tutar o'zini, (to'g'ri)

Kattalarni hurmat qilar, doim toza yuradi, (to'g'ri)

Tortib olib o'yinchog'in ukasini uradi. (noto'g'ri)

U o'zidan kattalarga joy berishni bilmaydi. (noto'g'ri)

O'jar, qaysar, erkatoydir, uyda hech ish qilmaydi. (noto'g'ri)

Daraxtlarni sindiradi, qo'shnilar undan bezor. (noto'g'ri)

Mushugining bolasini qiynaydi berib ozor. (noto'g'ri)

Hovlilarni supuradi, onasiga yordamchi, (to'g'ri)
Sira-sira rost gapirmas, o'ta ketgan yolg'onchi. (noto'g'ri)
Ovqatlanish oldidan u yuvadi qo'llarini, (to'g'ri)
Kesib o'tmas kattalarning hech qachon yo'llarini. (to'g'ri)
O'rtog'ining gapini u “ey, jim tur” – deb bo'ladi, (noto'g'ri)
Qizlar yiqilib tushsa, u hoholab kuladi. (noto'g'ri)

“Ertaklar – yaxshilikka yetaklar”

*Katta qalin o'rmonda,
Chap emas, o'ng tomonda,
Uyning egasi ona,
Bolalarga parvona,
Yetti nafar bolasi,
Ko'zining oq-qorasi.
Yopib tirqish, teshikni,
Tambalatib eshikni,
Ketar ekan o'rmonga,
Gox chap, gox o'ng tomonga.
Kechga tomon qaytarkan,
Ashulasin aytarkan.
Xo'sh, bular kimlar ekan,
Qani kim bilar ekan?*

Bolalarning javoblari: “Echki bolalari va bo'ri”

*Bor ekanu, yo'q ekan
Och ekanu, to'q ekan.
Juda qadim zamonda
Biz bilmagan tomonda
Yashar ekan bir eshak,
Yegani o't-u xashak.
Juda kalta o'ylarkan,
O'ylamasdan so'ylarkan.
Olmalar g'arq pishganda,
Boshga tushib shishganda,
Bo'lgan ekan u ermak,
Toping bu qaysi ertak?*

Bolalarning javoblari: “Farosatsiz eshak”

Bolalar qofiyali so'zlarni yaxshi sezadilar, uni qiyinchiliklarsiz qidiradilar, ularga so'zlarning o'xshash jaranglashi yoqadi, ko'pincha ma'nosidan emas, balki qofiyalarning chiroyli jaranglashidan xursand bo'ladilar.

Ularga yangi she'rlarni o'qib berib, o'zlari ovoz chiqarib talaffuz qilish lozimligini sezishlari uchun to'rtlikdagi oxirgi so'zlarni tushirib qoldirish mumkin. Bunday o'yin bolalarga zavq bag'ishlaydi, ular o'zlarini aqlli, fahm-farosatli, zehni o'tkir deb his qiladilar va bu ular uchun juda muhim.

Bolalar uchun adabiyot bir vaqtning o'zida ko'pgina murakkab tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, olam to'g'risidagi tasavvur doirasini kengaytiradi, go'zallik bilan tanishtiradi, musiqaviy qobiliyatini o'sishiga yordam beradi, ezgulik va odobga o'rgatadi, nutq madaniyatini tarbiyalaydi, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytiradi, sifat jihatidan yangilanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda yuqoridagi misollardagidek she'rlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari quyidagi umumiy o'rta ta'lim muassasasiga tayyorlov guruhlari uchun mashg'ulot ishlanmasi tavsiya etiladi.

Mavzu: O'zbekistonimiz-faxrimiz.

Maqsad: Bolalarga O'zbekiston haqida, uning xalqi haqida kengroq tushunchalar berish, ularni mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatish. Vatanni sevish, faxrlanish kabi hislatlarni shakllantirish, ularning lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish.

Jihoz: O'zbekiston sur'ati tushirilgan rasmlar, gerb, bayroq, she'rlar.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: Bolalar biz qaysi viloyatda yashaymiz?

Shahrimiz qanday ataladi? Qaysi ko'chada yashashingizni bilasizmi? Viloyatimizda qanday tumanlar bor? Vatanimiz qayer? Vatan nima o'zi? Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Bolalar hammamizning oilamiz bor. Oiladagi buva-buvi, ota-ona, aka-opa, uka-singillarimiz oila a'zolarimiz hisoblanadi shundaymi? Oilada kim rahbar hisoblanadi? Aniqroq qilib aytganda oila boshqaruvchisi kim bo'lishi kerak? Nima uchun? Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Xuddi shunday. Oilaning boshqaruvchisi, rahbari bo'lgani kabi bizning Vatanimiz O'zbekistonning ham o'z rahbari, davlat boshqaruvchisi, Prezidenti bor.

Bizning Prezidentimiz kim? Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Bolalar hozir men sizlarga bir hikoya aytib beraman. Hikoyani yaxshilab tinglab borsangiz kim va nima haqida gap ketayotganligini bilib olasiz. Bilishni xohlaysizmi? Bolalar javobi:

Sharq tomonlarda O'zbekiston degan serquyosh hur bir diyor bo'lgan ekan. Bu diyorning odamlari mehr-oqibatlilik, samimiyligi, mehmondo'stligi bilan boshqalardan ajralib turar ekan. Shaharu qishloqlarda turli millat vakillari tinch-totuv bo'lib hayot kechirar ekanlar. Ushbu o'lkada buyuk va qudratli yana bir inson yashar ekan. Bu inson xalqim, vatanim deb yonib yashar ekan. O'zbekiston xalqi mana shu xalqim, vatanim deb yonib yashaydigan insonni o'zlariga yurtboshi qilib saylabdilar.

Elim deb, yurtim deb yashaydigan bu inson, mustaqil davlat asoschisi bo'lib 1991-yil 1-sentabr kunini "Mustaqillik kuni" deb e'lon qilibdi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, an'analari-yu bayramlari qayta tiklanibdi.

Islom Karimov o'z xalqi va farzandlariga g'amxo'rligi tufayli qator-qator maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollej va akademik litseylar, kasalxonalar, oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq joylarida zamonaviy uylar qurdirib ishga tushiribdi. Chet ellar bilan aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yibdi. Shu bois, ham hozirgi paytda aka va opalaringiz chet ellardagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqdalar. Albatta, bunday yutuqlarga o'zbek xalqi o'z-o'zidan osonlik bilan erishmabdi. Bir qancha to'siqlarni yengib o'tibdi. Bunday ishlarda xalqqa yurtboshi yetakchilik qilibdi. Shuning uchun ham bu yurtboshini o'z xalqi juda sevar, ardoqlar va unga ishonar ekan.

O'zbek xalqi Alisher Navoiy, Ibn Sino, Amir Temur, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk siymolar bilan bir qatorda Prezidentimiz Islom Karimov bilan ham faxrlanib, g'ururlanib yashar ekan.

Shunday qilib, bu diyor yanada gullab yashnayveribdi. Boshqa xalqlar esa ularga havas qilishar ekan. Yurtboshimiz hozir ham o'z xalqining faravonligi yo'lida tinmay mehnat qilmoqda.

Tarbiyachi: Bolalar hikoya sizlarga yoqdimi? Nima uchun yoqdi?

Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Vatanimiz qayer ekan?

O'zbekistonda qanday millat vakillari yashar ekan?

Xalq kimni o'ziga yurtboshi etib saylabdi?

Yurtboshi xalqqa qanday yordam beribdi.?

– Biz nima uchun Prezidentimiz bilan faxrlanamiz? Bolalar javoblari tinglanadi.

Sizlarning ichingizda kelajakda Prezident bo'lishni orzu qiladigan bolalar ham bormi? Prezident bo'lish uchun qanday inson bo'lish kerak? Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Kim Vatan haqida she'r va maqollar ayta oladi? Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar Vatanimizni qanday tasavvur qilishingizni o'zingiz chizgan rasmlaringizda ifodalashingiz kerak.

Bolalarga rasm chizishlari uchun vaqt beriladi. Ular o'zlari chizgan rasmlarini tahlil qilib beradilar. Bolalarning chizgan rasmlari guruh ko'rgazmasiga qo'yiladi. Mashg'ulotda faol bo'lgan bolalar rag'batlantiriladi.

Quyida katta guruhlar uchun mashg'ulot ishlanmasi tavsiya etiladi.

Mavzu: “Jonajon O'zbekiston”

Maqsad: Bolalarga bizning mamlakatimiz O'zbekiston ekanligini ko'plab shahar va qishloqlar borligini, Toshkent – O'zbekistonning poytaxti unda yodgorliklar, teatrlar, ko'p qavatli chiroyli binolar, keng ko'chalar va maydonlar borligini tushuntirish lozim.

Jihozlar: O'zbekistonning umumiy tasviri tushirilgan surat, muzeylar, teatrlar, ko'p qavatli uylar tasviri tushirilgan rasmlar.

Mashg'ulotni borishi.

Tarbiyachi: Bolalar bugungi mashg'ulotimizda O'zbekiston haqida suhbatlashamiz. O'zbekistonning poytaxti qayer?

Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Toshkentning Usmon Nosir ko'chasida Amir Temur xiyoboni va tarix muzeyi bor. Bu yerda Amir Temurning suratlari, kitoblari, buyumlari ehtiyot qilib saqlanmoqda. Odamlar Sohibqiron hayoti va qilgan ishlari haqida bilish uchun bu yerga keladilar. Metroning Amir Temur bekati ham bor. Ko'chalar, shaharlar, bog'lar ham qahramonlar, olimlar, yozuvchilar, buyuk siymolar nomlari bilan ataladi. Masalan, Yunus Rajabiy, G'ofur G'ulom, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar.

Biz ham o'z qadrdon shahrimiz, qishlog'imizning diqqatga sazovor joylarini bilamizmi? Albatta biz bilishimiz lozim.

Tarbiyachi: Kim o'z xohishi bilan shu haqida gapirib beradi?

Bolalar javoblari tinglanadi.

Berilgan javoblar bolalarning “Motamsaro ona” haykali, halok bo'lgan jangchilar xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik, yozuvchi yoki rassom muzeyi, qadrdon shahar, qish-

loqning nima bilan dong taratganini (bog'dorchilik, chorvachilik, to'qimachilik fabrikasi va hakazolar bilan) bilishlariga qaratiladi.

Tarbiyachi: Respublikamizning qolaversa, qo'shni respublikalarning nomlanishini hamda mamlakatimizda yashayotgan yurtdoshlarimiz nimalar bilan mashg'ul ekanliklarini bilishimiz zarur.

Mamlakatimiz tabiati boy va xilma-xildir. Eng sovuq joy-shimol, eng issiq joy esa sharq ekanligini bilishimiz lozim.

Hozir "Ko'chani nima uchun shunday nomlashgan?" mavzusida sizlar bilan suhbat o'tkazamiz.

Tarbiyachi. Har bir insonning ismi bo'lganidek, ko'chalarning ham o'z nomi bor. Ko'chalar yozuvchilar, shoirlar, olim-u ulamolar, o'z yurti uchun jonini fido aylagan qahramonlar nomi bilan ham ataladi. Bizning mahallamizda ko'chalar ko'p. Ular har xil nomlanadi. Masalan: Sharof Rashidov, So'g'diyona, Gulzor nomidagi ko'chalar bor. Nima uchun ular shunday nomlanadi? Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, Sharof Rashidov Jizzax viloyatida tug'ilgan. Toshkent metropoliteniga asos solgan. Bu insonning nomini unutmashlik uchun Jizzax shahrining shoh ko'chasiga Sharof Rashidov nomi berilgan.

Tarbiyachi. Bizning bog'chamiz qaysi ko'chada joylashgan?

Nazokat. G'ofur G'ulom ko'chasida.

Tarbiyachi. Nima uchun ko'chaga G'ofur G'ulom nomi berilgan?

Jasur: Chunki G'ofur G'ulom yaxshi she'rlar va hikoyalar yozgan, ularni hamma sevadi va yodda tutadi.

Tarbiyachi. G'ofur G'ulomning qaysi she'rlarini yaxshi ko'rasiz?

Bolalar javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi. Ha, hamma insonlar G'ofur G'ulom she'rlarini yaxshi ko'rishadi va buyuk shoirni unutishni xohlamaydi. Shuning uchun ham ko'chaga uning nomini berishgan. Toshkent shahrida G'ofur G'ulom haykali bor. Haykal poyida esa doimo yangi uzilgan gullar turadi.

Mashg'ulot yakunida faol ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi. Ularga o'z ko'chalari haqida bilib kelishlari haqida vazifa beriladi.

Xulosa shuki, hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri – yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarini qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. Respublika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha tarbiya fakultetlari uchun. –T.: "O'qituvchi", 1994.
2. Inomova M. Farzand – nihol, ota-ona bog'bon. –T.: "O'qituvchi", 1998.
3. Ibroximova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. –T.: "O'qituvchi" 1994.
4. G'oziyeva S, Ochilova D, Dolimova L. Badiiy terma kitob. –T.: "O'qituvchi", 1993.

Nozima ASLANOVA,

Buxoro viloyati PKQTMOI o'qituvchisi,

Go'zal BARNOYEVA,

Jondor sanoat kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QOBILIYATINI ANIQLASHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya sifatini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan. Muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida “mashg'ulotlar oyligi”ni tashkil etish orqali bolalarning ijodkorlik qobiliyatini erta aniqlash va uni rivojlantirishning samarali usullarini taklif etgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha tarbiya, sifat, ta'lim, ijodiy qobiliyat, mashg'ulotlar oyligi, tarbiya sifati.

Статья посвящена вопросам улучшения качества учебно-воспитательной работы в учреждениях дошкольного образования. Автор предлагает эффективные методы раннего выявления и развития творческих способностей детей путём организации воспитательных занятий.

Ключевые слова. Дошкольное воспитание, качество, творческая способность, воспитательные занятия, качество воспитания.

This article discusses the issues of improving the quality of educational and extracurricular activities in pre-school institutions. The author proposes a method of early detection and the development of creative abilities of children by organizing a month of training.

Key words. Pre-school, eeducation, creative ability, future, knowledge, method, quality, organizing month of training.

Farzandlari kelajagini o'ylaydigan, ajdodlar ruhi, avlodlar istiqboli oldida yuksak mas'uliyat hissi bilan yashaydigan xalqimiz hamisha yosh avlod ta'limi va tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratib kelgan. Bu haqiqat necha mingyillik tariximiz davomida o'z tasdig'ini topib, ulkan natijalarni dunyoga namoyon etgan.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya sohasida o'tkaziladigan islohotlar avvalo ong va tafakkurdagi ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochsa, pirovardida xalq ma'naviyati takomilida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, uning ta'lim-tarbiya, ma'naviyat sohasiga qo'yayotgan sarmoyasi hajmi ortib bormoqda. Natijada shaxsning o'z qiziqishlari, iqtidori va qobiliyatidan kelib chiqqan holda to'laonli rivojlanishi, o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta'limda bolaning salomatligiga, jamiyatda yashashning ilk ko'nikmalarini o'zlashtirishga hamda ongli ravishda maktab ta'limiga tayyor bo'lib borishga e'tibor qaratiladi. Bu borada ham o'ziga xos raqobat muhiti yaratilganki,

ya'ni rivojlanishda tengdoshlaridan ilgari ketgan bolalar bir yil oldin, ya'ni olti yoshdan maktabga qabul qilinishi ularda ichki mas'uliyat, intilish va ishtiyoqni paydo qiladi. Hatto, 1-sinflardan boshlab bolalarni ingliz lug'ati bilan tanishtirish maqsad qilib qo'yildi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi bolani sog'lom, ilk dunyoviy tasavvurlarga ega qilib maktab ta'limiga yetkazib berishdan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish, erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va mehnatsevar, har tomonlama mukammal insonlar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ota-onalarning oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida "Bolajon" tayanch dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunlari, Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bolaning ma'nan va jismonan sog'lom, maktab ta'limini o'zlashtirishga qodir, o'z iqtidorini namoyon eta oladigan qilib yetkazishni nazarda tutadi.

Qobiliyat – insonga berilgan ne'mat. U ikkiga bo'linadi.

1.Tug'ma qobiliyat.

2.Hayot mobaynida shakllangan qobiliyat.

Har qaysi inson qandaydir qobiliyat egasidir. Qobiliyatsiz inson anomal inson sanaladi. Bola qobiliyatini erta aniqlash va unga shu yo'nalish asosida ta'lim tarbiya berish – kelajakda uni biror ishda mahoratli inson bo'lib yetishishiga turtki bo'ladi.

Go'dakni qandaydir musiqa o'ziga jalb qilsa, demak bola san'atga oshno. Yoki ranglar o'ziga tortsa, kelajakda nozik didli rassom yoki nafis hunar egasi bo'lib yetishishi mumkin.

Kundalik turmushda bolalarni kuzatsak, ularda qiziqish, taqlidning kuchliligini sezamiz. O'g'il bolalar ko'pincha duradgorlarga, haydovchilarga, san'atkorlarga, askarlarga taqlid qilishadi va bu qiziqishlarini o'yin faoliyati orqali amalga oshirishadi. Qiz bolalar esa, asosan, tarbiyachilariga, shifokorlarga, tikuvchilarga, o'z onalariga o'xshashga harakat qilishadi. Ba'zi bolalarda rasm chizishga qiziqish shu darajada kuchli bo'ladiki, hatto eshik va devorlar ham ular uchun nishonga aylanadi. Buning uchun bolani jazolash emas, balki to'g'ri yo'naltirib, sharoit yaratib berish, bola uchun eng chiroyli rangli qalamlar va rasm daftari olib berish, ularni tasviriy san'at sirlaridan voqif etish yaxshi natija beradi.

Asosan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga 3 yoshdan qatnay boshlashadi. Tarbiyachi har bir bola shaxsini to'liq o'rganishi, undagi qobiliyatni ilg'ab olib, oila bilan hamkorlikda uning qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Buning uchun "Bolajon" dasturida turli ko'rsatmalar berilgan. Dastur tarkibiga:

- bolalarni jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
- nutqi, o'qish va savodga tayyorligi;
- bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishi va uni anglashi;
- bolalarda tasviriy faoliyatini rivojlantirish;
- musiqiy faoliyatini rivojlantirish;
- o'yin faoliyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlardagi ta'lim-tarbiya masalalari ko'rsatib o'tilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida turli xildagi tadbirlar amalga oshiriladi. Shu tadbirlar zahirida har bir bola shaxsiga o'ziga xos tarzda yondashish masalasi o'z aksini topgan. Hozirda kelajak avlodni faqatgina yaxshi tomonga tarbiyalash, bolalarning ongiga ilm o'rganishga havas uyg'otish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chet tillarini farzandlarimiz o'z iqtidori bilan jahon standartlari darajasida faoliyat yuritishi, o'z salohiyatini namoyon qila olishi uchun chet tillarini o'rganishni maktabgacha ta'lim muassasalarida, bolaligidan boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida har bir oy ma'lum biz fanga bag'ishlangan bo'ladi. Bunda shu fanga oid tadbirlar, ochiq mashg'ulotlar, viktorinalar tashkil etiladi. Bir oy davomida o'quvchilar mazkur fanga oid kerakli ma'lumotlar, yangiliklar oladilar, bilim bo'shliqlarini to'ldiradilar, fanga oid tanlovlarda ishtirok etadilar.

Shu mazmundagi ishlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida ham birmuncha soddaroq tarzda amalga oshirish mumkin. Bunda fan oyligi o'rniga mashg'ulot oyligi tashkil etilib, tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olinishi darkor. Mashg'ulot oyliklari quyidagi tartibda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir:

- musiqa;
- tasviriy san'at;
- sport;
- mehnat;
- ertaklar;
- tabiat oyligi va hokozolardan iboratdir.

Mashg'ulot oyliklarida mashg'ulotlar odatiy reja asosida olib borilsada, urg'u aynan tanlangan mavzuga qaratiladi. Mashg'ulotlar davomida ingliz tilini bolalarga o'rgatish juda qulay.

Masalan: **Musiqa oyligida** tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim muassasalariga kirib kelishlari, musiqa orqali guruhga moslashib, kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lishlari, uxlash vaqtida alla aytib, mashg'ulotlar davomida musiqiy sadolar jo'r bo'lishi nazarda tutiladi. Musiqa oyligida bolalar kun davomida quvnoq kayfiyatda yursalar, ikkinchidan, musiqiy ongi rivojlanadi, uchinchidan esa ularning kuylash va raqsga tushish qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi. Bunda turli tempdagi musiqiy asarlardan foydalanish mumkin. Bolalarga Vatan mehrini ulashuvchi qo'shiqlarni qo'yib berish bola kayfiyatiga jo'shqinlik bag'ishlaydi.

Klassik kuylardan bolalarning dam olishlari, tinchlanishlari, ma'naviy ozuqa olishlari maqsadida foydalangan ma'qul. Estrada kuy va qo'shiqlardan, doira sadolaridan esa bolalar bilan jismoniy mashqlar olib borayotganda, foydalanish lozim. Bolalar uchun mo'ljallangan ingliz tilidagi “Happu birthday”, “Twinkle twinkle little star”, “My chickens” kabi qo'shiqlarni kuylashni o'rgatish mumkin.

Musiqa oyligi davomida bolalarning musiqiy qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.

Tasviriy san'at oyligida bolalarning rasm chizishga bo'lgan qobiliyati aniqlanadi. Mashg'ulotlarda rasm chizish qog'ozda amalga oshirilsa, ochiq havoda bu faoliyat tuproqli yerlarda mayda cho'plar orqali, asfaltda bo'r orqali amalga oshiriladi. Bolalarning rasm chizishga ishtiyoqi shu tarzda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ko'rgazmalar, guruhlar orasida tanlovlar tashkil etish orqali tasviriy faoliyat oyligini mazmunan boyitadi. Bunda tarbiyalanuvchilar rangli qalamlar, akvareldan to'g'ri foydalanish, mashg'ulot davomida estetik talablarga rioya qilishni o'rganadilar. Ularning badiiy-estetik didlari oshadi. Bolalar o'zlari chizgan rasm asosida ham chet tilini o'zlashtiradilar, o'zlari tasvirlagan narsalarining ingliz tilida ifodalanishini o'rganib oladilar.

Sport oyligida bolalar guruhlararo musobaqalar, bog'chalar orasidagi estafetalar, sport o'yinlari bilan shug'ullanadilar. Mashg'ulotlar davomida bolalarga sport turlari, ustalari, o'yinlari, anjomlari haqida ma'lumotlar beriladi. Natijada bolalarning sportga bo'lgan havaslari ortadi. Ular orasida bo'lg'usi mashxur sport ustalarining voyaga yetishishi ehtimolini kuchaytiradi. Oy davomida tarbiyachi bolalarga sport mashqlarini ko'proq bajartiradi. Bu bola organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning salomatligi uchun muhim rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar davomida bolalarga sport turlari, anjomlarining inglizcha ifodalanishini ham o'rgatish mumkin. Yurtimiz sporti va sport ustalariga nisbatan faxr, havas tuyg'usi mana shunday mashg'ulotlar orqali paydo bo'ladi.

Mehnat oyligida asosan bolalarning ishchanlik, mehnatsevarlik faoliyati shakllanadi. Rejadagi mashg'ulotlar odatdagidek davom etsada, dam olish daqiqalarida, o'yin faoliyatida asosiy urg'u mehnat faoliyatiga qaratiladi. Maydonchada, ochiq havoda o'g'il bolalar qum, lego, kubiklari bilan qurish-yasash ishlarini amalga oshiradilar. Guruhlarda turli kichik tadbirlar, musobaqalar, ko'rgazmalar tashkil etiladi.

Qiz bolalar esa, bu oylikda asosan maishiy hayotdagi mehnat faoliyati: guruhni tozalash, qayta jihozlash, yaroqsiz holatda bo'lgan o'yinchoqlarni ta'mirlash, tikish, yamash, yelimlash, artish, kabi ishlarni amalga oshirishi mumkin.

Bir oy davomida mehnat tarbiyasi o'yinlar orqali ham amalga oshiriladi. Oylikda bolalarning mehnatga layoqati, ishchanlik qobiliyati namoyon bo'ladi va ortib boradi. Ularda uy-ro'zg'or yumushlari, duradgorlik, tikuvchilik, pazandalik kabi hunarlarga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarga mashg'ulotlar orqali oshxona jihozlari, qurish-yasashga oid atamalarining ingliz tilida nomlanishini o'rgatish maqsadga muvofiq.

“Ertaklar olami” oyligida tarbiyalanuvchilar ko'proq ertaklar, multfilmlar, sahna ko'rinishlari, qo'g'irchoq teatri olamida bo'ladilar. Bu oyda asosiy urg'u ertaklarga qaratiladi.

Bolalar bog'chaga kirib kelib, nonushtagacha jismoniy mashqlar bajaradilar. Shunda tarbiyachi ko'proq ertak qahramonlari harakatini bolalarga bajartiradi.

Masalan:

“Bolajonlar, qani barchamiz ayiqchalar, quyonchalar, tulkichalar, qushchalarning harakatini bajaramiz,” deya ertak muhitini yaratadi.

Mashg'ulotlar ham ertaklar orqali, masalan, ertak qahramonlarini tasvirlash, ertaklar ruhi ufurib turgan qo'shiqlar, dam olish daqiqalarida ham multfilmlar qo'yib berib bolalarga maroq bag'ishlash ko'zda tutiladi.

Katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari sahna ko'rinishlari tayyorlab, kichik, o'rta guruh tarbiyalanuvchilariga namoyish qilishlari ertaklar oyligiga o'zgacha mazmun bag'ishlaydi. Bolalardagi aktyorlik qobiliyati ham sahna ko'rinishlari namoyish qilish davomida ro'yobga chiqa boshlaydi.

Bolajonlarni uxlatish davomida ularga yaxshilik bilan tugaydigan ertaklarni aytib berish mumkin. Ertaklar orqali ularga ijobiy ruhiyat bag'ishlash, ongiga yaxshi fazilatlarni singdirish, ertakdagi voqeliklardan xulosalar chiqarishga o'rgatish bolalarni ma'nan kamol toptirishga yordam beradi. Ertaklar orqali bolalar ongiga do'stlik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, hurmat-izzat kabi insoniy xislatlar rivojlantiriladi. Ertak qahramonlarining ingliz tilida ifodalanishini o'rgatish esa bolalarga chet tillarini egallashga yordam beradi.

Tevarak-atrof bilan tanishish oyligi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu oylikda bolalar tabiat hodisalari, atrof-muhit, o'simliklar va hayvonot dunyosi, go'zal shahrimizdagi tarixiy obidalar bilan tanishadilar. Bog'cha hovlisidagi gullar, daraxtlar parvarish qilinadi,

gulzor begona o'tlardan tozalanadi va bu ishlar bolalar bilan birgalikda bajariladi. Sovuq havoda esa tabiatdagi o'zgarishlar, qushlar, iqlim haqida ma'lumotlar beriladi.

Insonning ma'naviy yuksalish jarayonini hayotiy yo'l bilan qiyoslansa, maktabgacha davrni – yo'l boshi, deb qiyoslash mumkin. Bolaning bilim va tushunchalarini hosil qilishda uni o'rab turgan atrof-muhit boy manba sanaladi. Bolani o'rab turgan tabiat, tarixiy obidalar, diqqatga sazovor zamonaviy joylar, insonlar mehnati, barcha-barchasi “Vatan” tushunchasini kengaytiradi, Vatan tuyg'usini boyitadi, chunki dastlab “anglash”, so'ngra “hurmat qilish”, “e'zozlash”, “qadrlash” va “avaylab - asrash” kabi hissiy jarayonlar yuzaga keladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida jonivorlar, qushlar, o'simliklar, daraxtlar tasvirlanadi. Bu mashg'ulotlarda bolalar tevarak-atrof to'g'risidagi ilk bilimlarni egallaydilar, o'zlari uchun qiziq bo'lgan ob-havo, o'simliklar, hayvonlarning inglizcha nomlanishini o'rganadilar.

Shahar bo'ylab sayohatlarga olib chiqilganda bolalar o'zgacha quvonchni his etishadi. Tarixiy obidalarni kuzata turib ularga boy madaniy merosimizga mehr, Vatanimizga muhabbat tuyg'ulari singdiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulot oyliklarini tashkil etish-bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiyani yanada takomillashtirishga, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatini aniqlashtirishga, ularga yanada ko'proq bilimlar berishga qaratilgandir. Natijada bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidanoq kelajakda qaysi kasbni egallash borasidagi orzu-havaslari oydinlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini pedagogik-psixologik talablar darajasida o'tkazish ko'p jihatdan uni uslubiy to'g'ri tashkil etishga bog'liqligini unutmasligimiz zarur. Shundagina dasturda belgilangan vazifalarni sifatli amalga oshirishga erishamiz. Zero, o'z nomi bilan bolalar dunyosiorzular dunyosidir. Unda barchaning yuragida istaklar to'liqini mavj uradi. Kun kelib, bolalikdagi orzular sobit maqsadga, e'tiqodga aylanadi. Shunday ekan, go'zal murod maqsadlar – ezgulikdan nishona. Ezgulik esa, insoniyatning asl mohiyati va maqsadidir. Bolalarimizni ulkan maqsadlar qo'yishga chorlaylik, toki ular go'zal hayot og'ushida o'z orzularini amalga oshirishga harakat qilsinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I. A. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori*. –T.: “O'zbekiston”, 1997.
3. “*Bolajon*” *tayanch dasturi*. T., 2010.
4. Sharipova D. va boshqalar. *Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz. Metodik qo'llanma*. T., 2006.

Nigora XIKMATOVA,
Buxoro shahridagi 4-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIDA IJTIMOY INSTITUTLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish shaxsning ijtimoiy tajribani egallash davomida uni faol o'zlashtirish jarayoni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif ijtimoiy institutlarning faoliyatini to'g'ri tashkil etishning shaxs ijtimoiylashuvidagi o'rni to'g'risida qator tavsiyalarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, shaxslararo munosabat, ongli faoliyat, ijtimoiy institutlar, jarayon, insoniy munosabatlar.

В статье освещен процесс активного освоения социального опыта личности в качестве субъекта социальных и межличностных отношений, его продуктивной, сознательной деятельности, определена роль общественных институтов в социализации личности, представлены рекомендации автора по организации их деятельности.

Ключевые слова. Личность, межличностное отношение, процесс, общественные институты, критерии, факторы.

The article highlights the process of active development of the social experience of the individual as a subject of social and interpersonal relationships, its productive, conscious activity, defined the role of public institutions of socialization, presented recommendations of the author on the organization of their activities.

Key words. Personality, interpersonal relationship, process, public institutions, factors.

Shaxs uning dunyoni bilishi, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunish va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini tahlil qilish bizga shaxs-jamiyatda yashaydigan mavjudotdir degan xulosani beradi. Ijtimoiy muhit – insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi.

Shaxs – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlaridan eng muhimi shuki, u shu tashqi ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib obyektni, so'ngra shu ta'sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi

ilk yoshlikdanoq “mening hayotim”, “bizning dunyo” degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi.

Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat – ijtimoiy intizom, tartib va madaniyatning mufassal ko'rinishidir. U tug'ilgan kunidan boshlab, o'ziga o'xshash insonlar atrofida bo'lib, uning butun ruhiy salohiyati ana shu ijtimoiy muhitda ko'rinadi. Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori, xususiyatlari jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishdan “Men” obrazi hosil bo'ladi. Bu obrazning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. “Men” obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi.

Tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanish jarayonidir deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qila olsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish extimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi. “Men” obrazining ijobiy yoki salbiyligida, o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi.

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib, yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Bu inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyati jarayonida uni faol o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayonda shaxsning jamiyatga qo'shilihi uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatish shu ijtimoiy tajribasi bilan o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishdir. Ijtimoiylashuv avvalo insonlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirlar mohiyati aslida jamiyat a'zolari bo'lgan shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim yo'nalishlarini belgilab beradi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtayi-nazaridan turlicha subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit, insonlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, bir sinfda o'qiyotgan maktab o'quvchilarini olaylik.

Ularning bilim, ilmni idrok qilishlari o'qituvchilarning berayotgan bilimlari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar bir xildek. Lekin baribir ana shu o'quvchilarning har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning o'qishdagi yutuqlari va iqtidorida aks etadi. Bu ijtimoiylashuv va induvidualizatsiya tamoyillarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz.

Bu institutlarga oiladan boshlab, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari, norasmiy uyushma va tashkilotlar kiradi. Shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura, mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita ana shu ijtimoiy institutlar orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi, o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlanib, ziyoli

sifatida elga xizmat qiladi. Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir.

Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Ya'ni shaxs sifatlarining dastlabki andozalari oiladan olinadi va jamiyatdagi boshqa institutlar, guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Har qanday jamiyat taraqqiyoti ana shu jamiyatdagi muhitga bog'liqdir. Sog'lom oila muhitida sog'lom avlodlar tarbiyalanib kamol topadi. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat, sadoqat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar aynan oilada tarbiyalanadi. Komil insonga xos bo'lgan axloqiy mezonlar, shaxsning butun umri davomida jamiyatda o'z o'rnini topishda ijtimoiylashuvida namoyon bo'ladi. Zero, farzand oilada kamol topar ekan, u oila a'zolarining xulq-atvori, hatti-harakatlarini, qadriyatlarini, odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirib, andoza ola boshlaydi. Bu uning hayotiy prinsiplariga aylanadi. Oila a'zolarining munosabatlari misolida insonlar bilan muloqotga kirishishni, munosabatda bo'lishni o'rganadi. Bu uning xulq-atvorida aks etadi.

Oiladagi sog'lom muhit ta'sirida bola shaxs sifatida shakllanib, mustaqil xayotga, shaxslararo munosabatlarga tayyorlanib, sifat va fazilatlarni o'zida shakllantirib boradi. Har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani komil inson bo'lib yetishishida, jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash insonlar bilan murosa qilishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, kasb-hunarli bo'lishga, muomalada axloq-odob me'yorlariga bo'y-sunishga, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalarga amal qilishga psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda "Oila" yili deb e'lon qilinishi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi o'z faoliyatini boshlashi jamiyatda yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbirlar amalga oshiriladi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyati yuksak, sog'lom fikrlaydigan oilalar – sog'lomdir.

Sog'lom oilalar obod mahallalarning ko'rkidir. Azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Biz "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", "Mahalla ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlarni ana shu hayotiy haqiqatlarning ifodasidek qabul qilamiz. Bizning o'zbek mentalitetimizga mos ravishda oila bilan bir qatorda mahalla ham tarbiyalovchi-ijtimoiylashtiruvchi sifatida rol o'ynaydi.

Mahallada istiqomat qilayotgan katta yoshdagi otaxonu-onaxonlar nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga xam tarbiyaviy ta'sir, shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi-nazaridan qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota-bobolarimiz, onaxonlarimiz asosan o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlarga uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa ayniqsa Sharq xalqlarida juda e'zozlanadi.

Zero, qadimdan “Qari bilganini pari bilmas” degan maqol bejiz aytilmagan. Mustaqil yurtimizda qariyalarga alohida hurmat va ehtirom ko'rsatilib e'zozlanadi.

2015-yilni Prezidentimiz tomonidan “Qariyalarni e'zozlash yili” deb e'lon qilinishi ham keksa avlodga chuqur hurmat va ehtiromning bir namunasidir. O'tmishsiz kelajakni qurib bo'lmaganidek, biz o'z kelajagimizni barpo etishda ana shu boy tajribalarga tayanamiz. Ularning hayotda orttirgan bilim va tajribalari biz yoshlarda yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi tushunchalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishda bizga mustahkam poydevor, kelajakda yo'limizni yorituvchi o'chmas nur bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan insonning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqariladi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq insonlar psixologiyasida o'z aksini topadi.

Maktab va boshqa ta'lim maskanlari shaxsning ijtimoiylashuvida oila va mahalladan keyin ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskanlardan biridir. Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bogliq. Aynan maktab, ta'lim muassasalarida ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta'lim muassasalarida yoshlarga ko'proq tashabbus ko'rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni his qilishga sharoit yaratish kerak.

Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Ta'lim muassasalarini biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Mehnat jamoalari ham shaxs ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu yerga shaxs odatda, tajriba, bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi.

Egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Ammo, shaxsning kimlar bilan qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdan asosiy motivlardan biri – o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik – maosh masalasi o'rganiladi. Jamoada talablarning qo'yilishi natijasida ijtimoiylashuv shaxsda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlarini barqarorlashtiradi.

Bunda inson sifatida jamiyat oldida o'z burchini uddalay olish, turli sohalarida o'zligini namoyon qilish va jamiyatdan qanoatlanish tuyg'ularining kechishi bilan xarakterlanadi. Mehnat jamoasidagi ijtimoiy faoliyatda, jamoat ishlarida shaxs o'zligini namoyon etib, boshqalarning ham ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Shuning uchun mehnat jamoalarida ijobiy, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.* – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. *Psixologiya* – T.: “Iqtisodiyot”, 2014.
3. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbayeva Sh.T. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.* – T., 2013.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. *Psixologiya* – T., 2000.
5. Islomova N., Andullayeva D. *“Ijtimoiy psixologiya”* – T., 2013.

To'raxon RAXIMOVA,
O'zMU professori,
Shoira RAXIMOVA,
O'zMU o'qituvchisi

O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada tabiatni muhofaza qilish muammolarining dolzarbligi, biosfera barqarorligini asrashda tabiat qonunlarini bilgan holda u bilan munosabatda bo'lish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek mualliflar, ekosistemadagi qonuniyatlar, biosfera barqarorligining buzilish sabablarining oqibatlarini, populyatsiya va ekosistemalarni muhofaza qilish masalalari to'g'risida ma'lumotlar keltirgan.

Kalit so'zlar. Tabiatni muhofaza qilish, biosfera barqarorligi, tabiat qonunlari, tabiiy resurslar, ekosistema.

В статье рассмотрена актуальность проблемы защиты природы и необходимости знания закономерностей устойчивого состояния биосферы. Приведены сведения о причинах и последствиях разрушения биосферы, мерах по защите популяций и экосистемы.

Ключевые слова. Охрана природы, устойчивость биосферы, законы природы, природные ресурсы, экосистема.

The article contains materials about the availability of the issue of nature protection and decree of nature awareness in protection of biosphere stability. Appropriateness of ecosystems, food circulation, causes and effects of disturbing the ecosystem stability, issues of protection of population and ecosystem have been illustrated.

Key words. Nature protection, biosphere stability, decree of nature, population and ecosystem protection.

Hozirgi vaqtda ekologik muammolarning dolzarbligi asosiy masalalardan biri bo'lib, ekologik xavfsizlikni asrashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa iqlim o'zgarishlari, orol muammosi, tuproqlarning sho'rlanishi, azon tuyniklarini hosil bo'lishi, global ekologik muammolarga kiradi va bu masalalarni yechish uchun ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish maqsadida ularni chuqurroq o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi zamondagi dolzarb ekologik muammolarni keng jamoatchilik orasida yuksak darajaga ko'tarish muhim vazifalarimizdan biridir.

Shu sababli XXI asr kundaligida ekologik ta'lim-tarbiyaning roli muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ekologik ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish zamon talabi bo'lib, tabiiy muhitni himoya qilish va tiklash insoniyatni saqlab qolish imkoniyatining salmoqli mezoniga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar va inson bitta ekosistema, ya'ni biosferada yashaydi. Biosferani barqarorligini asrash hozirgi vaqtda eng dolzarb muammolardan biridir. Tabiatni muhofaza qilish uchun tabiat qonuniyatlarini bilish kerak.

Ma'lumki biosfera bios-hayot, sfera-shar degan ma'noni berib, Yer yuzining tiriklik bilan qoplangan qismini gidrosfera, litosfera va atmosferani o'z ichiga oladi.

Ekologiyaning qonuniyatlaridan ba'zi birlari quyidagilar:

1). Biosferada barcha hodisalar bir-birovi bilan bog'liq, sayyoramizning biror-bir joyida ekologik muammolar kelib chiqsa, u global ravishda ta'sir qiladi: masalan Orol muammosi bunga misol bo'ladi.

2). Tabiatda moddalarning aylanma harakati doimo davom etib turishi hayot asosini tashkil qiladi, lekin hozirgi vaqtda moddalarning aylanma harakatida qatnashmaydigan sintetik mahsulotlar (baklashkalar, selofan va boshqalar) tabiatda erimaydi va chiqindi holida saqlanadi. Shuning uchun chiqindisiz ishlab chiqarish masalalarini yo'lga qo'yish lozim

3). Orol ekosistemasini buzilishi uni oldingi holatiga keltirib bo'lmayotganligi.

4). Tabiat ustidan hukmronlik qilmasdan u bilan hamkorlik qilish kerak. Havoni, suvlarni, tuproqni biologik yo'l bilan tozalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biosfera ifloslanishini oldini olish, tabiatni muhofaza qilishdir.

Tabiiy resurslar ikkiga, ya'ni tugaydigan va tugamaydiganga bo'linadi. Tugaydigan resurslarga tiklanadigan resurslar (tuproq, o'simliklar, hayvonlar, ba'zi bir mineral) kiradi va tiklanmaydigan resurslar (qazilma boyliklar) kiradi.

Tugamaydigan resurslarga esa quyosh radiatsiyasi, kosmik va iqlim resurslari, okean suvlari kiradi. Tabiatni muhofaza qilganda tiklanadigan resurslarni (o'simlik, hayvon, tuproq) tiklanishiga sharoit yaratib ulardan normal foydalanish kerak. Tugamaydigan resurslarni atmosfera havosini, okean suvlarini ifloslanishini oldini olish kerak, biologik yo'l bilan tozalash kerak.

Tabiat inson uchun hayot manbai, uning quyidagi aspektlari mavjud bular:

Sog'lomlashtirish, iqtisodiy, ilmiy, estetik va tarbiyaviy. Bu aspektlarning hammasi muhim ahamiyatga ega.

Tabiatni muhofaza qilish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Tabiatdan foydalanish jarayonida muhofaza qilish,
2. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar (qo'riqxonalar, milliy bog'lar, tabiat yodgorliklari).

Tabiatni muhofaza qilishni esa ekologlar quyidagicha olib borishni tavsiya qiladilar:

- populyatsiya va turlar hamda ekosistemalar darajasida.
- populyatsiyalarning yo'qolishiga populyatsiyadan normasiz foydalanish, yashash joylarining buzilishi, yangi turlarning keltirilishi, muhitning ifloslanishi kabi omillar ta'sir qiladi:

Ekosistemalar tabiiy o'zini tiklash xususiyatiga ega bo'lgan (masalan tog'dagi yong'oqli, archali o'rmonlar va boshqa) hamda sun'iy-shahar ekosistemalari, paxta bug'doy dalasi inson yordamida yaratilgan. Bularni farqi shundaki tabiiy ekosistemalar har yili o'zidan o'zi tiklanadi, agar biz undan normal foydalanib, buzilishiga yo'l qo'ymasak. Sun'iy ekosistemalar, masalan paxta dalasi inson faoliyati natijasida paydo bo'ladi. Ekosistemalarni muhofaza qilish dolzarb ekologik muammo hisoblanadi, tabiiylaridan normal foydalanib, tiklanishga sharoit yaratish kerak. Shahar ekosistemalarida atmosfera havosini tozalash inson salomatligi uchun muhimdir,


shuning uchun havoni chiqindilardan, changdan tozalaydigan, fitonsidlar chiqarib, kasal tarqatadigan mikroob, bakteriyalarni o'ldiradigan, soya-salqin beruvchi daraxatlarni ko'paytirib, shahar muhitini optimizatsiya qilish lozim.

Hozirgi vaqtda dolzarb ekologik muammolar quyidagilar:

- Cho'llanish jarayonining kuchayishi, iqlimning quruqlashishi.
- Atmosfera havosining ifloslanishi, azon tuynuklarining paydo bo'lishi.
- Tuproqlarning sho'rlanishi.
- Haroratning global isib borishi.
- Orol dengizi qurishining oqibatlar.
- Yer usti va Yer osti suvlarining texnogen ifloslanishi.
- Ekosistemalarning buzilishi va botqoqlanishi.
- Kam uchraydigan va endemik turlarning yo'qolib borishi.
- Biologik hilma-hillikning va tabiiy resurslarning kamayib borishi.
- Ekologik madaniyat saviyasining pastligi va boshqalar.

Bugun va ertangi kunimizda uchraydigan ekologik muammolarni yechish uchun quyidagi mavzularda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

- buzilgan ekosistemalarda o'simliklar jamoasini tiklash;
- sistemali analiz qilish asosida o'simliklarning qurg'oqchilikka, sho'rlikka, issiq, sovuq haroratga va tashqi gazlarga chidamliligini ilmiy asoslash;



- daryolar va kanallarning suv sifatini ekologik monitoring qilish asosida optimizatsiyalash;
 - tuproqlarning texnogen ifloslanishini o'rganish va biologik rekugvatsiya ishlarini olib borish;
 - shifobaxsh o'simliklarni muhofaza qilishda populyatsiyani o'rganish;
 - shahar ekosistemalarida optimizatsiya ishlarini olib borish;
 - tabiatdan normal foydalanishni ilmiy asoslash;
 - tabiiy genofondni saqlash;
 - hozirgi zamon ta'lim texnologiyasidan foydalanib, ekologik ta'limni rivojlantirish.
 - yuksak ma'naviyatli va ekologik madaniyatli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.
- Yuksak ma'naviyatli va ekologik madaniyatli shaxs modeli quyidagi chizmada keltirilgan:

Yuksak ma'naviyatli va ekologik madaniyatli shaxs modeli

Bu model asosida insonlar milliy urf-odatlarimizni biladigan, fidoyi bo'lishlari kerak. Ular tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lib, kelajak avlod uchun tabiiy ne'matlar zarurligini anglab, uni tejab sarflashlari lozim. Inson uchun sog'lom turmush tarzi, hayotga moslashuv muhim ahamiyatga ega. Bunda jismoniy tarbiya me'yoriy ovqatlanish, insonlar orasidagi yaxshi muomila madaniyati ham ijobiy ta'sir qiladi.

Yuqorida keltirilgan ekologik mavzular bo'yicha ilmiy ishlar qilinsa, ekologik ta'limni uzluksiz ravishda oilada, maktabgacha ta'lim maskanlarida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, litsey va kasb hunar kollejlarda, Oliy o'quv yurtlarida va keng jamoatchilik orasida olib borilsa, yuksak ma'naviyatli va ekologik madaniyatli kadrlar tayyorlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish, biosfera barqarorligini asrash hozirgi vaqtdagi eng dolzarb muammo bo'lib, u har bir insonning muqaddas burchidir. Tabiat ne'matlaridan foydalanganimizda uning ustida hukumronlik emas hamkorlik qilib, qonuniyatlarni bilish lozim. Rivojlanishga erishish uchun tabiiy resurslardan ratsional, iqtisod qilib foydalanish kerak, muqobil energiya manbalarini ishlatish kerak. Hayotimiz manbai tabiiy resurslar, o'simliklar, hayvonlar turlari xilma-ixlligini, ekosistemalarni muhofaza qilish kerak. Atrof, tabiiy muhit ifloslanishini oldini olish, tabiatni muhofaza qilish ma'naviyati va ekologik madaniyati talabiga javob beruvchi raqobat bardosh kadrlarni tayyorlash zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov A.A., Akinshina N.G., Nishonov B.E. *Barqaror taraqqiyot ta'limi. O'quv-uslubiy qo'llanma.* –T.: 2007.
2. Baratov P. *Tabiatni muhofaza qilish.* –T.: “O'qituvchi”, 1991.
3. Tursunov X., Raximova G.U. *Ekologiya o'quv qo'llanma.* –T.: 2006.
4. Ergashev A.E., Sheraliyev A.Sh., X.A.Suvanov, Ergashev T.A. *Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma.* –T.: “Fan”, 2009.

Maxfuza ALIQULOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI
katta ilmiy xodimi, p.f.n.

EKOLOGIK TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talaba-yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda "Ijtimoiy pedagogika" fanining o'rni tahlil qilingan. Muallif ekologik ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishda ushbu fanning imkoniyatlarini ilmiy asoslab bergan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy fanlar, oliy pedagogik ta'lim, ekologik madaniyat, modernizatsiya, antropogen faoliyat.

В статье анализируется роль предмета "Социальная педагогика" в развитии экологической культуры студенческой молодежи в условиях модернизации высшего педагогического образования. Дано научное обоснование возможности данной учебной дисциплины в дальнейшем совершенствовании процесса экологического образования.

Ключевые слова. Социальная педагогика, общественные науки, высшее педагогическое образование, экологическая культура, модернизация, антропогенная деятельность.

In the article the author analyzed ecological awareness of students in process of teaching the subject of "Social Pedagogy". The author scientifically proves the possibilities of using of social pedagogy materials in modernization process of environmental education.

Key words. Social pedagogy, social science, ecological culture, social pedagogy, social sciences, higher pedagogical education, ecological culture, education and training, modernization, natural resources, environmental activities.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talabalarining bilim olishlari, ularning ekologik madaniyatini yuksaltirish zaruriyatining nazariy metodologik asosini belgilab bergan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaydiki, "Ming shukrki, haqiqatan ham hayotimizni butunlay o'zgartirgan mana shunday dasturimizning, unda mujassam bo'lgan ezgu maqsadlarimizning ro'yobga chiqqanini ko'rish bizga nasib etdi va bu barchamizga katta g'urur va xursandchilik bag'ishlab, ko'nglimizni tog'dek ko'taradi, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi".

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim

bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiy ta'lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, pedagogik ta'limning barcha jabhalarini modernizatsiyalash masalasi bilan bog'liqdir. Talabalarning chuqur bilim olishlari, kelajakda pedagog kasbini egallashlari, ularga berilayotgan ekologik ta'limni yanada takomillashtirish zaruriyatini talab qiladi. Ekologik ta'lim jarayonini rivojlantirish zaruriyati o'qish vaqtida turli ilmiy asoslangan usullardan foydalanishni taqozo etadi. Dastlab, pedagogika sohasidagi o'quv fan dasturlari asosida ekologik madaniyatni rivojlantirishga mos bo'lgan mavzular tanlab olinadi. So'ng muammoga ilmiy yondashilgan fikrlar majmui integratsiyalashtirilib, dars mashg'ulotlariga innovatsion yondashiladi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Pedagogik institutlar va universitetlarda bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning tizimli asosini belgilab beruvchi hujjat hisoblangan o'quv rejasida ijtimoiy fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan. Ijtimoiy fanlar oldidagi asosiy vazifa, talabalarning ma'naviy, axloqiy, siyosiy madaniyatini oshirishdir. Ijtimoiy fanlar o'quv dasturlariga kiritilgan mavzularni o'rganish, ular ustida mustaqil ishlarni bajarish tufayli talabalar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmuni va maqsadini, kelajakdagi ahamiyatini anglaydilar. Shuningdek, demokratik va huquqiy davlatning rivojlanish bosqichlari, fuqarolik jamiyati sharoitida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimizning mohiyati, davlatimizning yoshlar, talabalar kamolotini ta'minlash uchun olib borayotgan siyosati mazmunini tushunib oladilar.

Mamlakatimiz hududidagi ekologik vaziyat inson kamoloti, shaxs manfaatlarining yechimi, ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi imkoniyatlardan foydalanishi bilan muntazam bog'liqdir. Shuning uchun ijtimoiy fanlarni o'rganish jarayonida ekologik mavzular talabalar diqqat markazida bo'lib, ekologik sharoitning o'ziga xos jihatlarini bilib olishlariga yordam bermoqda. Shu jihatdan qaraganda, ikkinchi kurs talabalari uchun o'tiladigan fanlar tizimida "Ijtimoiy pedagogika" fani alohida o'rin egallaydi. Ushbu fanning o'qitilishi davomida talabalar ekologik tizimning inson hayotidagi o'rnini haqidagi ma'lumotlarni o'qib, o'rganadilar.

Jumladan, talabalar yurtimiz ekologiyasining global ekologik holatlarning bir qismi sifatida, uning tarkibida sodir bo'layotgan jarayonlar – iqlim isishi, atmosfera havosining, suv zaxiralarining transchegaraviy ifloslanayotganligi, yerning erroziyaga uchrashi bilan bog'liq muammolar haqida ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi ekologik masalalar majmuasining o'ziga xos xususiyatlari, global mazmundagi ekologik masalalarning vujudga kelishi va hal qilinish tizimini yaratish bilan birga tilga olinmoqda. Bular sirasiga ozon qatlaminin buzilishi, aholiga ichimlik suvining taqchilligi tobora sezilayotganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolib borishi va chiqindilarning ko'payish muammolari kiradi.

O'tgan asrda O'zbekiston hududida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish deb nomlangan siyosat tufayli, yurtimiz ekologiyasi mislsiz suratda buzildi, bu ilmiy

asoslanmagan ekologik siyosatning natijasi, hozirgi kunda Orol dengizining qurishiga olib keldi, ilmiy asosga ega bo'lmagan bu siyosat yurtimizning shimoliy viloyatlaridagi ekologik muvozanatni butunlay o'zgartirib yubordi. Natijada, yurtimiz hududlarida yerning sho'rlanishi yuzaga keldi, ichimlik suvi tanqisligi, flora va faunaning yemirilishi sodir bo'ldi, Orol dengizi atrofida yashovchi insonlar salomatligiga salbiy ta'siri oshib bormoqda. Orol dengizi va Orol bo'yi ijtimoiy masalalarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda hal qilish muammosi ko'tarildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik muammolariga bag'ishlangan anjumanida jahon hamjamiyatining diqqati global masshtabdagi Orol dengizi qurishi munosabati bilan vujudga kelgan ekologik muammoga qaratildi. Olib borilayotgan yaratuvchilik ishlari tufayli yurtimizdagi ekologik ahvol yaxshilandi, bularni amalga oshirish uchun davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro birlashmalarning sarmoyalari jalb qilindi. Mustaqillik yillarida tabiiy boyliklar, shu jumladan, suv zaxiralarini asrash, ratsional foydalanish bo'yicha jahonshumul ahamiyatga molik amaliy ishlar bajarildi. Talabalarning ekologik madaniyati rivojlanishida mamlakatdagi ekologik vaziyatni muqobillashtirish uchun olib borilgan chuqur siyosatning mohiyatini tushuntirish, ular ongiga singdirish muhim omillardan hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim jabhalarida islohotlarni amalga oshirish davrida tabiiy muhitga salbiy ta'sir etuvchi sabablarni, ya'ni inson faoliyatining hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatini aniqlashga alohida e'tibor berildi. Chunki globallashtirish davrida insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining samarali natijasi muqobil, ijobiy ekologik vaziyatda amalga oshishi mumkin.

"Ijtimoiy pedagogika" fanining talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, ular mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yutuqlar, hududlarda ijtimoiy infrotuzilmalarning mukammallashtirishiga olib kelganini, modernizatsiyalashgan iqtisodiyot, islohotlarning chuqurlashuvi tufayli vujudga kelgan yangiliklarning ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga xizmat qilayotganligini anglaydilar. Jumladan mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Fermer xo'jaliklari vujudga keldi, rivojlandi. Bugungi kunda qishloqda xususiy mulk sohibi sifatida, mavjud hududda ekologik ahvolni yaxshilashga, yer, suv resurslaridan samarali foydalanishga o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqda. Fermerlarning yerga bo'lgan ijobiy yondashuvining oshib borishi natijasida, sug'oriladigan yerlarga solinayotgan pestitsidlarning miqdori kamaydi, suv zaxiralaridan tejamlilik bilan foydalanish boshlandi.

Ekologik vaziyatning sog'lomlashuviga fermer xo'jaliklarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlari ham sabab bo'lmoqda. Talabalarga demokratik islohotlar davrida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yanada sog'lomlashtirishga qaratilgan qonunlarni qabul qilinganligining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ekologik muvozanatni nazorat qilish, mavjud tabiiy boyliklarni qo'riqlash va ulardan unumli foydalanishni monitoring qilish tizimi yaratildi. O'zbekiston Respublikasida faqat mustaqillik yillaridagina mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik siyosat olib borish imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, mamlakatimizda Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasining qabul qilinishi va amaliyotga joriy qilinganligi yurtimizda ekologik muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2013-yilda "Ekologik nazorat to'g'risida" Qonun qabul

qilinishi, ekologik masalalarning islohotlar yechimidagi dolzarbligi, ushbu jarayonning tarbiyaviy masalalar, inson ongi va ekologik madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Talabalarining ushbu qonunlar majmuasi mazmunini va mohiyatini yurtidoshlarimizga tushuntirishda, ularning ekofestivallar, radio va televideniya yordamida eshittirishlar, ko'rsatuvlardagi bevosita ishtiroki ekologik vaziyatni muqobillashtirishga qo'shayotgan hissasidir.

“Ijtimoiy pedagogika” fani o'qitilishi, bo'lajak mutaxassislarning chuqur ekologik bilimlarni egallashlari, atrof-muhitga tolerant munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantiruvchi omillardan hisoblanadi. Bo'lajak pedagog mutaxassis mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, ekologik tarbiya ishlarining tashkil qilinishida, ilmiy muammolar yechimida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham ularning ilmiy va kasbiy tayyorgarligi, tabiiy, atrof-muhitga ijobiy munosabatini rivojlantirish ekologik masalalar yechimi bilan bog'liq vazifadir. Talabalarining bo'lajak pedagog ekanligi, mutaxassislilik fanlarini chuqur egallashi va ekologik bilimlarni mukammal o'zlashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi. Ushbu jarayonda mutaxassislilikni egallamoqchi bo'lgan talabalar faoliyati bilan aloqadorligiga e'tibor bersak, ularning ekologik ahamiyat kasb etuvchi bilimlar majmuasi malakali pedagog kasbini egallashlarida har jihatdan muhim va zarur ekanligini anglaymiz. Bo'lajak pedagoglar ekologik madaniyatining rivojlanganligi, ulardan barkamol avlod vakillariga hududdagi ekologik ahvolning holatini, mohiyatini, mazmunini tushuntira olishini, ilmiy asosda ushbu vaziyatning ijobiy, ba'zi hollarda salbiy jihatlarini malakali mutaxassis sifatida yoshlar tafakkuriga singdirish qobiliyati, yuksak pedagogik malakasi va mahorati zarurligini taqozo etadi.

“Ijtimoiy pedagogika”ni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, talabalar va yosh pedagoglarning chigallashayotgan, murakkab ekologik vaziyat bilan bevosita to'qnash kelgan sharoitda o'qitilayotganligidir. Bunday holatda talabalar ekologik holatning mohiyatini tushunib olishlari uchun ilmiy asoslangan ekologik tushunchalar majmuasiga ega bo'lishi, muammoning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur hamda ilmiy asosda anglay olish zaruriyati vujudga keladi.

Masalaning ta'lim-tarbiya amaliyoti bilan uzviy bog'liqlik tomoni shundan iboratki, oliy ta'lim muassasasini tamomlagan bakalavr o'zi faoliyat olib borayotgan hududda ta'lim olayotgan yoshlar bilan ishlaydi va lokal ekologik vaziyat sharoitida mehnat qiladi, ijodiy yondashgan holda pedagogik faoliyat ko'rsatadi. Shunday ekan, undan talabalik davridayoq o'lkadagi, hududdagi ekologik ahvol hamda mavjud tabiiy boyliklardan samarali foydalanishda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinayotganligi haqida axborotga, zarur ekologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, zamonaviy pedagog doimiy sur'atda mutaxassisliligini, shu jumladan, maxsus ekologik bilimlarni chuqurlashtirish ustida muntazam ishlashi lozim.

Shuningdek, ushbu fan, ta'lim va tarbiya jarayonining modernizatsiyalashayotgan davrida chuqur o'rganilayotganligi ham bo'lajak pedagog zimmasiga kasbiy tayyorgarligini jamiyat talablari darajasida ta'minlash vazifasini yuklaydi.

Oliy pedagogik ta'lim imkoniyatlari tufayli, har bir bo'lajak pedagog o'z bilimini chuqurlashtirish uchun mustaqil sur'atda, ekologiyaga doir so'ngi ma'lumotlardan samarali foydalana olishi mumkin. Bu jarayonning zamini, albatta, oliy maktabdagi axborot resurs markazlari faoliyati, kafedralar huzurida faoliyat olib borayotgan talabalar ilmiy to'garaklardagi ishtiroki, ustoz olimlarning bevosita rahbarligida o'zlashtirilgan maxsus bilimlar natijasida yaratiladi.

Bevosita yetuk professor-pedagoglarning "Ijtimoiy pedagogika"ni o'qitish jarayonidagi tavsiyalar, ilmiy asoslangan fikrlari asosida talabalar global ekologik muammolarning yurtimiz ekologik ahvoriga bevosita ta'sirini ilmiy axborotlar, turli maxsus ilmiy adabiyotlar, Internet ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalarining xabarlarini mustaqil tahlil qilish orqali ham bilib olishmoqda. Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarni ekologiyaga oid so'nggi ma'lumotlar bilan tanishtirish uchun muhim o'rin tutadigan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida mavjud bo'lgan ilmiy axborotlar markazi faoliyatini muttasil takomillashtirish hamda ta'lim jarayonida ilmiy axborotlardan unumli foydalanishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, zamonaviy oliy pedagogik ta'lim usullaridan foydalanilgan holda ijtimoiy pedagogikaning o'qitilishi talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi muhim manbalardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda mustaqillik yillari ekologik vaziyatni muqobillashtirish bo'yicha to'plangan boy tajribalar, hamda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, ayniqsa jonli tabiatni asrash bo'yicha, oliy pedagogik ta'limni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy fan vakillari ishtirokida to'plangan va ilmiy asoslangan xulosalar talabalar ekologik madaniyatini rivojlantiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Pedagog tadqiqotchilar va yetakchi ekolog olimlar tomonidan o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy qilish, insonning antropogen faoliyatini chegaralash yoki uni ilmiy asosda tashkil etishning samarali usullarini tadqiq qilish, ijobiy jihatlarini "Ijtimoiy pedagogika" fanida o'tiladigan dars jarayoniga kiritish talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.* //Xalq so'zi, 2014-yil, 6-dekabr.

2. Karimov I.A. *"Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish"* mavzusida xalqaro anjuman ishtirokchilariga. //Xalq so'zi, 2014-yil, 30-oktabr.

3. Karimov I.A. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutqi.* – T.: "O'zbekiston", 2011.

4. Aliqulova M.M. *Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishga ilmiy-ijodiy yondashuv asoslari. Uslubiy qo'llanma.* "T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI", – T.: 2015.

Jo'ra YO'LDASHEV,
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
p.f.d.

MUSTAQIL TA'LIM OLISH VA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini boshqarishda innovatsion yondashuvlar haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari, o'z-o'zini boshqarishning mazmun-mohiyati, ta'limni modernizatsiya qilishning prinsiplari, motivatsiyasi ilmiy dalillar bilan ochib bergan.

Kalit so'zlar. Mustaqil ta'lim, o'z-o'zini boshqarish, innovatsion didaktik yondashuv, modernizatsiya, motivatsiya, o'zlikni anglash, o'z-o'zini nazorat.

В статье рассмотрены инновационные подходы к самообразованию и самоуправлению учащихся. Автором раскрыты и научно обоснованы цели и задачи, сущность самоуправления, определены принципы модернизации образования, мотивации обучения.

Ключевые слова. Самообразование, самоуправление, инновационно-дидактический подход, модернизация, мотивация, самоопределение, самоконтроль, самооценка.

The article contains innovative approach to self study and self discipline. The basic direction of self study, it's objective and task, content, structure and meaning of self discipline, concepts of modernization of education, didactic approach to interest formation to education, scientific and pedagogical mechanism of activity formation.

Key words. Self study, self government, innovative didactic approach, modernization, motivation, energization, interest, breeding, self determination, self discipline, presentation, self assessment.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini izchil ta'minlash har doimgidek bugun ham ta'lim tizimidagi dolzarb vazifalardan. Bunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun yuksak salohiyatli kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum milliy dasturiga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablari, oliy ta'lim, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning yangi binolar barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, zamonaviy o'quv jihozlari, informatsion axborot texnologiyalari, Axborot resurs markazlarini tashkil etish, Ziyonet Internet tarmog'idan foydalanish ishlari poyoniga yetkazilmoqda.

Barcha qulayliklarga ega zamonaviy ta'lim maskanlariga mos ravishda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning faolligini oshirish, ularning aqliy faoliyatini va ichki imkoniyatlarini to'la ishga solishdan iborat. Ularning shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirish mustaqil ta'lim olish hamda o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan zamonaviy darslar tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Darsda talaba-o'quvchilarning xohish-istaklari, ehtiyojiga mos ravishda o'quv materiallari, topshiriqlar, didaktik tarqatma materiallar avvaldan tayyorlanadi. Shu materiallar asosida yakka, juft, kichik va katta guruhlar tuziladi. Belgilangan vaqt oralig'ida ularning o'zaro fikr almashishlariga, muloqot, munozara qilishlariga imkon yaratiladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama qiladilar. Olgan, o'rgangan bilim va ko'nikmalarini bir-birlariga tushuntirilib, ularda topqirlik, ziyraklik, ichki imkoniyatlarni ishga solishga, o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi.

Guruh a'zolari bir-birlaridan ilxomlanib aql-zakovatlarini ishga solib ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir-birlarini tushunib qiziqish orqali faollik paydo bo'lib, vaqt o'tganini ham bilmay qoladilar. Bunday holatda har bir guruh ishtirokchisi ta'lim mazmunini yoritishda o'zlarini mualliflardek his etadi. Dars so'ngida ular o'qigan, o'rgangan, o'zlashtirgan, bilgan ma'lumot, axborotlarni umumguruhlar oldida taqdimot etadi. Shu asosda ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadi. O'quvchi-talaba shaxsining mustaqil ta'lim olishi, o'z-o'zini boshqarishi, shakllanishi, rivojlanishi, o'zligini anglashi, o'zini boshqalar oldida namoyon qila olishi ta'lim-tarbiya ishlariga innovatsion yondasha olishiga bog'liqdir.

Biz quyida ta'lim-tarbiya jarayoni didaktikasiga innovatsion yondashuvlarni birma-bir sanab o'tamiz:

1. "Talabalarga faqat bilim beribgina qolmay, ularni mustaqil ta'lim olishini", "O'rgatish-o'qish", "O'zim o'qiymen, o'rganaman, o'zlashtiraman", "O'z-o'zini tarbiyalash", "O'z-o'zini diagnostikalash", "O'z-o'zini boshqarish" prinsiplariga rioya etish zarur.

2. Ta'lim jarayonini olib borishda "Subyekt-subyekt" holatni vujudga keltirish.

3. Ta'lim jarayonini optimallashtirish, motivatsiya, faollik, qiziqish, tarbiya topganlik muhitini vujudga keltirish.

4. O'qituvchi eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib, modulli, interfaol, innovatsiya, ilg'or kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish.

5. O'quv materiallarini o'qish, o'rganish, o'zlashtirish asosida Davlat ta'lim standartlariga rioya qilish.

6. Darsdan kutilayotgan pirovard natijalarni rejalashtirish, belgilash va unga to'la erishish.

7. O'quvchi o'z faoliyatini ongli ravishda yo'naltiradi, boshqaradi, anglaydi, o'z faoliyatiga subyekt sifatida qaraydi. Bu esa uni yanada ko'proq bilim olishga chorlaydi.

Ta'lim modelining markazida shaxsning shakllanishi, rivojlanishi turadi. Ta'lim jarayonining kelajak taraqqiyoti, istiqboli shaxsning qay darajada shakllanganligiga bevosita bog'liq. U, o'z navbatida, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini boshqara olishi bilan belgilanadi.

Shunday ekan mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikma, malakasini shakllanishi shaxsni ta'limga bo'lgan motivatsiyasi, qiziqishi, faolligi bilan kafolatlanadi.

Quyida ana shu ta'sirchan omillarning mazmun-mohiyati, vazifalari haqida fikr yuritiladi.

Mustaqil ta'lim olish o'z-o'zini boshqarishning ta'sirchan omili ta'lim jarayonini motivatsiyalashtirishdir.

O'quvchi-talabalarni kompententligini shakllantirish asosida samimiy, hamkorlik yuzaga chiqadi. Ta'limga tizimli yondashib, o'zaro faollikni vujudga keltirishga alohida etibor qaratish, ta'limni shaxsga yo'naltirish, unga refleksiv yondashuvni vujudga keltirish talab etiladi.

Talaba-o'quvchining mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini boshqarishga ta'sirchan omili bu faollikni oshirishdir.

Buyuk allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy “Ta'lim tizimini sifatli tashkil etish talabaning faolligiga bog'liq” deya ta'kidlagan. Shu o'rinda savol tug'iladi?

Faollik nima? Faollik nima uchun zarur? Ta'lim jarayonida faollik qanday shakllantiriladi?

Pedagogik ta'sir etishda tarbiyalanuvchi o'z harakati orqali o'zini komillik sari undaydi. Pedagogik ta'sir etishning bosh maqsadi ham shundan iboratki, ta'lim jarayonida talaba-o'quvchining faolligi oshadi.

Talaba-o'quvchining faolligi oshdimi, endi u tashqi olamni, fan asoslarini o'rgana boshlaydi, o'qigan, olgan bilimlaridan zavqlanadi. Har bir narsani ongli tushunib olishga moyillik sezadi. O'z fikrini, tutimini himoya qilishga kirishadi. Bu holat ularning o'zligini namoyish qilishga undaydi. Endi tashqi va ichki to'siqni yengish ko'nikmasiga erishadi, o'zining ichki imkoniyatlarini ishga sola boshlaydi. Ularda o'qigan, o'zlashtirgan bilimlarini boshqalar oldida taqdimot qila olish ko'nikma va malakasi shakllanadi. Bular o'quvchi-talabaning intellektual, ijtimoiy, kompententligining oshishiga olib keladi.

O'quvchilar bilan savol-javoblar, seminar-treninglar, munozara, davra suhbatlari, interfaol mashg'ulotlar, ilg'or informatsion pedagogik texnologiyalar uyushtirish va bularda innovatsiyalarni qo'llash talabalar faolligin oshiradi.

Shaxsni rivojlanishda eng muhim, ta'sirchan omillardan yana biri talaba-o'quvchini ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishdir. Ta'lim jarayonini qiziqarli tarzda olib borish, o'quvchi-talabalarda universal o'quv-biluv ko'nikmasining shakllanishiga olib keladi. Qiziqtirish talaba-o'quvchida emotsional holatini qo'zg'atadi. Ularni o'qishga, o'rganishga, bilishga bo'lgan munosabatini keskin ijobiy tomonga o'zgartiradi. Qiziqish shaxsni shakllantirishning provard natijasidir.

Ta'lim jarayonida qiziqish, bilim olishga intilishning alohida turidir. Shaxsda qiziqishni shakllantirish, uning faolligiga asos bo'ladi. Bu esa, shaxsni o'z pozitsiyasida sobit turishidan boshlanadi. Agar talaba-o'quvchilarning qiziqishi asosida ish yuritilsa, ularda biror narsani chuqur bilishga moyillik paydo bo'ladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonini olib borishdan avval mavzudagi eng qiziqarli, dolzarb tamonini rejalashtirishi kerak. Ya'ni har bir mashg'ulot o'quvchi-talabaga hayratlanarli bo'lsagina u esda qoladi. Bu o'rinda qiziqarli fakt, voqea, kutilmagan topilma, chiroyli tajriba, nostandart yangilik, ochilmalarni keltirish mumkin.

Darslarda qiziqarli savollar berish va muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yaxshi natija beradi.

Masalan:

- Shu to'g'rimi, siz nima deysiz?
- Nima uchun?
- Bu qayerdan vujudga kelgan?

– Buni qanday isbotlash mumkin?

– Buning sababi nimada kabi savollar mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, mashg'ulotlarni olib borishda muammoli savollarni o'rta tashlash va ularning yechimini birgalikda o'ylash, izlash, toppish orqali ham o'quvchi-talabalarni qiziqtirish mumkin.

Mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini boshqarishida ularning tarbiya topganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimini olib borishda o'qituvchi talabalarning shaxsini hurmat qilishi, kechirimli bo'lishi, tarbiya jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol qilib ulg'aytirish bugungi kunda har bir pedagog oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. Yuqorida bayon etilgan fikr, mulohazalarni amalga oshirishda o'quvchi-talablar tarbiya jarayonining subyektiga aylanadi. Ta'lim tarbiya jarayonida subyekt-subyekt muhitida hamkorlikda ish olib borsa, kutilgan samaraga erishish mumkin.

Quyida o'z-o'zini tarbiyalashning sxematik ilmiy yo'nalishlarini keltirish mumkin:

1.O'zlikni bilish: o'zini kuzatish, o'zini tahlil etish, o'z-o'ziga tanqidiy qarash, o'z-o'zini nazorat etish.

2.O'ziga munosabat: yo'nalishini aniqlash, o'ziga qadriyatli qarash, o'ziga talabchanlik, o'z-o'zicha fikrlash.

3.O'z-o'zini boshqara olish: o'zini his etish, o'z holati, o'zini tuta olish.

Yuqoridagi fikrlar asosida talaba-o'quvchi o'zini anglay boshlaydi, o'zida ishonch paydo bo'ladi. Mana shu davrdan boshlab o'zligini namoyon qilib, boshqa tengdoshlari va kattalar oldida tuta oladi. Bu esa, o'z navbatida, mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirish, tinimsiz mehnat qilish, izlanish ishtiyoqini yuzaga keltiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchi-talabalar tizimli ravishda mustaqil ta'lim olib o'zlarini boshqara olsalar ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat engilmas kuch*. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Axliddinov R. *"Maktabni boshqarish san'ati"*. – T.: "Fan", 2006.
3. Yo'ldoshev J. va b., *"Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash"*. – T.: "Fan va texnologiya", 2011.
4. Xodiyev B.YU., Golish L. *"Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari"* – T., 2006.
5. Морозов А., Чернилевский Б. *"Креативная педагогика и психология"*. – М., 2004.

Gulnoza QARSHIBOYEVA,
Jizzax DPI o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA FAN TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarda fan tushunchalarini shakllantirish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif ilmiy bilishning paydo bo'lishi haqidagi tushunchalarni bayon qilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs xususiyatlari, bilish jarayonlari, tushunchalar, esda saqlash, nazariya va amaliyot, fan asoslari, aqliy qobiliyat, fiziologik sifatlar.

В данной статье изложены мнения о формировании научных понятий у учащихся общеобразовательных школ, развитии их мыслительных способностей. Автором раскрыто понятие о зарождении научного познания.

Ключевые слова. Особенности личности, познавательный процесс, понятие, запоминание, теория и практика, основы науки, умственные способности, физиологические качества.

This article represents opinions about developing subject concepts of the students of comprehensive school, increasing of intellective abilities of pupils, as well as appearance of scientific cognition.

Key words. Systematic knowledge, personal qualities, cognitive activity, concepts, mental abilities, theory and practice, basis of subject, intellective ability, physiological qualities.

Bugungi kunda o'quv fanlari oldiga bir qator yangi talablar qo'yilmoqda. Ta'lim shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. O'quvchi shaxsida axloqiy me'yorlar va eng muhim hayotiy talablarga rioya qilish ko'nikmasining tarkib topishida o'quv fanlari mazmuni muhim o'rin egallaydi. Jamiyatning hozirgi bosqichida ta'lim tizimining mazmuni, uning ilm-fan yutuqlarini o'zida ifodalaganligi o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, yoshlarning milliy o'zligi, e'tiqodi va bilimdonligini shakllantirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni uyg'un rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, millatlararo madaniy muloqot ko'nikmalarini tarkib toptirish, tolerantlik tuyg'ularini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'qitish – pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fan asoslaridan sistemalashtirilgan bilimlarni amalda qo'llanishi bo'yicha mahorat va malakalarni oladilar. O'qitish – ikki tomonlama jarayon bo'lib, u o'zida o'qituvchining faoliyatini (o'qitishni) va o'quvchilar faoliyatlarini (o'rganishni) mujassamlashtiradi.

Umumiy ta'lim olish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash hisoblanadi.

O'qituvchilarga o'quv jarayonini to'g'ri, ilmiy tashkil etish uchun chuqur bilimlar zarur bo'lib qolmay, balki bilimlarni o'zlashtirishning umumiy psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni, fikrlashni o'stirishni ham bilishi zarur. O'qitishda tarbiyaviy masalalarni muvaffaqiyatli hal etish shaxs shakllanishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishi individual, iroda va his-tuyg'u sifatlarini, bilim faoliyati va aqliy rivojlanish xususiyatlarini bilishni talab etadi.

O'qish jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchi shaxs psixik rivojlanishining zamonaviy konsepsiyasini bilishi muhim ahamiyatga ega. Shaxsning psixologik xususiyati, muhit, o'qitish va tarbiya ta'sirining mahsulotidan iborat, deb hisoblaydi.

O'quv tarbiyaviy ishda yosh xususiyatga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarni hisobga olish o'qituvchiga o'qitishning har bir bosqichida o'quvchilarga ta'sir etadigan shunday pedagogik metoddan foydalanishga imkon beradiki, bular shu yoshdagi o'quvchilarning imkoniyatlari va talablariga mos kelishi kerak. Bunda, bolalarning individual farqlarini, aqliy rivojlanish darajasini, psixologik faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aqliy rivojlanish bola ongida nima aks etishi va aks etish qanday sodir bo'lishi bilan harakterlanadi.

Aqliy rivojlanishning mezoni sifatida psixologlar quydagilarni taklif etadilar:

- materialni o'zlashtirish tezligi yoki qabul etish tempi;
- mulohazalar soni bilan aniqlanadigan fikrlashning torligi, bular asosida o'quvchilar o'zlariga yangi qonuniyatlarni ajratib olishi;
- analitik-sintetik faoliyatning darajasi;
- bir obyekttni o'rganish asosida boshqa obyektga shakllantirilgan aqliy faoliyatni ko'chirish usullari;
- olingan bilimlarni mustaqil sistemalashtirish va umumlashtirishni bilish.

Har qanday predmetni o'qitishni shunday olib borish kerakki, bunda u o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga maksimal yordam bersin. Aqliy rivojlanishning belgilarini bilish o'qituvchiga, bir tomondan, o'qitishning bunday metod va usullarini tanlab amalga oshirishga imkon beradi, ular ko'rsatilgan usullarga mos keluvchi fikrlash sifatlarini o'quvchilarda hosil qilishga maksimal ta'sir etadi. Ikkinchi tomondan o'quvchilar aqliy qobiliyatlarining rivojlanishi bo'yicha o'z faoliyatlarining natijalarini tekshirish va baholashga imkon beradi.

O'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchining ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini maqsadli yo'naltirish har bir pedagogdan katta tajribani, ilmiy salohiyatni qolaversa ijodkorlikni talab qiladi. Demak, talabaning ilmiy-ijodiy fikrlash faoliyatini o'stirish yo'lida har bir darsni shunchaki dars o'tayapman deb emas, balki bizning kelajagimiz, millatimiz ravnaqi, jamiyatimizning davomchisi bo'lgan yosh avlodni yuksak salohiyatli yetuk mutaxassis qilib tayyorlash lozim.

Ma'lumki, ta'lim metodlarining muayyan pedagogik sharoitga mos uyg'unligini ta'minlash ta'lim sifatini ko'tarish omillaridan biri hisoblanadi. Talaba egallashi zarur bo'lgan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi, dars jarayonida o'qituvch-o'quvchi hamkorligi hamda maqsadning yagonaligi o'quvchilarda bilim darajasining yetarli bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarga berayotgan bilim darajasini yetarli

ekanligi, o'quvchining o'qituvchi o'tayotgan mavzularni puxta egallashi va boshqa shart-sharoitlar dars samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Dars jarayonlarini tashkil etish va yo'naltirishda o'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini darajalay olishi lozim bo'ladi. Bunda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyati dars jarayonida ko'zga tashlanib boradi.

O'qituvchining vazifasi o'z o'quvchilarida oliy motivlarni – sosial va ma'naviy shakllantirish ya'ni “jamiyatga foydali bo'lish” uchun bilimlarni olish zarurligi ishonchini tarbiyalash, predmetni o'rganishda bilishga qiziqish hissini ularni tarbiyalashdan iborat. O'qiyotgan ko'pchilik o'quvchilarda bilishga qiziqishlar uyg'ota olingan va rivojlantirilgan bo'lsagina, o'qitish jarayoni muvaffaqiyatliroq o'tadi. Bu holda bilishga qiziqish – ko'p bilishga intilish – o'quvchining yetaklovchi motivlaridan biriga aylanadi. Bilishga qiziqish muammosi pedagoglar diqqatini anchadan beri o'ziga tortgani tasodifiy ravishda bo'lgan emas.

Fan asoslarini o'qitish shu fan asosiy tushunchalar sistemasini o'quvchilarda shakllantirishni, uning asosiy qonun va nazariyalari, shuningdek, ilmiy tekshirish metodlari haqidagi bilimlarni bilan ularni qurollantirishni o'z ichiga oladi.

O'quv jarayonida tushunchalarni shakllantirish o'quvchilar fikrlashini o'stirishda, ilmiy dunyoqarashini hosil etishda muhim rol o'ynaydi.

“Umumiy psixologiya”, “darsligida tushuncha”, butun borliqdagi predmet yoki hodisalarning umumiy, muhim va bir-biridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarini aks ettiradigan fikr sifatida aniqlanadi.

Fanda tushunchalarning hosil bo'lishi bilish jarayonining tarixiy natijasidir. Fan rivojlanishining bosqichida paydo bo'lgan tushuncha o'zgarmas bo'lib, hodisalar va haqiqiy borliqdagi predmetlar haqidagi bilimlar kengaygan sari tushunchalarining rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu rivojlanish turlicha bo'ladi:

- ilgari tushunchalar aniqlanadi va boyitiladi;
- tushunchalar ilmiy munosabatda ishonarli bo'lmagani uchun tashlab yuboriladi;
- ilmiy bilishning rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar paydo bo'ladi, bu

hodisalar va predmetlar orasida yanada chuqurroq bog'lanishlar borligini, moddalar mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borishini bildiradi.

Ayrim tushunchaning paydo bo'lishi fan rivojlanishining ma'lum bosqichida hal etuvchi rolni o'ynaydi. Ular orasida yangi ilmiy nazariyalar va sistemalar vujudga keladi.

Tushunchalarning rivojlanishida tabiat va jamiyat hodisalarini har tomonlama tekshirishning umumiy masalalari bilan bog'liq bo'lgan turli fanlar tushunchalarining o'zaro murakkab bog'liqligi katta ahamiyatga ega.

Umumlashgan nazariy fikrlarning natijasi sifatida tushuncha kelajakdagi bilishning vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quv bilishda tushuncha o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida egallaydigan ilmiy bilimlar sistemasining elementi asosida paydo bo'ladi. O'qish jarayonida ilmiy tekshirish ishlarida va kishilarning amaliy faoliyatlaridan keng foydalaniladigan, fanda qat'iy tasdiqlangan va qabul qilingan tushunchalarni maktab o'quvchilarida shakllantiriladi.

O'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda o'quvchilar asta-sekin tushunchalarning mazmunini to'liq egallashga harakat qiladilar. Bu jarayonda xuddi ilmiy bilishdagi singari tushunchalarining rivojlanishi – ularning bo'yishi, ushbu tushunchaning boshqalari bilan yangidan-

yangi bog'lanishlarning o'rnatilishi sodir bo'ladi. Bu rivojlanish murakkab dialektik harakterga ega.

Tushunchalarning manbalari:

- o'quvchilarning hayotiy tarjibalari, ularning kundalik kuzatishlari va shular asosida hosil bo'ladigan tasavvurlari;

- o'qituvchi fan asoslarini o'rganish jarayonida maqsadga muvofiq holda tushunchalarni shakllantirish;

- boshqa predmetlarni o'rganish natijasida ayrim tushunchalarni shakllantirish;

- ilmiy-ommabop adabiyotni o'qish, filmlar va televideniyni ko'rish, radioni eshitish, boshqa axborot manbalarining ta'sirlari natijasida tushunchalarning o'z-o'zidan shakllanishi paydo bo'ladi.

Mazkur manbalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalanish va tushunchalarni o'zlashtirish uchun hosil bo'ladigan xatoliklarining oldini olish uchun tushunchalarni shakllantirishni hisobga olish zarur. O'qituvchi hayotiy tarjiba, kundalik kuzatish asosida fan asoslarini o'rganishga qadar o'quvchilarda hosil bo'lgan "fangacha" tasavvurlarini bilishi muhim ahamiyatga ega. Ular tushunchalarning shakllanishida ikki yoqlama rol o'ynaydi. Agar "fangacha" tasavvurlar ilmiy tushunchalar mazmuni bilan qarama-qarshi bo'lsa va o'qituvchi bunga o'z vaqtida e'tibor bermagan bo'lsa, ular o'quvchilarda ilmiy tushunchalarning shakllanish jarayonini sekinlashtiradi. Agar "fangacha" tasavvurlar ilmiy tushunchalarga qarama-qarshi kelmasa, mos tushunchalarning shakllanishida ularga tayanib ish ko'rish kerak.

O'quvchilarning fan tushunchalarni o'zlashtirishlarida quyidagi tipik xatolar kuza-tiladi:

- o'quvchilar tushunchalarni belgilaydigan terminlarni ishlatadilar, ammo tushunchaning mazmunini (uning muhim belgilarini ko'rsatishni), uning muhim belgilari bo'lmaganlaridan ajratishni bilmaydilar;

- tushunchalarning umumiy belgilari ko'nikma belgilari bilan adashtiradi;

- tushunchalar orasidagi bog'lanish va munosabatlarni yomon o'zlashtiradilar (hammadan avval qaram va tobe munosabatlarni);

- tushunchalarni klassifikatsiya qilishni bilmaydilar, klassifikatsiyalash asosida qo'yish mumkin bo'lgan muhim belgilarni tanlashda to'la o'zlik qiladilar.

Tushunchalarni o'zlashtirishdagi ko'rsatilgan kamchiliklarning mavjudligi shunga olib keladiki, o'quvchilar tushunchalar bilan muomala qilishga, har xil ko'rinishdagi o'quv va amaliy masalalarni hal etishga qiynaladilar.

O'quvchilarning tushunchalarni o'zlashtirishdagi ko'rsatilgan kamchiliklarning paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri o'qituvchining tushunchalarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, o'quvchilar ularni o'zlashtirib olishlariga imkon beradigan shakllantirish usullarini, sharoitlarini va bu jarayonlar bo'ysunadigan qonuniyatlarini bilmasligi hisoblanadi. Ayrim hollarda o'qituvchilar o'quvchilar tushunchani o'zlashtirib olish va uni amalda qo'llashlari uchun tushunchaga ta'rif berish yetarli deb o'ylaydilar. Ammo tushunchani ta'riflash abstrakt tushuncha bo'lish bilan tugallanadigan uning shakllanishining faqat boshlang'ich bosqichlaridan biri bo'ladi.

Tushunchalarni egallash bilan birga o'quvchilarda tushunchalar bilan muomala qilish o'quvini shakllantirishni, ularni o'quv-bilish va amaliy masalalarni hal etishga qo'llashni mo'ljallaydi. Shuning uchun bu jarayon o'quvchilarning aktiv fikrlash faoliyatini talab etadi.

O'quvchilarning predmetni bilishga qiziqishlarini qo'llash va rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlari sistemasida o'quvchilarni doimiy ijodiy aqliy ishga, yangi bilimlarni olishdagina emas, shu bilan birga bilishga oid mahoratlarini takomillashtirishda, ilmiy tekshirish metodlarini, kuzatishni, eksperimentni, xayoliy modelashtirish usulini, gipotezalar va boshqalarni egallashda oldinga siljishga undaydigan sharoitni yaratish zarur. Shu bois, o'quvchilarda umumlashgan bilish mahoratlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini aniqlaydigan muhim isbot o'qituvchining shaxsiyati hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilarning predmetga bo'lgan munosabati uning qanchalik qiziqarli o'qitilishiga bog'liq. Agar maktabda o'z kasbini yaxshi ko'radigan o'qituvchi ishlasa, bu fanga ko'pchilik o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi. O'quvchining shaxsiy sifatleri aniq namoyon bo'ladigan uning darsdagi faoliyati va o'qituvchi tashkil etgan o'quvchilarning bilim olish faoliyatlari maktab o'quvchilarida darsga qiziqish paydo bo'lishining asosiy manbalari hisoblanadi.

O'quvchilar uchun o'qituvchining tutgan o'rni ham, uning ishonchi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining o'zini tutishda, darsda tarixiy tajribani, ayrim omillarning faoliyatini, hozirgi voqealarni, o'quvchilarning o'z vazifalariga nisbatan xulq va muammolarini baholashda ifodalanadi.

O'quvchilarda tushunchalar hosil qilish turli usullar bilan amalga oshiriladi. U yoki bu tushunchani shakllantirish usuli, shakllanish bosqichlari ketma-ketligining almashinishi, o'quvchilarning tarjiba va bilimlarining hajmiga bog'liq holda aniqlaniladi. Ayrim hollarda tushunchaning shakllanishi o'quvchilarga ularning kundalik tarjibasidan ma'lum bo'lgan fakt va hodisalarni tahlil qilishdan boshlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крутетский В. А. Психология обучения и воспитания школьника. – М., “Просвещение”, 1976.– С.36.
2. Ковалёв А. Г. Психология личности, – М., “Просвещение”, 1970.
3. Усова А. В., Вологодская З. А. Самостоятельная работа учащихся по физике в средней школе. – М., “Просвещение”, 1981.

Qahhor TURSUNOV,
Qarshi MII dotsenti,
Nodira NORMAMATOVA,
Qarshi DU o'qituvchisi

DARSLIK TUZILISHIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY METODIK TALABLAR

(Fizika darsligi misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada darsliklarni yaratishning metodologik va metodik jihatlarini ilmiy tamoyillar asosida tahlil qilib berilgan. Shuningdek, tabiiy-ilmiy fanlar, xususan fizika darsliklari yaratilishi misolida o'quv adabiyotlar va darsliklarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Darslik, o'quv qo'llanma, ilmiylik tamoyil, olamning fizik manzarasi, qonun va qonuniyatlar, ilmiy tushunchalar, terminlar, tabaqalashtirish, individuallashtirish.

В этой статье с научной точки зрения проанализированы методологические и методические аспекты создания учебника. В связи с этим освещены цели и задачи учебника по естественно-научным дисциплинам, в частности, на примере физики в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова. Учебник, учебное пособие, научная точка зрения, физическое восприятие окружающего мира, закон и закономерности, научные понятия, терминология, дифференцирование, индивидуальность.

In this article methodic and methodological aspects of textbook evaluation are scientifically analyzed. Moreover, the role of textbooks and handbooks in educational process is pointed out with an example of nature-science subjects, respectively physics.

Key words. Textbook, handbook, scientific aspect, physical appearance of the world, law, scientific terms, terms, individualization and level tuning.

Darslikning metodik tuzilishi ta'limning maqsadi va vazifalariga, uning didaktik tamoyillariga mos bo'lishi kerak. Darslik bilimlar majmui sifatida o'quv fani mazmunini aks ettiribgina qolmay, bilimlarni o'zlashtirish darajasini va tushuntirish metodlarini ham aks ettirishi zarur. Zero o'quv adabiyotlardan darslikga quydagicha ta'rif berilib, uning vazifasi yaqqol ko'rsatib berilgan:

Darslik – o'quv fani dasturiga mos bilimlarning muntazam bayoniga ega bo'lgan va rasman tasdiqlangan o'quv kitobdir.

Darslikning vazifalari – oliy ma'lumotli, jamiyatning barkamol va faol quruvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.


Darsliklarning mazmuni ijtimoiy-siyosiy hayotda hamda ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi talablariga javob berishi, o'quvchilarni fan asoslari bo'yicha

chuqur va puxta bilim olishlarini ta'minlashi lozim. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishga, baynalmilallik, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, darslik o'quvchilarning darsda va uy vazifalarini bajarishda foydalanishga mo'ljallangan asosiy o'quv kitobidir. O'quvchilarning o'zlashtirishi shart bo'lgan, bilimlarni dasturga mos holda o'rganish mantiqi va ketma-ketligi darslikda belgilanadi. Unda o'quvchilar o'rganadigan hamma faktlar, tushunchalar, xulosa va nazariyalarning mazmuni bayon qilinadi. Zarur bilim va malakalarni amalda, qo'llashini ta'minlaydigan topshiriq va mashqlar tizimi darslikda mujassam bo'lishi lozim. Ilmiy tushuncha va qonunlarning mazmunini ochib berish darajasi psixologiya, didaktika va xususiy metodikalar talablari asosida aniqlanadi.

Darslikda qo'llanadigan atamalar, tushunchalarning ta'riflari, qonunlarning ifodalari, hodisalarning izohlari fanda va amalda qabul qilingan talablarga mos bo'lishi lozim. Darslikning mazmunini belgilashda jamiyatning ehtiyojlari, ta'lim oluvchilarning hayot tajribasi, fanning ichki mantiqi, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari va qiziqishlari, o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, darsliklardagi ta'rif, qonun, qoida, tamoyil, taxmin, aksioma, eksperiment, ilmiy fakt, nazariya, konsepsiya, fan uslublari, jarayon kabi umum ilmiy atamalarning mazmuniga aniqlik kiritilishi zarur.

Bundan tashqari, o'quvchilarga hissiy ta'sir ko'rsatishga, fizikani bilishga, qiziqishini shakllantirishga mo'ljallangan materialning mavjudligi, masalan, tarixiy ma'lumotlar, fizika qonunlarning tabiatda, atrof-turmushda namoyon bo'lishiga misollar, fizikadan qiziqarli tajribalar, bilish tavsifdagi masalalar, bilish va tarbiyalash ahamiyatiga ega rasm va fotosuratlardan foydalanilgan masalalar, fiziklar faoliyati haqidagi hikoyalar, yondosh fanlar bo'yicha tadqiqot sohasiga oid misollar (masalan, dengiz chuqurliklari, atmosfera, geografik kashfiyotlar va shu kabi ma'lumotlar) hamda texnika yutuqlari haqidagi hikoyalar berilishi lozim.

1-rasm



Darslikdagi materiallar mazmuni o'quv fanining umumiy ta'limdagi vazifalari bilan belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun materiallar yetarli bo'lishi, fanning asosiy mazmunini yoritish va o'zlashtirish uchun yordamchi materiallar berilishi ta'limning butun mazmuni bo'yicha o'quvchilarning tasavvurlarini shakllantirish maqsadida mazkur fanni boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash tadbirlari belgilanishi kerak. Fanlararo

bog'lanish mavzu, bo'lim, kurslar mazmuni ichida amalga oshirilishi, fan kontekstidan ajratilgan holda belgilanmasligi lozim. Chunki fanlararo bog'lanish yagona maqsad bo'lmay, balki o'zlashtirilayotgan bilimlar va faoliyat usullarini chuqur o'rgatishning shartidir. Darslikning yetakchi komponenti matndir. Darslik matni o'quv materialining mazmunini dasturga mos holda ochib berilishi kerak. Darslikda matnlar asosiy, qo'shimcha va tushuntiruvchi turlarga bo'linadi.

Darslikning asosiy matni metodik jihatdan ishlangan va muallif tomonidan dasturga qat'iy rioya qilingan holda muntazamlashtirilgan o'quv materiallaridan iborat bo'lishi kerak. U o'quvchilarning o'rganish va o'zlashtirish uchun majburiy bo'lgan o'quv axborotining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, g'oyaviy va axloqiy pozitsiya eltuvchisi hisoblanadi, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi bo'ladi.

Masalan, 7-sinf fizika darsligidagi "Harakat va kuchlar" mavzusi orqali "massa", "inersiya" va "kuch" kabi tushunchalarning yoritilishi. Bu tushunchalardan foydalanib, molekullarning massasi va ular orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari to'g'risidagi ma'lumotlar, undan so'ng moddaning agregat holatlari va ular orasidagi farq, shu asosda moddaning zichligini molekullar soni orqali ifodalash mumkinligi ko'rsatiladi, hamda gaz bosimining mexanizmi kabi mavzular ketma-ket bog'lanadi.

Qo'shimcha matnlar asosiy matnni mustahkamlash va chuqurlashtirishi, uning ilmiy isbotlashlanishi va yorqin ifodalanishini kuchaytirishga xizmat qilishi, o'quvchilarni ilmiy bilish usullari bilan fan yutuqlarining inson hayotida qo'llanishi bilan tanishtirish kerak. Qo'shimcha matnlarga hujjatli va xrestomatik materiallar, fan va texnika tarixidan zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlar haqidagi ma'lumotlar, ma'lumotnoma materiallari taalluqlidir.

Darslikka mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltiruvchi, fizika fanining ishlab chiqarish talablariga bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatuvchi, ba'zi kasblar bilan hozirgi zamon ishlab chiqarish xodimlarni o'qitish, ma'naviy va amaliy tayyorlashga qo'yadigan talablari bilan tanishtiruvchi materiallar kiritilishi lozim.

Ko'p yillik olib borilgan ilmiy tatqiqot ishlar natijasi va pedagogik tajribalar taqozosiga ko'ra, fizika darsliklari strukturasida quyidagilarga e'tibor berish lozimligini ta'kidlamogchimiz.

Birinchidan: darslik ilmiylik tamoyiliga asoslangan bo'lib, olamning ilmiy fizik manzarasini yoritishi kerak. U quyidagilarni o'zida aks ettirishi lozim:

- qonun va qonuniyatlar;
- ilmiy nazariyalar;
- ilmiy yo'riqnomalar;
- ilmiy farazlar;
- ilmiy tushunchalar;
- ilmiy terminlar.

Ikkinchidan: darslik tabiiy-ilmiy bilimlarni egallashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Uchunchidan: tipologik yondashilgan bo'lishi lozim.

To'rtinchidan: o'quvchilarning mustaqil bilim egallashlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Beshinchidan: materialni muammoli bayon qilishga qaratilishi kerak.

Oltinchidan: ilmiylik va tushunarlilik orasidagi nomutanosiblikni bartaraf qilishi, ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirishi lozim.


Hozirgi vaqtda respublikamiz ta'lim tizimidagi asosiy kamchiliklardan biri fizika o'qitishda mintaqaviy va milliylikning o'ziga xosligi, shuningdek, ta'lim oluvchilar shaxsining individual xususiyatlari etiborga olinmaganligidir.

Bundan tashqari, darsliklarning kamchiligini aniqlashdan ko'zda tutiladigan maqsad uning ta'lim jarayonini yaxshilashga, takomillashtirishga qay darajada ta'sir ko'rsatishi va o'qituvchi hamda o'quvchining darslik bilan ishlashiga yordam berishidan iboratdir. Chunki darslik yaratish nazariyasi ayni vaqtda muayyan darajadagi ta'lim nazariyasi hamdir. To'laqonli darsliklar axborot modelining majmuidan iborat bo'lib, bu model pedagogik tizimning o'qituvchi-darslik-o'quv jarayoni-o'quvchidan iborat uchta muhim tarkibiy qismni aks ettiradi va ularni amaliyotga tadbiq etishga imkon beradi.

Darslik tuzilishi tizimida pedagogik funksiyalarni amalga oshirishda quyidagi komponentlar asosiy rol o'ynaydi:

- umum ta'lim funksiya;
- tarbiyalovchi funksiya;
- rivojlantiruvchi funksiya;

2-rasm



Fizikani o'qitishda pedagogik funksiyalarning vazifalari:

Ta'limiy funksiya – ta'lim oluvchilarning fizika fanining asoslarini egallash va olgan bilimlarini hayotga qo'llay olish ko'nikmasini ta'minlaydi.

Rivojlanish funksiyasi – ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatini o'stirishni, mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirishni, kun sayin o'sib borayotgan axborotlar orasidan muhimini ajratib ola bilish qobiliyatini hosil qilishni ta'minlaydi. Aniq fikrlashni ta'minlaydi, asta-sekinlik bilan o'sib o'tishga imkon yaratadi.

Tarbiyaviy funksiya – o'quv-tarbiya ishining uzviy bog'liqligi hamma vaqt birligidan kelib chiqadi. O'qish orqali yosh avlod o'zi o'sib ulg'ayotgan jamiyat g'oyasini, siyosatini ijtimoiy tajribasini o'rganadi. O'qituvchi o'z predmetini o'qitish orqali jamiyat buyurtmasini bajaradi. Kelajak avlodga tarbiyalangan, g'oyaviy yetuk insonni ulg'aytirib

beradi, yoshlarni dialektik-materialistik dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishda katta hissa qo'shadi. Ta'lim oluvchilarning dunyoqarashini to'g'ri tarkib topishiga, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy kamolotiga o'z hissasini qo'shadi.

Fizikani o'qitish jarayoni o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liq va izchil ketma-ketlik asosida fizika asoslarini kelajak avlod ongida dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantirishdan olingan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilishdan, kuzatuvchanlik, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan, g'oyaviy-ahloqiy kamolotga yo'llashdan va umumiy mehnat ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.


Shuningdek:

- fizika ta'limini maqsadini asoslash;
- fizika kursining mazmunini va tuzilishini aniqlash hamda tizimli takomillashtirib borish;
- o'qitishning o'quv-tarbiya jarayonidagi samarali uslublarini ishlab chiqib va uni amalda sinab ko'rish hamda o'qitish jarayoniga singdirish;
- zamonaviy o'quv texnika vositalari, axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- boshqa o'quv jarayoniga keng qo'llash;
- zamonaviy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.

Bu vazifalardan fizika o'qitish metodikasi fizika o'qitish nazariyasini takomillashtirishi, uning muhim qonuniyatlarini tadqiq etish, fizika asoslarini ta'lim oluvchilarda shakllantirish yo'llarini, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va kamolotga yo'llashning samarali usullarini izlash bilan shug'ullanadi deb tushunmoq kerak. Boshqacha aytganda fizika didaktikasi fizikadan ta'lim berish jarayonida, ta'lim oluvchilarning bilim olishi, tarbiyalanishi va kamolot sari intilishini ta'minlash vositalari, yo'llari va qonuniyatlarini tadqiq etuvchi pedagogik fandır.

Bundan tashqari, darsliklarning yangi avlodi yaratilishida qo'yiladigan talablar amaldagi maktab darsligiga umumiy talablarini qanoatlantirishi kerak. Jumladan fizika fanidan yaratilayotgan darsliklarning amaldagi darsliklardan prinsipial farqlarini 3-rasmda keltirib o'tamiz.

3-rasm



Yangi darslik amaldagi darslikdan muhim farq qilishi, o'qitish jarayoniga yangicha didaktik yondashishdan yoki mazkur o'quv kursini o'rganishning yangi metodik qo'llardan foydalanishni talab qilishi kerak.

Yangi darslik muallifi darslik qo'lyozmasi bilan birga unga asos bo'lgan konsepsiyani qarab chiqishga taqdim etish lozim. Muallif konsepsiyasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak. Muallif sinov darsligini yaratishda o'z oldiga qanday maqsad qo'ygan, eksperimental darslik amaldagi darslikdan nimasi bilan farq qiladi va o'qitish metodikasida sinov darsligi bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun tavsiya qilinayotgan amaldagi metodik qo'llanmalarga nisbatan qanday o'zgarishlar zarur. Mazkur darslikni qo'llab, amaldagi darslikdan foydalanganligiga qaraganda, o'qitish va tarbiyalashning qanday vazifalarini yanada muvaffaqiyatliroq hal qilish mo'ljallanganini, o'qitish sifatining o'zgarishi nimada ifodalanishini ko'rsatish kerak.

Muallifning konsepsiyasida yangi darslikdan amaldagi o'qitish vositalari tizimida foydalanish nazarda tutiladimi yoki sinov darsligini muvaffaqiyatli qo'llash uchun mazkur o'quv kursi bo'yicha o'qitish vositalari tizimi elementlarini to'la yoki qisman almashtirish zarur bo'lishi aniq ko'rsatilishi kerak.

Agar yangi darslik mazkur o'quv kursi bo'yicha amaldagi o'qitish vositalari tizimi bilan to'liq muvofiqlashtirilgan bo'lsa, u holda darslik faqat u bilan birga barcha zarur didaktik materiallari va boshqa o'qitish vositalari, pedagog uchun metodik ishlanmalar, ya'ni butun o'quv-metodik majmua taqdim qilingan holdagina umumiy o'rta ta'lim maktabida tekshirish uchun qabul qilinadi.

Maktab fizika darsligi o'qitishning texnik vositasi sifatida o'quvchining, ya'ni o'z iste'molchisining imkoniyatlarini hisobga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev D.Sh., Mirzaaxmedov B., Mahmudov Yu. *Maktab fizika darsliklarini yaratish mezonlari* –T.: 1994.

2. Мултановский В. В. *Проблема теоретических обобщений в курсе физики средних школ.* – Автореф. дис. док. пед. Наук –М., 1977. – Т – С. 44.

3. Мултановский В.В. *Формирование мышления учащихся при изучении физических теорий.* // *Физика в школе.*– М., 1976 – С. 5-8.

4. Ефименко В. Ф. *Физическая картина мира и мировоззрение.* – Владивосток: “Дальневост”, 1997.–С. 160.

Ilxom NAZAROV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi,

Salohiddin BOBODJONOV,

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi,

Mirabbos PAYOZOV

Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qitishning mustaqil ta'lim shakli haqida fikr yuritilib, buning negizida masofaviy ta'limga e'tibor va talab oshganligi turli yo'nalishlar misolida qarab o'tilgandir. Bundan tashqari dasturiy vositalardan foydalanib, masofaviy ta'lim elementini tashkil etishda operatsion tizimlar roli va ular haqida ma'lumot beruvchi CPU-Z dasturi haqida qisman ma'lumotlar va ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar. Masofaviy ta'lim, dasturiy vositalar, operatsion tizim, axborot texnologiyalar, diagnostika.

В данной статье рассмотрена самостоятельная деятельность образования, при этом особое внимание уделено дистанционному обучению. Также приведены примеры работы на программе СПУ-3 с использованием пакета прикладных программ и операционных систем.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, пакет прикладных программ, операционные системы, информационные технологии, диагностика.

In given article independent activity of formation, thus special attention is considered is given remote training. Besides in article reduction work examples on program CPU-Z with use of a package of applied programs and operational systems.

Key words. Distance learning software package, operating systems, information technology, diagnostics.

Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli va ko'p o'lchamli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir". Ushbu vazifalarni hal etish uchun ta'limning yangi: o'quvchi – predmet axborot muhiti, ayniqsa mustaqil ta'lim elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogikada ommaviylashib borayotgan ta'lim shakllaridan biri mustaqil ta'lim bo'lib, u bugungi kunning dolzarb muammolari va ularni yechimlari bilan

bog'liq bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim asosida ta'lim sohasining har bir jabhalarida bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Chunonchi, amalga oshirilib kelinishi mo'ljallangan va buning natijasida turli xil maqolalar, taqdimotlar, ovozi eshittirishlar, ONLAYN ko'rsatuvlar tayyorlanishini aytish mumkindir.

Oliy ta'limda mashg'ulotlarni mustaqil tarzda o'zlashtirish masalasiga katta ahamiyat qaratilib, buning negizida masofaviy ta'limga e'tibor va talab oshganligi davr talabiga aylanib ulgurdi. Masofaviy ta'lim pedagogik texnologiyalarning bir qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya, meditsina, san'at va sport sohalariga tobora kirib bormoqda. Yaqin vaqtlargacha masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, ochiq ta'lim va hokazolar kabi tushunchalar deyarli bir-biridan ajratilmas edi. Biroq hozirgi vaqtga kelib, masofaviy ta'lim MT o'z ahamiyati va zarurligini isbotladi.

Masofali o'qitish - o'qituvchi bilan o'quvchi ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. Bu dars jarayonini:

- kompyuterlar;
- sun'iy yo'ldosh aloqasi;
- kabel televideniyesi kabi vositalar asosida tashkil qilishni talab etadi.


Zamonaviy kompyuter uzatish kanallarining rivojlanishi telekommunikatsiya sohasida o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Hozirgi kunda respublikamizning turg'un o'qish (yoki malaka oshirish) imkoniyati bo'lmagan kishilariga imkoniyat yaratib berish dolzarb vazifalardan biridir.

Jumladan, sportning har qanday turida shug'ullanuvchi sportchilarning sport maydonchalaridan tashqarida turib, o'sha yerda bo'ladigan yoki bo'lib o'tgan o'quv-yig'in tayyorgarlik mashg'ulotlarini ayni o'sha vaqtda yoki takroran istalgan vaqtda o'zlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Buning natijasida sportchilarning ko'zlangan ko'rsatkichlarga erisha olishlari va ko'zlangan maqsad sari dadil qadam tashlashlariga zamin yaratildi. Bunday axborot texnologiyalar sohasidagi yangi zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish, shubhasiz katta samara beradi.

Bir necha dasturiy vositalardan foydalanib, masofaviy ta'lim elementini tashkil etish mumkindir. Ularning yakuniy natijalari ham har xil ko'rinish (dizayn) kasb etadi. Masalan, boshlang'ich davrda mashg'ulotlar jarayonida HTML va CSS dasturlarini birgalikda qo'llash asosida Web sahifalar yaratilsa, keyinchalik PHP va MySQL dasturlarini qo'llash asosida matnli va video tasmali yozuvlarni yaratilgan Web sahifalarga joylashtirish va ulardan maqsadli foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Axborot texnologiyalar sohasining dasturlash texnologiyalari asosida, xususan, JAVA va C++ dasturiy vositalari yordamida butunlay o'zgacha dizayn va shakl hosil qilish mumkin. Bundan tashqari zamonaviy dasturiy vositalardan biri FLASH yordamida yaratilgan elektron adabiyotlardan foydalangan holda sportchilar va o'spirinlar mashqlarni qayta-qayta bajarib, mashg'ulotlarni kuchaytirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Ushbu dasturiy vosita yordamida yaratilgan o'quv materiallarni global tarmoqqa joylashtirish juda oson va qulaydir. Masofaviy ta'lim asosida amalga oshiriladigan bir necha dasturiy vositalardan foydalanish uchun shaxsiy kompyuterlarga qanday turdagi operatsion tizimlar o'rnatilganligi yoki o'rnatilishi kerakligi haqida bilib olish lozim. Kompyuterlarga o'rnatilgan operatsion tizimlarni aniqlash uchun Windows ish stolidagi



1-rasm. Shaxsiy kompyuterlar tizimi haqida ma'lumot.


parametrdan foydalanish mumkin. Ko'p hollarda ta'lim jarayonida MICROSOFT OFFICE firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan WINDOWS operatsion tizimidan foydalanish ko'zda tutilgan, shu bois ushbu tizimda ishlovchi kompyuterlarning modellari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda zamonaviy operatsion tizimlar 32 yoki 64 razryadli ko'rinishda ishlaydi. Birinchi rasmda ko'rsatilgan tizim esa 64-razryadli ekanligidan xabar beradi. Bu tizim 32 razryadli operatsion tizimga nisbatan yuqori tezlikda ishlaydi. Zamonaviy dasturlardan foydalanish, o'quvchi, talaba yoshlarga mustaqil tarzda bilim, ko'nikmalarga erishishlari uchun tashkil etiladigan masofaviy ta'lim uchun juda qo'l keladi. Operatsion tizim yoki shaxsiy kompyuterlar haqida ma'lumot beruvchi yana bir dasturiy vositalardan biri bu CPU-Z dasturidir. Ushbu dastur yordamida foydalanuvchi nafaqat operatsion tizim balki shaxsiy kompyuterlarning barcha tashkil etuvchi qurilmalari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

CPU-Z – dasturi zamonaviy kompyuterlarning texnik holatini tekshirish va diagnostika qilish uchun qo'llaniladi. Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatishda asosan quyidagi parametrlarni inobatga olish lozim:

Mikroprosessor holati:

- Bosh plata



2-rasm. CPU-Z dasturi haqida qisqacha ma'lumot.

- Operativ xotira
- Videokarta
- Doimiy xotira (vinchester)

CPU-Z dasturining ishlatilish texnologiyasi.

Dastur o'rnatilgandan so'ng yuqorida ko'rsatilgan (2-rasm) ko'rinishidagi oynaga ega bo'lamiz;

Dastur oynasidagi menyu qatori yettita parametrdan tashkil topgan (3-rasm), quyida ular bilan tanishib chiqamiz.

CPU bo'limda kompyuterga o'rnatilgan mikroprosessorga tegishli ma'lumotlar joylashadi. Bu ma'lumotlarni vertikal qatorda joylashgan parametrlar darchasi yordamida bilib olish mumkin.

“Name” – mikroprosessor modeli nomi.

“Code Name” – mikroprosessor yadrosi nomi.

“Package” - mikroprosessorning bosh platadagi joyi nomi (soket).

“Core Speed” mikroprosessor tezlik chastotasi.

“Cores” mikroprosessor yadrolar soni (2 ta yadroli, 4 ta yadroli v.h.k.).



3-rasm. CPU-Z dasturi menyu qatori.

Caches bo'limi shaxsiy kompyuter operativ xotirasi to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni ochib beradi.

Mainboard bo'limida esa tizimdagi asosiy(bosh) plataning barcha ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar yotadi, bunda:

“Manufacturer” - bosh plata ishlab chiqaruvchi korxona nomi.

“Model” - bosh plataning modeli.

“Chipset” - chipset haqida ma'lumot.


“Graphic Interface” - grafik interfeys, masalan PCI-Express yoki AGP parametrlari grafik interfeys.

Menyu qatorining Memory bo'limi parametrlari yordamida kompyuterning operativ xotirasiga tegishli bo'lgan ma'lumotlar aniqlanadi.

“Type” - operativ xotira turi, DDR, DDR2 yoki DDR3.

“Size” - o'rnatilgan operativ xotira hajmi.

Menyu katorining Spd bo'limi parametrlari yordamida bosh platada operativ xotira uchun nechta joy ajratilganligi haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi.



slotlar soni 4 yoki zamonaviy platalarda 6 tagacha yetishi mumkin.

Menyu qatorining Graphics bo'limi parametrlari yordamida bosh plataga o'rnatilgan video kartaga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar aniqlanadi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlar yoki mobil aloqa vositalari yordamida boshqariladigan masofaviy ta'lim tizimida operatsion tizim qanchalik tezkor bo'lsa, aloqa o'rnatish shunchalik sifatli bo'lishi tajribalardan ma'lum. Mobil aloqa vositalari yordamida esa, Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Android rusumli operatsion tizim eng tezkor hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida, masofaviy ta'limda operatsion tizimlarning tutgan o'rni va ularning imkoniyatlarini bilish bugungi kunda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlash mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // “Xalq so'zi” gazetasi. 2010-yil 30-yanvar. №21.
2. Manuel Schreiber: 64 bit Jetzt umsteigen und Gas geben – CHIP!, 02,2010, S. 36-39.
3. Markus Selinger: Alles über 64 Bit. – Com!, Nr. 2, 2009, S. 69-72.
4. Оливер Стоун: Компьютерные преимущества, проблемы, советы.

Zaynab KURBAMURATOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMOI
katta o'qituvchisi

TA'LIM OLUVCHILARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning idrok etish darajasini bosqichma-bosqich va uzluksizligini ta'minlanishi, o'quv jarayonini demokratik va vatanparvarlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif kichik maktab davrida o'quvchilarni erkin va faol diqqatini shakllantirishda didaktik mashg'ulotlarning asosi sifatida bir qancha tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Bilim, idrok etish darajasi, uzluksiz ta'lim, o'quv jarayoni, vatanparvarlik tamoyillari, didaktik mashg'ulotlar.

В статье рассматриваются вопросы обеспечения поэтапности и непрерывности уровня восприятия учащихся и организации учебного процесса на основе гуманистических и демократических принципов. Автором даны рекомендации по проведению дидактических занятий, направленных на формирование произвольного и активного внимания младших школьников.

Ключевые слова. Знание, уровень восприятия, непрерывное образование, учебный процесс, дидактические занятия.

In this article are discussed about supplying successive and uninterrupted education of the students, basics of democratic and patriotic principles in the education process, the unite of stability, active introducing about under school age students. There is spoken about didactic lessons basics in the successive and uninterrupted education.

Key words. Knowledge, cognitive activity, successive and uninterrupted, studing process, patriotic process, primary education, didactic lessons.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ijobiy ishlar yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yetarlicha qayd etilgan. Belgilangan yo'nalishlar uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari oldiga yuksak vazifalar qo'ymoqda. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarni komil inson sifatida shakllanishlari uchun umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni yangi texnika va texnologiya bilan qurollantirish lozim ekanligi qayd etilmoqda. Ta'lim muassasalari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, ta'lim olish uzluksizligini puxta va ixcham tizim sifatida ishlashini ta'minlash mumkin.

Bunda ayniqsa, ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarining jismoniy, axloqiy va aqliy yetukligini ta'minlash vositalariga alohida e'tibor berish zarur.

Shuning uchun bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta'limning ham obyekti, ham subyekti hisoblanmish o'quvchidan mustaqil tafakkurni va aqliy faollikni talab qiladi.

Har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayon ota-onalar, o'qituvchi hamda o'quvchilar munosabatini ifodalovchi murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Mazkur holatlarda o'quvchilar o'zaro bilish munosabatlari, muloqotga kirishadilar.

Bolalarning bilish faoliyatlari hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta'limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o'quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o'quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o'quv jarayonlarida muayyan topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik atamalar lug'atida bilishga qo'yidagicha ta'rif beriladi:

1) ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi;

2) borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash jarayonidir. Demak, bilish faoliyati jarayonida o'quvchi taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi.

Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, misollar, masalalar yechish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o'z rejalari, harakatlarining izchilligini so'z orqali tasvirlab beradilar. Rejalashtirish yordamida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi.

O'quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib bilish faoliyatining shakllanishida o'quv jarayoni muhim o'rin egallaydi.

Misol uchun, bolada mantiqiy uylash yetilmay turib uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasiz. 3-7 yoshli davrdagi bolalarning asosiy faoliyati quyidagicha:

- Predmetli o'rganish;
- Individual va predmetli o'yinlar, jamoaviy syujetli rolli o'yinlar;
- Individual va guruhlarda ijod;
- Musobaqa o'yinlari;
- Munosabat o'yinlari;
- Ro'zg'or mehnati.;

Bolalarning bilish jarayonlarida ushbu o'yinlarning ahamiyati kattadir.

Mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog'liq bo'lib inson turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin tutadi. O'quvchilar bilish faoliyatining kengayishi, birinchi navbatda, ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, dalillar va xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishlari natijasida amalga oshadi. Pedagogika fanida rivojlanish va o'qitishning o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Dastlab,

pedagoglar o'quvchilarning rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar. Ta'limning rivojlanish ta'sirini aniqlaganlaridan so'ng, ular bu ta'sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta'kidlaganlar.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo'yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyati yaxshi tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchi rivojlanishini jadallashtiradi. Ta'lim nafaqat yakunlangan turkumlarda quriladi.

Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta'limda faoliyatli, individual, ta'baqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi. O'quv-biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi.

Biz o'quvchilar uchun yetakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilarda bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslik o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri o'quvchilarda muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining kengayishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishdan iborat. Izlanishlarimizning asosini muayyan o'quv vaziyatlarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishning samarali yo'llarini tashkil qiladi. O'z-o'zini hurmat qilish har bir shaxsning tahliliy sifatidir. Buning tarkibini tahlil qilish orqali o'quvchining mayllari, qadriyatlari, tayanadigan qoidalarini aniqlashga muvaffaq bo'lindi.

Bu o'quvchilar faoliyatlari orqali namoyon bo'lib bilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchining kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- bilish qiziqishlari;
- o'quv maqsadlari;
- hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik;
- yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj;
- intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik;
- shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar.

O'quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta'minlash uch yo'nalishga ajratilgan.

- namunaga asoslangan taqlidiy;
- izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik;
- ijodiy bilish faoliyati.

Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor namunalari asosida hosil bo'ladi. Ideal tarzda bo'lgani singari, predmetlilik asosida ham o'quvchilarni tirishqoq bo'lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o'qituvchi tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini mustaqil

tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa bilish faoliyati hosil bo'lishining yuqori shakli sifatida muammolarni yechishning yangi, o'ziga xos usullarini izlash, o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin.

An'anaviy ta'lim sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o'tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o'quvchilarga tayyor tarzda uzatilmisligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar. O'qituvchi o'quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Didaktik yondashuvlar. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan.

2. Psixologik yondashuv. O'quvchilar o'zlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilish faoliyatidan foydalanadilar. Bilish jarayonining barcha darajalarini tahlil qilishdan ko'zda tutilgan maqsad – uning turlarini aniqlashdan iboratdir. Chunki bilish turlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish usuli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bois, bilish faoliyatini o'zlashtirishning turlarini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. O'quvchining bilish faoliyati muayyan ko'rinishlar, shakllar, vositalar, usullar, yo'llar, metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Tabiiy sharoitdagi maktab amaliyotida bilish faoliyatini turli-tuman ko'rinishlarda vujudga keltirish.

2. O'quvchi bilish faoliyatining hosil bo'lish turlari, ko'rinishlari, usullari, shakllari, metodlariga ega bo'lishi.

3. O'qituvchilar bilish faoliyati turlarining yagona tasnifi mavjud emas.

Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo'naltirilgan maxsus o'quv vaziyatlari amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni umumlashgan ko'nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy xarakterdagi o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishda o'quv vaziyatlari o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. O'quv faoliyati shunday vositaki, uning yordamida o'quvchi o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga intiladi. O'quvchi faoliyati o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi.

Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatishdir. O'rganish o'quvchida o'z xatti-harakatiga ishonch tug'diradi. Mazkur ishonchni egallash boshlang'ich ta'lim

jarayonida amalga oshiriladi. Bunga o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi.

Bugungi kunga kelib aksariyat o'quvchilar o'z bilim zahiralari kengaytirishga intilmayotganiga guvoh bo'lishi mumkin. Ular darslarda faol ishtirok etmaydilar, o'quv jarayonidan tashqaridagi erkin faoliyatiga ko'proq qiziqadilar. Buning sabablarini izlash va bartaraf etish pedagogikaning ustuvor masalalaridandir. O'quvchilar maktabga borar ekanlar, o'qituvchilar va sinfdoshlarining mehr-muhabbati, e'tiborini qozonishiga harakat qiladilar.

Muammoning yechimi uzluksiz ta'limning o'ta muhim masalalaridan biridir. Bugungi kunda “o'quvchi nima uchun sinfdan-sinfga o'tgan sari o'qishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi?”, “Bunga kim aybdor, o'qituvchimi yoki o'qitish metodlarimi?”, “O'quvchining bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda o'qituvchi qanday o'rin egallaydi?”, “O'qituvchi qanday qilib, nima yordamida o'quvchilarda o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshira oladi, bunda qanday vositalardan foydalanish kerak?” kabi savollar o'z yechimini kutmoqda.

Bu savollarga barcha davrlarda javob izlanmoqda. Pedagoglarning e'tirof etishlaricha, o'quvchining muvaffaqiyatlari uning o'quv-biluv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan ruhlengandagina vujudga keladi. O'quvchi mehnati jarayonida quvonchini his qilsa, qiyinchiliklarni bartaraf etganligidan faxrlansa, o'quv jarayoniga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga o'quv mehnatidan quvonish vaziyatini yaratishi kerak. O'quvchilar qalbida g'urur va o'z muvaffaqiyatlariga loyqlik hissini tarkib toptirish lozim.

Muvaffaqiyat har bir o'quvchi erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi. Mutaxassislar o'quv vaziyatida o'quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o'rin egallashini ta'kidlab kelmoqdalar. Agar o'quvchiga o'quv vaziyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyati berilsa, u hayotda ham to'g'ri yo'l tanlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv vaziyatini vujudga keltirish o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini didaktlar har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o'quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom mayllar va qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Safarova. R. *Istiqboldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari.* – T.: “Fan”, 2009.
2. Цукерман Г.А., Мастеров Б.М. *Психология саморазвития.* – Москва: Интерпракс, 1995.С. 288.
3. Занков.Л.В. *Дидактика и жизнь.* – М.: Просвещение, 1994.С. 420.

Maxmudjon NISHONOV,
Namangan DU dotsenti, p.f.n.,
Dilxumor MIRZABDULLAYEVA,
Namangan DU o'qituvchisi

IJTIMOIIY PSIXOLOGIK TRENINGLARNI O'TKAZISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy psixologik trening o'tkazishda ishtirokchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda ish rejasi va dasturini tuzish, ta'lim jarayonini samaradorligiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillardan biri bo'lishi haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, mualliflar ta'lim muassasalari pedagog va psixologlari uchun uslubiy tavsiya sifatida xizmat qilishini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Trening guruhlar, psixolog, mahorat, pedagog, tavsiya, so'rovnomas, shaxs.

В статье представлена информация об учёте потребностей участников при планировании и составлении программы для проведения социально-психологического тренинга, что может служить одним из воздействующих факторов на эффективность образовательного процесса. Данная научная работа может использоваться в качестве методической рекомендации педагогам и психологам образовательных учреждений.

Ключевые слова. Тренинг, психолог, деятельность, педагог, рекомендация, личность.

The article gives information about taking into consideration the participants' needs in curriculum design and program arrangement for socio-psychological training. This may serve as one of the influencing factors on the efficiency of the educational process. This research work can serve as a guideline for teachers and psychologists in educational institutions.

Key words. Training, educational institution, psychology, educational process, efficiency, factor.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida faol metodlardan foydalanish yaxshi samara berishi shubhasiz. Zero, bugungi kunda yuksak intellektual salohiyat psixologik bilimdonlik bilan belgilanadi. Bu kattalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish va uni o'zgartirish borasida o'z o'rniga ega.

Bugungi kunda psixologik trening masalasi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, psixologik yordam amaliyoti, psixokorreksiya va shaxs rivojlanishini ta'minlashda treningni qo'llash sohalari haqida batafsil ma'lumotlar keltiradilar. So'rovnomalardan ma'lum bo'lishicha, Yevropa, mamlakatlarida psixologik treningni qo'llash, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarda 80-85 foizni tashkil qilishi aniqlangan.

Malumki, "Trening" tushunchasi inglizcha "o'rgatish", "mashq" degan ma'noni anglatib, ijtimoiy psixologik trening – bu turli ijtimoiy faoliyat sohaslariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs yoki muayyan

guruhning muloqot yoki kommunikativ sohadagi bilimdonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-psixologik trening (IPT) deganda guruhlar bilan ishlashning faol uslublariga asoslangan psixologik ta'sir amaliyoti tushuniladi. Shu bilan birga, bilim berishning o'ziga xos shakllarini qo'llash, muomala borasidagi malaka va ko'nikmalar, o'zini rivojlantirish va nazorat qilish kabilar ham nazarda tutiladi.

Trening guruhlarining paydo bo'lish tarixi K.Levin nomi bilan uzviy bog'liqdir. Avval laboratoriya, keyinchalik dala sharoitida ish olib borgan K.Levin “guruhdagi odamlar doim bir-biriga ta'sir qiladi” degan fikrga keldi. Guruh tarzida ta'lim berish o'qitishning yangi samarali usuli sifatida tez orada keng tarqaladi. Bu guruhlarining asosiy vazifasi, qatnashchilarni o'zaro muloqot, boshqara olish va qiyin vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishning asosiy qonunlarini o'rgatish hisoblangan.

Guruh – bu real voqelikning kichraytirilgan bir ko'rinishidir. Unda hayotimizda mavjud bo'lgan shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor, qaror qabul qilish va boshqalar mavjud. Shunday bo'lsa ham sun'iy tashkil etilgan laboratoriya real hayotdan shunisi bilan farq qiladiki, trening guruhda har kim sinovchi hamda sinov vositasi bo'lishi mumkin. Bu yerda real hayotda yechish mumkin bo'lmagan masalalarni ham hal etish mumkin.

Guruhdagi mashg'ulotlar psixologik xavfsizlikni talab qiladi. Trening guruhlarining vazifalari shaxsning kamoloti, shaxslararo munosabat masalalarini hal qilishga qanchalik yaqin kelsa boshqarishning besamar uslublari samarali uslublarga uyg'unlashadi.

Guruhning barcha a'zolari o'zaro o'qitish jarayoniga jalb qilinar ekan, ular asosan rahbarga (guruh rahbariga) ishonishadi. Shunday ekan, o'qitish guruhning tajribasiga emas, ko'proq guruh rahbarining tushuntirishlari va tavsiyalari natijasi hisoblanadi. Qanday o'qishga o'rganish o'z ichiga bir necha bosqichlarni qamrab oladi: o'z-o'zini tasavvur qilish, muloqot, sinovchanlik. Trening guruhining yakuniy maqsadi – mashg'ulotlarda olingan bilim va ko'nikmalarni real hayotda qo'llay bilishga o'rgatishdir.

Trening guruhlar yoki boshqacha aytganda ijtimoiy-psixologik trening guruhlari asosan shaxslararo munosabatning har xil holatlarida o'zini to'g'ri tuta bilishga o'rgatish uchun tuziladi. Bu guruhlarda qatnashchilar hayotlarida duch kelgan yoki duch kelishlari mumkin bo'lgan muammolar, to'siqlar muhokama qilinadi, ularni hal qilish yo'llari qidiriladi. Hal qiladigan asosiy masala – rahbarlik qilish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga o'rgatish.

Ba'zan trening guruhlar mijozning individual psixologiyasini o'zgartirish uchun ham qo'llaniladi. Asosiy e'tibor qatnashchilarning his-tuyg'ulari, atrofda bo'layotgan voqealarga munosabatlari, uni qanday qabul qilayotganlariga qaratiladi. Guruhning aniq maqsadlari, uning faoliyat yo'nalishi asosan a'zolar tomonidan belgilanadi. Ularda borliqqa bo'lgan munosabat, insonlar bilan muomalada yakdillik qila olish hamda kuzatuvchanlik qobiliyatlari rivojlantirib boriladi.

Psixologik treninglarni shaxsni rivojlantirishda qo'llash, doim yaxshi samara berib keladi va treningda shaxs ishchi sharoitga yaxshi ko'nikadi, atrof-muhitga munosabati o'zgaradi, ijobiy tomonga o'sishga harakat qiladi.

Ma'lumki, yangilik doimo ayrim qiyinchiliklar evaziga qo'lga kiritiladi. Ijtimoiy psixologik treningning shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy vaziyatlarga to'g'ri moslashishi, muloqot madaniyati va texnikasining hosil bo'lishidagi ahamiyati cheksiz.

Treningni modellashtirishda murakkab usulni yoki vaziyatli yo'nalishni tanlaysizmi, mashg'ulotni boshlashdan avval ba'zi bir narsalarga e'tibor qaratish lozimdir.

Ish reja bir necha maqsadlarda tuziladi:

1. Olib boruvchi va guruhning o'z e'tiborini muhim bir misollarga qaratishlarini talab qiladi.

2. Optimal ravishda imkoniyatlarni taqsimlashga va qo'llashni kafolatlaydi. Ayniqsa, u eng muhim bo'lgan qimmatli resurs vaqtdan unumli foydalanishga qaratilgan.

3. Kursning sifatini belgilagan holda ba'zi vaziyatlarni baholab, yo'qotishlarning oldini olishga yordam beradi. Ish rejani mavjudligi o'qitishning sifatini oshiradi.

Rejaga ko'ra birlamchi ehtiyojlarni qondirmay turib, keingisiga o'tib bo'lmaydi


Birlamchi ehtiyojlar dominant hisoblanib, ular qondirilganidan so'ngina inson motivatsiyalanishi mumkin.

Treninglarni rejalashtirish va o'tkazish jarayonida ishtirokchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda ish reja va dasturi tuza bilish lozim. Chunki ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillar quyidagi kabi baholanishi mumkin:

- xona shinamligi;
- issiq yoki sovuqligi;
- kengligi, yorug'ligi;
- har bir ishtirokchi uchun qulay sharoit mavjudligi;
- tashkiliy texnika (proyektor, ekran, elektron doska)larning va vositalarning mavjudligi va hakoza.

1-rasm

Treningga sistematik yondashishning umumiy modeli



1. Trening o'tkazish obyekti va ishtirokchilarning ehtiyojlarini o'rganish.

Ijtimoiy psixologik trening o'tkazishdan avval birinchi navbatda murabbiy:

- Obyekt – qayerda? maktab, litsey, kollej, OTM yoki boshqalar;
- Maqsadli guruh – kim uchun trening o'tkaziladi?
- Yoshi, malakasi, jinsi bilim darajasi qanday?

• Avval ham shu kabi treninglar o'tkazilganmi? Agar o'tkazilgan bo'lsa, bu dasturlarning natijasini baholash; (axborot yig'ish turli metodlar yordamida kuzatish, intervyu, so'rovnomalar, guruh diskussiyasi, ishchi materiallari (tarqatma, modul)ni o'rganish orqali);

• Trening o'tish maqsad va vazifalarini belgilab olish (trening o'tishda nimalarga erishmoqchisiz, ishtirokchilarda qanday ko'nikmalarni shakllantirishga yoki rivojlantirishga yo'naltirilgan);

- Trening o'tkazish uchun sharoit bormi?
- Birlamchi axborot olish orqali umumiy tavsifga ega bo'lish.

Bu bosqichda olib borilgan ish, rejalashtirilayotgan trening ishtirokchilarda qanday bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish zarurligi, trening mavzusi va maqsadini aniqlashga yordam beradi.

2. Trening maqsad va vazifalarini belgilash.

- IPT maqsadini aniq shakllantirish;
- IPT vazifalarini ishlab chiqish;
- IPT mavzusini shakllantirish.

3. Trening dasturi-modulini ishlab chiqish.

- mavzuga oid materiallar mavjudligi;
- trening davomiyligi, vaqtini belgilash;
- ishtirokchilar sonini belgilash;
- trening necha va qanday vazifalardan(sessiya mavzu) tashkil topadi?
- o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash;
- zarur resurslar va ularning miqdorini aniqlash;
- choy yoki tushlik tashkil etiladimi?
- sarf-xarajatlar smetasini tayyorlash;
- trening o'tkazuvchi trener tayyorgarligi;
- ushbu bosqichda trening mayda detallarini e'tiborga olishi zarur.

4. IPTni o'tkazish.

Trening uchun tayyorgarlik va zarur zaxiralarning mavjudligini IPT samaradorligini kafolati deb aytib bo'lmaydi. O'tkazilgan seminar kutilayotgan natijaga olib kelishi uchun avvalambor uni to'g'ri tashkil etish zarur.

Trening o'tkazishdan avval olingan so'rovnomalar orqali ishtirokchilar bilim saviyasini aniqlash;

- zarur psixologik muhitni shakllantirish;
- ishtirokchilar bilan doimiy aloqada bo'lish;
- har bir ishtirokchi bilan ishlash;
- treningda ishtirokchilar bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash;

-
- materiallarni har bir ishtirokchiga yetib borishini, tushunishini ta'minlash va nazorat qilish;
 - dastur rejasiga asosan belgilangan vazifalarning barchasini o'tib tugatish.

5. IPT samaradorligini baholash:

- Trening o'tkazilganidan so'ng ishtirokchilar o'rtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. O'tkazilgan IPT samaradorligini aniqlash uchun baholash ishlari olib boriladi;
- Maxsus tayyorlangan testlar yordamida;
- Mavzuga oid mashqlar;
- Baholash varaqalari – so'rovnomalar orqali;
- Og'zaki yoki yozma ko'rgazmalar orqali;
- Taklif va mulohazalar orqali.

IPT davomida hal qilinadigan masalalarni 5 guruxga bo'lish mumkin:

1. Turli psixologik maktablarning inson shaxsiyatiga doir qarashlari, insonlarning o'zaro munosabat jarayonlari, bu munosabatlarni harakatga keltiruvchi kuchlar, samarali muomala, munosabat qurish yo'llari kabi psixologik bilimlarni egallash.

2. Tashqi bayon etiladigan muomala mahoratiga ega bo'lish. Ikki kishi bo'lgandagi muomala, guruxdagi muomala, tinglashdagi muomala va x.k. Bu mahoratni boyitib borish.

3. Fikr almashish bilan bog'liq bo'lgan vositalarni korrektsiya qilish. Bularga: sheriklik, samimiylik – o'z yo'lga og'dirish, jalb qilishlik – muomaladan qochish, qat'i-yatlilik – kelishuvchanlik va h.k., o'z muomala stretegiyasini ishlab chiqish.

4. Muomala vaziyatida o'zini va boshqalarni bir xil qabul qilish.

5. Insonga o'z shaxsiy masalalarini hal qilishda kerak bo'ladigan bilimlarini rivojlantirish.

Trening jarayonida hosil qilinadigan xavfsizlik va qulaylik muhiti trening qatnashchilari uchun o'zlarini his-tuyg'ularini, kechinmalarini oshkora bayon etishlari uchun imkon beradi. Boshqalarning bildirgan munosabatlari orqali masalalariga yechim topa oladilar. Muomalada vujudga keladigan xatolarni aniq ko'ra olish imkoni bo'ladi. Bu xatolikni qilmaslik uchun o'z taktikalarini ishlab chiqa olishlari mumkin bo'ladi. Har bir trening u yoki bu darajada yuqorida sanab o'tilgan masalalarni hal qiladi. Bu daraja faqatgina treninggagina bog'liq bo'lib qolmay aksincha, gurux qatnashchilarining motivatsiyasiga, maqsadlariga va shaxsiy muammolariga ham bog'liqdir.

Muxtasar qilib aytganda, o'tkazilgan baholash ishlari natijasida trening ishini yanada yaxshilash, mukammallashtirish va olib boruvchi trener (psixolog, o'qituvchi) mahoratini yanada yuksaltirish uchun zarur vosita bo'lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni –T., 1997.
2. Karimova V. "Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot" –T., 2001.
3. Mirzabdullayeva D. "Ijtimoiy psixologik trening" ma'ruza matni. Namangan, 2012.

Gulbahor GAYNAZAROVA,
Andijon viloyati PKQTMOI
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor

AXBOROTLASHUV JARAYONINING YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada axborotlashuv jarayonining yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga, ularning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif milliy an'analarimiz va madaniyatimizga mos bo'lmagan axborotlar oqimiga qarshi madaniyatni shakllantirish bo'yicha bir qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Davlat siyosati, axborotlashuv jarayoni, yoshlar dunyoqarashini o'stirish, ijobiy axborotlar, salbiy axborotlar, masofaviy ta'lim.

В статье рассматриваются проблемы, связанные с влиянием процесса информатизации на формирование мировоззрения молодёжи. Автором даны рекомендации о формировании противодействия информации, не соответствующей национальным традициям и культуре.

Ключевые слова. Государственная политика, процесс информатизации, формирование мировоззрения молодёжи, положительная информация, отрицательная информация, дистанционное обучение.

The article deals with effect of informatization process on youth's outlook. The author investigates both positive and negative sides of the informatization process and points out the importance of information selection as a cultural discipline to avoid from information treating cultural and national identity.

Key words. State policy, informatization process, the formation of world outlook of the youth, positive information, negative information, distance education.

Ma'lumki, XXI asr "Axborot texnologiyalari asri". Haqiqatan ham ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Axborot tarqatish sohasida ilgari ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sur'at va ko'lamga erishildi.

Globalashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda milliy va umumbashariy madaniy estetik qadriyatlar insoniyat hayotida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, globalashuv sharoitida o'zlarining g'arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan, o'zlarining jirkanich muddaolariga "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilish orqali erishishga intilayotgan qora kuchlar mavjudki, ular ijtimoiy ongi shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribalari yetarli bo'lmagan yosh avlodga ta'sir etishning turli vositalaridan foydalanishga harakat qiladilar.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Axborot olamidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Bu, o'ta muhim vazifani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya tizimi, ijtimoiy siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy masalalar bilan shug'ullanadigan idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar o'z hissasini qo'shishi tabiiy, albatta, lekin bu borada ommaviy-axborot vositalarining o'rni va ta'sir kuchi beqiyos, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi".

Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy holatini ifodalovchi tushuncha bo'lib, axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, axborotlashgan jamiyat:

- uyda ishlash imkoniyatining kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va tabiatga, ayniqsa, ekologiyaga salbiy ta'sirlarni kamaytiradi;

- ish kunining qisqarishi odamlarning ko'proq uyda bo'lishiga va oilaviy muhitning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;

- kishilarning qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, nufuzli tashkilotlarda xizmat qilish, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlaridan keng foydalana olish imkoniyatini yaratadi. Natijada kishilarning nisbatan osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytishi yoki u yerda doimiy yashab qolish uchun imkoniyat yaratadi;

- masofaviy ta'lim – ta'lim olishning eng qulay shakliga aylanadi, aholining keng qatlamlari uchun hatto nufuzli oliy o'quv yurtlari eshiklarining ochilishiga olib keladi va ma'lumotlilik ko'p darajada insonning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ayni paytda axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi:

- "Ochiq pornografiya" bilan bog'liq muammolar;

- mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi;

- muayyan axborotlarni yashirish, ayrim axborotlarni noqonuniy ravishda e'lon qilish ko'rinishidagi suiste'molliklar kelib chiqadi.

Bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida tabaqalashuv sodir bo'lmoqda. Natijada yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatilib, boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatilmoqda. Buning oqibatida birinchi guruhda tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfi vujudga keladi, ikkinchi guruhning pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishiga olib keladi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlari inobatga olinadi. Biroq axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Ayrim axborotlar aniq shaxs uchun qiziqarli bo'lsa, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. G'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar Sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, ma'lum bir davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanadi.

Lekin axborot kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'iy nazar, axborot iste'moli madaniyatiga rioya qilinishi va u insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashtirish jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish – davr talabi. Biroq, axborotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etish, G'arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ga taqlid qilish aslo mumkin emas.

Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, yoshlarning axloq-odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham kirib keladi. Bularning oldini olish uchun, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirib borish lozim. Buning uchun tarmoqdan illat qidirish emas, balki uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish zarur. Yoshlar ongida miliy g'oya, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, turli yot g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashishning salbiy oqibatlarini haqida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir.

Biz farzandlarimizni ma'lumotdan, axborotdan cheklay olmaymiz, balki uni taxlil qilishni o'rgata olish imkoniyatiga egamiz. Buning uchun ota-ona sifatida bizning o'zimizda axborot madaniyati, ma'lumotlarni saralash uquvi bo'lishi zarur. Qachonki, ota-onalar o'z farzandlariga axborotni ijobiy saviyada, salomatligini tiklashga, ruhiyatini sog'lomlashtirishga, ma'naviy kamolotini e'tiborga olib murojaat qilishga o'rgatar ekanlar, ularni ko'r-ko'rona turli ma'lumotlar ta'siriga tushib qolish, unga taqlid qilish xavfidan himoyalay olgan bo'ladilar va ijtimoiy immunitetni shakllantirgan bo'ladilar. Axborot mste'moli kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'iy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi. Ayniqsa, inson yosh davrlari ichida eng murakkab davr hisoblangan o'smirlik davrida yoshlar tomonidan turli axborotlarni hech qanday to'siqsiz, oson qabul qilinishi natijasida ularning turli norasmiy ma'lumot va axborotlarga ko'r-ko'rona ergashib ketish holatlari ko'proq kuzatiladi.

Bunda ota-onalar, ta'lim muassasalari, keng jamoatchilik birdek mas'ul. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, turli sport va fan to'garaklari, turli tadbirlar, eng asosiysi yoshlar taqdiriga befarq bo'lmaslik muhimdir. Muxtasar aytganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo falokat, yo halokat, yo saodat – masalasidir”, degan so'zlarni yoshlar tarbiyasida dasturilamal qilib olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.– T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to'g'risidagi Qonunlari. – T., 1997.
3. Axborot psixologik xurujlarga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar. “ADU” nashriyoti, 2010-yil.
4. “Sharq mutafakkirlari asarlarining dunyo madaniyati va ma'naviyati rivojlanishiga qo'shgan hissalarini”. 2013-yil 15-16-may kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.

Muyassar DIVANOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O'zPFITI loyiha rahbari, p.f.n.,
Farid KUCHUKBAYEV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O'zPFITI loyiha katta ilmiy xodimi

O'QUVCHI-YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA INTERNETNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ommaviy-axborot vositalarining ro'li haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, mualliflar Internet tarmog'ining salbiy va ijobiy tomonlarini o'rganib chiqib, o'quvchi-yoshlarga qator tavsiyalarni berishgan.

Kalit so'zlar. Ommaviy- axborot vositalari, kompyuter, Internet tarmog'i, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

В статье рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий в воспитании молодёжи. Авторами отмечены положительные и отрицательные стороны Интернета, даны рекомендации по использованию информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, компьютер, Интернет, сеть, духовно- нравственное воспитание.

The article discusses the role of information and communication technologies in the education of youth. Also, the authors revealed the positive and negative sides of the Internet and give their recommendations.

Key words. Information and communication technology, computer, Internet, network, spiritual and moral education.

XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri Internet tarmog'i eng om-
mabop va tezkor axborot tarqatuvchi omilga aylandi. Ushbu kash-
fiyot tufayli butun jahon bo'ylab yoyilib ketgan yuz millionlab kom-
pyuterlarni yagona axborot muhitiga birlashtirish imkoniyati tug'ildi.

Internetni sirli va murakkab jihatlarini yaqin-yaqinlargacha aksariyat kishilar bi-
lishgan emas.

Bu avvaldan qabul qilingan kelushuvlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon
global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International
Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" "tarmoqlararo" degan
ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot
tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan
tashkil topadi.

Internet tarmog'ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o'zaro bog'lovchi lokal tarmoqlardir. Internet tarmog'i – bu global tarmoq vakili hisoblanadi.

Mamlakatimizda internetdan shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar tarbiyasini, bilim darajasini oshirishga xizmat qiladigan bir qator Internet saytlari mavjud. Bunday saytlar sirasiga: <http://www.bolalar.sarkor.uz> – bolalar ommabop informatsion sahifasi; <http://www.youthcenter.freenet.uz> – yoshlar Internet markazi sahifasi; <http://ZiyoNet.uz> – informatsion-ta'limiy tarmoq tizimi; <http://book.uz> – Elektron adabiyoti kutubxonasi; <http://kutubxona.com> – O'zbek adabiyoti elektron kutubxonasi va boshqa turli xil saytlar orqali yoshlarni bilimli, teran fikrli, kuchli xotirali, keng tafakkurli, yuksak salohiyatli qilib tarbiyalashga yordam beradi.

Internet tarmog'idagi saytlarning ijobiy tomonlari bilan birga uning salbiy tomonlari ham mavjud, ya'ni ko'plab nomaqbul saytlar hozirda yoshlar orasida ancha ommalashib ketgan. Bu buzg'unchi omillar nafaqat ommaviy axborot vositalari, shuning bilan birga XXI asr mo'jizasi bo'lmish kompyuter texnologiyalari orqali ham yoshlar tarbiyasiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Globalashuv jarayonida, inson ongini egallashga intilish tobora kuchayayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlardan asrash eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Internet butun dunyoni egallab olgan tarmoq ekani barchaga ma'lum.

Bola uydan o'qishga chiqqanda unga nisbatan bo'lgan nazorat bir muncha kamayadi. Oqibatda bola turli Internet kafelarda bu saytlar orqali o'z tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, odam aqliga sig'dirib bo'lmaydigan behayo film va suratlar, turli xil jangari film va o'yinlarni bevosita tomosha qiladi. Natijada uning tarbiyasida vatan hissi, hurmat, odob-axloq, bilim olish o'rniga antig'oyalar qurshab, chirmab oladi. So'ngra bu g'oyalardan o'zini xalos etolmay tubanlik botqog'iga bota boshlaydi. Ba'zi ota-onalar o'z farzandlarini iqtisodiy jihatdan ta'minlasam bo'ldi deb juda katta tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Bunday sharoitda ommaviy axborot vositalaridagi har qanday salbiy ta'sirlarni oldini olishimiz, milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishimiz zamon talablariga mos umumisoniy qadriyatlar bilan boyitishimiz shart. Bugun kitobdan topib bo'lmaydigan ma'lumotlarni Internetdan bimalol topish mumkin. Buning uchun bolaga kompyuterda uzoq o'tirish zararli ekanligi, qobiliyatning susayishiga olib kelishi mumkinligi tushuntirilishi kerak.

Buning uchun:

- bolaning Internetga kirish maqsadini belgilash;
 - internet ishini tugatgan bolaning qanday foydali ma'lumot olishini aniqlash;
 - bolaning ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etuvchi axborot saytlarini tanlash;
 - kompyuterda ishlash me'yorini bilishi;
 - ma'naviy – axloqiy zararli saytlarning ta'siri haqida tushunchaga ega bo'lishi
- kabilarni targ'ib qilib borish kerak. O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni tobora ko'paymoqda.

Internetdan foydalanuvchilar soni bugungi kunda – hatto foydalanish imkoniyati bo'lmagan qishloq joylarida mobil Internetlariga ulanish, tuman markazlaridagi kabel tarmoqlarining kengayishi hisobiga tobora ortib bormoqda. Mobil aloqa vositalari Internetdan foydalanish imkoniyatlarini tobora kengaytirmoqda, Butun jahon o'rgimchak

to'ridan foydalanuvchilar tarkibida yoshlar va navqiron o'smirlar soni juda ko'pchilikni tashkil etmoqda. Internet bolalar va o'smirlar uchun juda katta imkoniyatlarni ochib beradi, yoshlar undan foydalanib juda ko'p ma'lumotlarni bilib oladilar, bu ma'lumotlarni olishdagi qulayliklarning mavjudligi ularga Internetdan foydalanish uchun ancha yengillik tug'diradi. Bolalar shiddatli ravishda turli ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar va dasturlardan foydalanishni o'zlashtirib olishmoqda. O'zlashtirish jarayonida u intellektual jihatdan rivojlanadilar va juda ko'p bilimlarni o'rganadilar.

Buning uchun tarmoqda turli yoshdagi bolalarning yoshiga qarab turli tilda ko'plab maxsus saytlar mavjud. Internet resurslari nafaqat o'yinlar, balki muloqot, o'z-o'zini ifodalash va o'z-o'zini taraqqiy qildirish vositalari bo'lib xizmat qilmoqda. Bolaning axborot olamini mustaqil tafakkur orqali o'zlashtirishi uning dunyoqarashini kengaytirib, ma'lumotlarni idrok etish va muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini oshirmoqda.

Kompyuterning o'rgatuvchi onlayn-dasturlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar maroqli o'yinlar orqali yozuv va hisoblash asoslarini o'zlashtiradilar, model-lashtirish va rasm chizishga o'rganadilar, mustaqil ishlashga odatlanadilar, tevarak olam haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Kompyuterning o'rgatuvchi onlayn dasturlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar yozuv va hisob asoslarini o'yin shaklida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qiziqarli masalalarni yechish ularda o'quv faoliyatiga xos malakalarni shakllantiradi.

Interaktiv o'yinlar va elektron bo'yoqlar bolalar faoliyatini yo'naltirish va ularga tushuncha berish kabi muhim xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu dasturlarda ishlash orqali bola o'z mehnatini nihoyasiga yetkazishga va natijalarni baholashga va ularni qadrlashga o'rganadi. Mantiqiy o'yinlar ularning fikrini charxlaydi va taassurotlarini rivojlantiradi (masalan: bola har xil geometrik shakllar va ranglarni eslab qoladi, ularning xususiyatlarini idrok etadi).

Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan ko'plab o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga iqtisodiyot, sotsiologiya, tarix va adabiyotga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Ular ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga loyiqdir.

O'smirlar uchun Internet o'z hayotini usiz tasavvur qilolmaydigan o'ta muhim axborot muhiti hisoblanadi va bu ajablanarli hol emas. Internetdan referatlar uchun ma'lumotlar, turli sevimli musiqa va qo'shiqlar, bolalarga yoqadigan kitob yoki ko'p sonli forumlardagi dolzarb masalalar muhokamasini topish va o'zi ham munozarada qatnashishi mumkin. Ta'lim beruvchi kompyuter dasturlar katta hajmda o'quv materiallarini uzatishga qulayligi bilan o'smirlarga o'quv-biluv jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish imkonini beradi. O'rgatuvchi dasturlar yangi texnologiyalarning o'zlashtirish va axborot makonida erkin mo'ljalga olishga sharoit yaratadi.

Kompyuter va Internetni yaxshi o'zlashtirgan bolalar o'zining qobiliyatlari va imkoniyatlarini kompyuterdan foydalanishni bilmaydigan tengqurlariga qaraganda ko'proq rivojlantira oladilar, o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'ya biladilar, idroklari va fahm-farosatlari bilan ajralib turadilar.

Internet bolalarga bilim berish, ko'ngilli dam oldirish va do'stlari bilan muloqot qilishga o'rgatishda ajoyib va foydali vosita bo'lishi zarur. Lekin zarur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilmasa, Internet tarmoqlari bolalar uchun xavfli vositaga aylanishi ham mumkin: unda o'zbek xalqining milliy madaniyati va mintalitetiga to'g'ri kelmaydigan ijtimoiy xavfli va agressiv mazmunga ega bo'lgan materiallar mavjud.

Internetga kirish imkonini beruvchi maskanlar (internet-kafe, internet klub, o'yin klublari kabilar)ga tashrif buyurgan bolalar va o'smirlar bilan muloqot qilish orqali biz ularni internetda aynan nimalar qiziqtirishini bilishga harakat qildik:

– muloqot – ijtimoiy tarmoqlar va chatlarda yangi do'stlar orttirishga, munozaralar-da ishtirok etishga, virtual forumlarda qatnashishga qiziqadilar;

– o'qiydilar va kamolotga intiladilar – nazorat ishlari va referatlarni ko'radilar, yangiliklarni o'qiydilar, bilimlarini oshiradilar, kompyuter savodxonligi borasida yangi-dan-yangi bilim va malakalarni o'zlashtiradilar, o'yin o'ynaydilar, musiqa eshitadilar, videorolik va filmlar tomosha qiladilar.

Ular nimalarga qiziqadilar?

O'quvchilarni Internet tarmog'idagi “Referatlar katalogi”, “YouTube”, “Google” va “Facebook”, “Wikipedia”, “Sinf-doshlar”, “Kontakt-da” saytlari va “Fan” saytlar qiziqtiradi.

Ko'pchilik bolalar o'zining qimmatli vaqtlarini o'qish va o'quv materiallariga sarflamasdan o'yinlar, har xil turdagi videoroliklar va “Faqat kattalar uchun” saytlariga kiradilar.

Ko'pchilik hollarda o'g'il bolalarga qaraganda qizlar o'quv materiallaridan foydalanishga juda qiziqadilar. O'qishdan tashqari ular zamonaviy modalar, dam olishlar, musiqalarga juda qiziqadilar va ko'p vaqtini mashhurlar hayotini aks ettiruvchi resurslar va saytlarni o'rganishga sarflaydilar.

Ijtimoiy tarmoqlarga o'g'il va qiz bolalar bir xilda qiziqish bilan qaraydilar.

Ma'lum bo'lishicha o'quvchilar biz o'ylagandan ko'ra ko'proq Internetni o'qish maqsadida axborot olish mumkin bo'lgan manbaa sifatida e'tirof etishar ekan.

Virtual muhitda bolalar va o'smirlar real hayotning ruhiy muammolaridan dam olishga harakat qilishadi va yig'ilib qolgan zo'riqish holatlaridan xalos bo'lishga intilishadi. Ular Internetni kim nimani xohlasa qilishi mumkin bo'lgan erkin makon deb hisoblaydilar. Bu ular uchun juda maroqli daqiqalar bo'lsada, lekin hamma bolalar ham bu sohada bir xil fikrlashmaydi.

Bola o'z ruhiy rivojlanishida bir-biridan anchagina farq qiluvchi turli bosqichlarni bosib o'tadi. Bu holat bolalarning Internetga qiziqishida ham o'z ifodasini topadi. Biz kattalar bolalar bilan Internet xavfsizligi qoidalari haqida suhbatlashish jarayonida aynan nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini, bunda bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq jihatlarni nazarda tutushimiz lozim.

Internetning asosiy axborot manbai ekanligini e'tirof etgan holda ushbu tarmoqda bola salbiy, agressiv zarar keltiruvchi axborotlarga duch kelishini yaxshi anglab olishimiz lozim. Zero, ba'zi axborotlarning zararli ekanligini barcha bolalar ham bilavermaydi. Nafaqat bolalar, balki aksariyat ota-onalar Internet resurslaridan saralab foydalanish lozimligini tushunib yetganlari yo'q.

Lekin, ota-onalar tomonidan farzandlarini Internetdan foydalanishiga bu darajada qat'iy taqiqlovchi choralar ko'rilmagan. Shu sababli, ayrim bolalar ota-onalarining e'tiborsizligidan foydalanib, uy sharoitida bemalol tegishli negativ axborotlar bilan tanishishlari mumkin.

Albatta, uydagi kompyuterga ham filtr o'rnatish mumkin, lekin bugungi kunda yoshlarni xavfli axborotlardan to'liq himoyalashga qodir bo'lgan kompyuter dasturi mavjud emas. Hatto eng yaxshi dasturiy mahsulotlar ham xavfli kontentdan 20foiz dan kam darajada himoyalay oladi. Demak, faqat texnik vositalar bilan muammoni hal etib bo'lmaydi. Bu o'rinda “Inson omili”ning, ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning ahamiyati katta.

Umumjahon Internet tarmog'i xavf tahdididan himoyalaniшни ko'zlab, bolaning hayotidan Internetni chiqarib tashlab bo'lmaydi. Faqat umumjahon o'rgimchak to'ringining farzandingizga qanday tahdid solayotganini bilishingiz va uning xavfli oqibatlaridan himoyalaniishingiz lozim.

Kompyuter bilan yakkama-yakka muloqotga kirishar ekan, bolalarimiz qanday xavfga duch kelishlari mumkin?

Chatlar yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali xavfli kishilar bilan muloqotda bo'lish oqibatida o'smir radikal siyosiy guruhlar yoki turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishlari hech gap emas. Shuningdek, axloqsiz va parnografik, pirotexnika, suitsid va giyohvandlikka oid kontentlarning xavflilik darajasi ham undan kam emas. Internet-resursga joylashtirilgan zo'ravonlik haqidagi filmni ko'rgach, o'smir unga taqlidan o'z tengdoshlari orasida boyagi rolik "qahramon" kabi xatti-harakatlarni sodir etadi. Afsuski, bolalar ham odamlarga zo'ravonlik qilishlari va qonunni buzishlari mumkin.

Internetga joylashtirilgan bola shaxsi haqidagi axborot (elektron pochta manzili va mobil telefon raqami, turar joy manzili va maktab raqami, shuningdek, bolaning rasmi kabilar) katta xavf tug'dirishi mumkin.

Hattoki, oddiy onlayn o'yinlari bolaning dam olish va dars qilish vaqtini band qilib, uning ruhiy va jismoniy salomatligiga tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi.

Qayd etilgan xavflar va tahdidlar bilan birga Internet bolada internetga bog'lanib qolishdek xavfli moyillikni tug'diradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Internet o'zining o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berish va ularni rivojlantirishga doir vazifasini bajarar ekan yoshlarga jismonan va ruhan sog'lom o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga erishishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiotlar:

1. *Ommaviy axborot vositalarining yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga ta'siri: muammolar va echimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*" 1- va 2- kitoblar. – T.: O'zPFITI bosmaxonasi. 2013.

2. Kuchukbayev F.M., Djurayev R.X., Abduazimova D., Divanova M.S. "Telekommunikatsiya tizimining globallashuvi sharoitida bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ota-onalar uchun tavsiya" ota-onalar uchun qo'llanma. – T.: O'zPFITI, 2014 – 85 b.

3. Young K.S. *Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder* / *Cyber Psychology and Behavior*.- 1998, V.1, P.237-244.

4. Marks I. *Behavioural (non-chemical) addictions*//*British J. Addict.* – 1990, V.85. – P. 1389 –1394.

5. *Безопасность детей в Интернете. Режим доступа: <http://www.microsoft.com/rus/childsafety>.*

Bahodir XURRAMOV,
Nurislom XUDOYBERDIYEV,
Surxondaryo viloyati PKQTMOI katta o'qituvchilari

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI HAMDA INTERNET TARMOG'INING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RN VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda, barkamol inson qilib yetishtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishida Internet tarmog'ining ta'siri, Internet-kafelarning salbiy va ijobiy tomonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tarmog'i, salbiy va ijobiy ta'sirlar.

В статье проанализировано влияние Интернета на развитие информационно-коммуникативных технологий, раскрыта его роль в формировании всесторонне развитой личности. Автор отмечает положительные и отрицательные стороны пользования Интернетом и Интернет-кафе.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, Интернет, образование, воспитание, отрицательное и положительное влияние.

The article concerns effect of Internet on information communication technology development, its role in education and upbringing mentally and intellectually advanced generation. Besides, the author investigates both positive and negative sides of Internet, internet cafes and proposes appropriate measures to avoid from negative influences.

Key words. Information communication technology, Internet network, education, upbringing, negative and positive influences.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining turli sohalariga jadal kirib bormoqda va ularni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalarning ta'siri odamlarning turmush tarzi, ta'limi va ishida o'z natijasini ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va ijtimoiy muammolarning hal etilishi uchun muhim omilga aylandi.

Mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'lim sohasida Internet resurslaridan to'la foydalanish yuzasidan ko'plab qonunlar va qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi ta'minlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmoni, "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-1730-sonli, 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarorlari, Hukumatning tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari Kompleksining 2014-yil 9-yanvardagi 21-sonli majlis Qarori, Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 20-fevraldagi 38-sonli buyrug'i va boshqalar. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning asosiy maqsadi mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda o'qitish va o'rganish jarayonida Internet-texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'maklashib, o'qitish dasturlari, o'quv qo'llanmalari, elektron darslik va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, masofaviy ta'lim olish, foydalanuvchilarning testlarda, tadqiqot va ilmiy ishlar tanlovlarida, ta'limga oid loyihalarda va ilmiy maktab ishlarida ishtirokini kuchaytirmoqda.

Yoshlarning mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlash, ularni foydali mashg'ulotlar bilan band qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan ta'lim-tarbiyaga oid ko'plab internet saytlari va axborot resurlari tashkil etilmoqda. Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga binoan 2005-yil sentabrda tashkil etildi.

Ushbu tarmoq mamlakatimiz maktablari, akademik litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ta'lim, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalarni xalqaro axborot tarmog'iga, shu jumladan, Internet tarmog'iga ulash faqat Ziyonet tarmog'i orqali amalga oshirilishi, shaxsiy domen nomlarni ro'yxatga olish, axborot resurslarini Ziyonet tarmog'i Resurs markazining texnologik maydonchasida joylashtirish, saqlash va qo'llab-quvvatlash, elektron pochta xizmatlari ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar hamda boshqa, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy muassasalardagi foydalanuvchilarga bepul ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

Internet tarmog'i bilim olish jarayonida foydalanuvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash, o'quv-tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishga imkon bermoqda.

Albatta, Internet tarmog'i imkoniyatlarining, asosan, yoshlar tarbiyasiga yo'naltirilishi, ta'lim olish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yilishini ta'minlash va nazorat qilish har birimizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda Internetda juda ko'p veb-forumlar, chatlar mavjud bo'lib, o'quvchilar bir-biri bilan muloqotga kirisha olishadi. Internet tarmog'ida ishlayotgan yoshlarning "chat" yoki "odnoklassnik" imkoniyatlaridan behuda emas, balki ilmiy bahs-munozaralar sarf etilishiga yo'naltirilmo'g'i kerak.

Bunday imkoniyatlardan ta'lim-tarbiya maqsadda foydalanish uchun o'qituvchi muayyan mavzuda muloqot, bahs va munozara tashkil etish, masalan, "Videodars", "Virtual auditoriya", "Ta'lim tarmog'i" kabi loyihalarni kiritish mumkin. Internetda bunday faoliyat shakllarini qo'llash ta'lim mazmunini boyitadi, o'quvchilarni o'zaro g'oyalar, fikrlar almashinuviga jalb etadi, bir-birlariga yordam berishga ko'maklashadi, hamkorlikda yangi bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi, guruhdagi o'quv ishi uchun mas'uliyatlarini oshiradi.

Natijada, ularning o'quv-tadqiqotchilik madaniyati yuksalib boradi. Internet tarmog'idan foydalanishda o'ta jiddiy bir muammo mavjud. U maxsus filtrlovchi dasturiy ta'minotning yo'qligi tufayli, internet-sahifalariga axloqsiz o'yinlar, video roliklar, diniy, irqiy diskriminatsiyani targ'ib qiluvchi materiallar va boshqa salbiy hamda yot g'oyalardan iborat materiallar kirib qolishi mumkin.

Ayni paytda axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqalmoqda. Internetdagi axborotning hajmi juda katta bo'lib, turli xilligi tufayli yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ham ko'rsatmoqda. Ya'ni informatsion jarayon ijobiy bo'lishdan tashqari o'zining salbiy tomonlari bilan ham ajralib turadi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya beruvchilar (o'qituvchi, ota-ona, mahalla va ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan muassalar)ning asosiy vazifasi – Internet tarmog'ida mavjud ma'lumotlarni, axborotni tushunib, keraklisini tanlab olishga yo'naltiruvchi tushunchalar berish va shart-sharoitini yaratishdan iborat. Agar o'qituvchi o'z fani bo'yicha Internet saytlar ro'yxatini tuzib, resurslar bilan o'quvchilarni tanishtirsa, shu asosda ularning faoliyati maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va natijada o'quvchilar begona saytlardagi materiallar bilan tanishmay qo'yadilar. O'quv muassasalarining ma'naviyat darslari hamda ota-onalar o'quvchi-yoshlarga axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga doir tushunchalar doimiy ravishda berib borish lozim. Internet hozirda keng imkoniyatlar yaratib beruvchi tarmoq bo'lib, fan o'qituvchilari va o'quvchilarda bu tarmoqda ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, takomillashtirib borish va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Hozirgi kunda qaysi bir sohani olmaylik, uning rivojining zamirida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mujassam.

Kundalik hayotimizda foydalanilayotgan axborot texnologiyalarga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Kommunikatsiya texnologiyalari:

- Mobil telefonlar;
- Mobil internet;
- MMS va SMS.

Internet tizimi xizmatlari:

- Qidiruv tizimlari; (Masalan, google.uz)
- Veb sahifalar va brouzerlar; (Masalan, Internet Explorer. Mozilla Firefox, – Opera)
- Elektron pochta; (Masalan, umail.uz, inbox.uz)
- Ko'ngilochar saytlar.

Internetning interaktiv xizmatlari:

- Internetda savdo-sotiq (masalan: torg.uz);
- Onlayn tele va radio dasturlar (masalan: mtrk.uz);
- Internetda to'lov xizmatlari (masalan, klik.uz).

Multimedia vositalari

- Audio-videodars;
- Elektron darslik;
- Elektron test dasturlari;
- Video, MP3,SD, DVD pleerlar;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan sohalaridan biri internet va uning xizmatlaridir.

Hozirda nafaqat shahar joylarda, balki chekka-chekka qishloqlarda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib borgan.

Bunga misol qilib PAYNET xizmati, bir hududdan ikkinchi bir hududga kompyuter texnikasi yoki telefon tarmog'i yordamida yuborilayotgan pochta xizmati va boshqalarni keltirish mumkin.

Hozirgi kun talabi ham ushbu texnologiyalarni mukammal biladigan, amaliyotda qo'llay oladigan, kompyuter savodxonligini to'liq egallagan, internet tarmog'idan umumli foydalanish bilim va ko'nikmalari shakllangan malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Bugungi kunda yoshlar internet tizimidan o'zlarini qiziqtirayotgan ko'plab savollarga kerakli javoblarni hamda fan va ta'lim yangiliklarini o'rganishda muhim ma'lumotlarni yetarlicha olishmoqda.

Mamlakatimiz yoshlariga ziyo va ilm o'choqlarini ochishda yaqindan yordam berib kelayotgan internet xizmatlaridan Ziyonet tarmog'ini misol qilib keltirish mumkin. Bu tarmoqda o'quvchi-yoshlar, talabalar, yosh pedagoglar va ta'limga qiziquvchi barcha insonlar uchun ta'limga oid, milliy, o'zligimizga xos ma'lumotlar mujassam.

Ta'limga oid juda ko'plab ma'lumotlar va video roliklarni o'zbek, rus va ingliz tilarida UZ domen saytlaridan olishimiz mumkin. Jumladan:

Uzedu.uz – xalq ta'limi vazirligi sayti orqali ko'plab ta'lim saytlarga kirish, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'layotgan o'zgarishlar, grandlarda ishtirok etish va boshqa ma'lumotlarni kiritish mumkin.

Multimedia.uz, mytube.uz – saytlaridan barcha fanlarga oid video roliklar, ochiq darslar, til o'rganishga oid video materiallar, ta'limiy o'yinlar taqdim etilayotganligi yoshlarning mustaqil ta'lim olishda samara berayotir.

Dtm.uz, test.uz, abituriyent.uz – saytlari orqali o'quvchilar kirish imtihonlariga tayyorlanish, o'z bilimlarini sinab ko'rish va imtihonlarga qaysi materiallardan tayyorlanish kerakligi xususidagi ma'lumotlarga ega bo'lishmoqda.

Kitob.uz – saytida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar, qiziqarli ma'lumotlar, til o'rganishga oid o'yinlar, buyuk mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga yo'naltiruvchi g'oyalari va boshqa ko'plab ma'lumotlar taqdim etilmoqda.

Mamlakatimizda bu kabi ko'plab ta'limga oid Internet saytlarining faoliyat ko'rsatayotgani yoshlarning mustaqil ta'lim-tarbiya olishiga xizmat qilmoqda. Ta'limga oid kerakli ma'lumotlarni ishlab topish va ko'chirib olish imkoni mavjud.

Hozirgi kunda AKT sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklardan yoshlarni cheklov orqali to'g'ri yo'lga boshlay olmaymiz. Balki ushbu axborot texnologiyalari va yangiliklardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash mumkin.

Yoshlarni AKT ta'sirlaridan asrash borasida qilinadigan ishlar:

Aloqa vositalaridan foydalanish:

– mobil aloqa tizimlari – tezkor aloqa vositalaridan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish va salbiy oqibatlari;

– internet va mobil aloqa tizimlari – multimedia va axborot tarqatuvchi vositadan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Har bir narsaning foyda va zarari bo'lgani kabi, AKTning ijobiy va salbiy tomonlari bor. AKTdan foydalanishning salbiy jihatlarini ikki turga ajratish mumkin. Birinchidan, sihat-salomatlikka ta'sir etsa, ikkinchidan, yoshlar ma'naviy ongiga ta'sir qiladi. Jami-

yatning quyidagi bo'g'inlarida AKTning salbiy holatlarining oldini olish bo'yicha tushunchalar berish lozim:

Yoshlar ongiga salbiy tomonlarini ta'sirini kamaytirish choralari:

- oilada AKTdan foydalanish tartib-qoidalarini tushuntirish va nazorat qilish;
- mahallada AKT sohasi bo'yicha ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish, mavjud kompyuter xizmatlarini(internet kafe va boshqa) nazorat qilish;
- o'quv muassasasida tushuntirish ishlarini olib borish;
- foydalanilayotgan uyali aloqalarda vositalarida saqlanayotgan ma'lumotlarni tekshiruvdan o'tkazib turish.

AKTdan foydalanish madaniyatini shakllantirish:

- uyali telefonlardan foydalanish tartib-qoidalarini keng targ'ib qilish;
- uyali telefonlar imkoniyatlaridan to'g'ri maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini targ'ib etish;
- internet resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni tashkil etish;

Yoshlar va kommunikatsiya vositalari:

• **Ijobiy:**

- yoshlar telefonlariga oddiyroq bo'lsa ham dasturlar o'rnatishni o'rganadi, keyinroq dasturlardan foydalanish hamda ular yordamida ishlaydi, telefoniga musiqani yuklab olish yoki telefonini kompyuterga ulash texnologiyasini ham o'zlashtirishi mumkin.

• **Salbiy:**

- mobil telefon orqali ko'p gaplashganda undan taraladigan elektromagnit to'lqinlari insonning eshitish va miya tizimi uchun zararli hisoblanadi;
- telefon sababli yosh bolalarda jizzakilik, ruhiy tushkunlik va loqaydlik kabi illatlar yuzaga keladi;
- mobil telefon orqali salbiy oqibatlarga olib keladigan ma'lumotlarni keng tarqalishi mumkin.

Bunda, avvalo ota-onaning ongida “Farzandimga uyali aloqa vositasi kerakmi?” degan fikr paydo bo'lsagina pirovard natijaga erishish mumkin.

Yoshlar va kompyuter o'yinlari:

• **Ijobiy**

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni, klaviatura bilan ishlashni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, zamonaviy axborot vositalarini o'zlashtirishga xizmat qiladi;
- kompyuter o'quv va mashq o'yinlari aql-idrokni, bilim va salohiyatni o'stirishga xizmat qiladi.

• **Salbiy**

- ba'zi o'yinlarning asosiy maqsad va g'oyasini tahlil etadigan bo'lsak, ulardan faqat qo'poruvchilik, vahshiylik va shafqatsizlikni o'rganish mumkin;
- kompyuter o'yinlari yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunda bolalar injiq, xayolparast, ta'sirchan va badjahl bo'lib qoladi.

Internet kafelar, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari:

• **Ijobiy**

- foydalanuvchilarning aksariyati yoshlar;
- kompyuter savodxonligini oshirish;
- yangi zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish;
- ochiq axborot manbaidan foydalanish;
- ma'lumotlarga tezkor ega bo'lish;

-
- turli millatlar madaniyati bilan tanishish;
 - elektron tijorat yutuqlaridan foydalanish;
 - elektron xabarlar almashish va muloqot qilish;
 - o‘zaro fikr almashish va munozaralar tashkil etish va h.k.

Salbiy:

- virtual jangovor kompyuter o‘yinlari;
- dahshatli filmlar;
- yoshlar ongini zaharlovchi turli filmlar va axborotlar.

Internet kafe xizmatidan ijobiy foydalanish:

Maxsus nazorat tashkil etilgan Internet kafelar. Bunday Internet kafelarda mavjud texnologiyalardan va shart-sharoitdan faqatgina ijobiy foydalanish tashkil etilgan.

Bunday Internet kafelar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng targ‘ib qilinishi, rivojlanishi hamda yoshlarning ilm va tafakkurini o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet kafe xizmatidan salbiy foydalanish:

Nazorat mavjud bo‘lmagan Internet kafelar. Bunday Internet kafelarda yoshlar umuman ixtiyoriy foydalanuvchilar ko‘ngliga kelgan ishlarni qilishi, ya‘ni tafakkurimizga yod bo‘lgan axborotlardan foydalanishi, turli xil strategik va yaxshilikka yo‘naltirilgan, shu bilan birga ruhiyatga ta‘sir etuvchi o‘yinlarni o‘ynashi, turli janrdagi musiqalarni tinglashi, videofilmlarni va roliklarni tomosha qilishi mumkin. Bunday Internet kafelar yoshlarning tarbiyasida salbiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganish yetakchi o‘rinni egallaydi. Ya‘ni bugungi kunning zamonaviy malakali mutaxassisi bo‘lishi uchun zamonaviy bilimdan orqada qolmasligi kerakligini yoshlar ongiga singdirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Barkamol avlod yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi.* –T.: 2009-yil 9-dekabr.

2. Karimov I.A. *O‘zbekiston buyuk kelajak sari.* –T.: “O‘zbekiston”, 1998.

3. *O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta‘lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida (2005)...*

4. *“ZiyoNet” axborot tarmog‘ini yanada rivojlantirish to‘g‘risida, (2005)*

Userbay ALEUOV,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti professori,

Tajibay UTEBAYEV,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

QORAQALPOG'ISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TA'LIM ISLOHOTLARINING PEDOGOGIK G'OYALAR IJOBIY O'ZGARISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida mustaqillik yillarida pedagogik qarashlarning taraqqiyoti, ta'lim va fan sohasidagi asosiy muammolar xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, mualliflar olimlarning pedagogik nazariyasi va tarixi yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari, shuningdek, mazkur fanning kelajagi to'g'risida o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim islohoti, pedagogik fikrlar, ta'lim tarixi, didaktika, tarbiya, tarbiya nazariyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'limni modernizatsiyalash.

В статье рассматриваются вопросы развития педагогических взглядов в сфере образования и науки в Каракалпакстане в годы независимости. Освещены основные проблемы, мнения ученых о теории и истории педагогики, определены некоторые перспективы развития педагогической науки.

Ключевые слова. Реформа образования, история образования, дидактика, воспитание, теория воспитания, личностно-ориентированное обучение, модернизация образования.

The article views the issue of pedagogical outlook advancement and basic problems in educational sector in Karakalpakstan during independence years. It also introduces the scientists' thoughts about the theory and history of pedagogy, and valuable information about the future prospects of this field.

Key words. Education, educational reformations, pedagogical outlook, didactics, theory of education, modernization of education.

Prezidentimiz Islom Karimovning "Olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy meroslarimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat", deb ta'kidlashi ham bejiz emas edi. Haqiqatdan ham jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta'lim-tarbiyani ja-

hon andozalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunlarining qabul qilinishi bilan Respublikaning ajralmas qismi bo'lgan suveren davlat Qoraqalpog'istonda ham ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirildi.

Qoraqalpog'istonda mustaqillik yillaridagi pedagogik fikrlarning ta'lim samaradorligiga ta'sir darajasi ilm-fan, shu jumladan, pedagogika fanining tarixiy taraqqiyot yo'li, uning amaliy tajribasidan unumli va o'rinli tarzda ijodiy foydalana olish mustaqil yurtimizda ta'lim tizimi va tarbiya jarayonlaridagi bugungi kun talablarini samarali hal etishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanishi ma'lum bo'ldi.

Qoraqalpog'istonda mustaqillik yillarida ta'lim darajasining pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ta'siri va Qoraqalpog'iston Respublikasida DTS asosida umumiy o'rta ta'lim uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash" muammosi ustida tadqiqot ishlari olib borilgan.

So'ngi yillarda ta'lim tizimida qator yutuqlar qo'lga kiritilganligi ma'lum bo'lib, bu yutuqlar Qoraqalpog'istonda ta'lim berish jarayoning qay darajada amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur islohotlarning samaradorligi avvalo xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'analарimizning saqlanishi, madaniyat, san'at, fan va ta'lim rivoji, zamonaviy fan-texnika bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq holda amalga oshirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida DTS asosida umumiy o'rta ta'lim uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash muammosi ustida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan: olim A.S.Naurizbayevaning "Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflari qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish metodikasi" deb nomlangan tadqiqoti qoraqalpoq tilini rusiyzabon o'quvchilarga samarali o'rgatishdek dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan e'tiborlidir.

Ushbu tadqiqot ishida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida qoraqalpoq tilini o'qitishning pedagogik asoslari belgilab berilgan, ikkinchi tilda gap tuzish malakasini shakllantirish psixologik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, o'quvchilarning gap tuzishlari uchun zarur bo'ladigan lingvodidaktik asoslari ishlab chiqilgan, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Keyingi bosqichlarda bajariladigan mashqlar tizimi yaratilgan, unda qoraqalpoq tilidagi grammatik vositalarning fonetik variantlarini anglash va bu borada yuzaga keladigan murakkabliklar ta'kidlanadi. Ayni paytda bolalarning nutqiy va fikrlash faoliyatining samaradorligini oshirish usullari bayon etilgan.

R. Gaypova "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rgazma vositalaridan foydalanishning uslubiy asoslari" nomli tadqiqot ishida, Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlar orasida geografiya o'ziga xos mavqega ega. Xususan, 5-sinfda o'zlashtirilishi nazarda tutilgan tabiiy geografiya boshlang'ich kursi o'quvchilarga dastlabki geografik bilim asoslari borasida ma'lumotlar berib qolmay, balki ularda o'zlari tug'ilib-o'sgan yurt tabiati, uning o'ziga xos geografik xususiyatlari haqida tushunchalar berish asosida vatanparvarlik hissini tarbiyalashga xizmat qiladi deb ko'rsatadi. Bu boradagi o'quv faoliyati samaradorligini oshirish

ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, ushbu jarayonda mahalliy ko'rgazmali vositalardan maqsadga muvofiq va unumli foydalanishni taqozo etadi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursini o'qitishda mahalliy ko'rgazmali vositalardan foydalanish:

1. Geografik tushunchalarning o'quvchilar tomonidan ko'rgazmalilik asosida o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

2. O'z Vatani bilan yaqindan tanishish imkonini yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy geografiya boshlang'ich kursini mahalliy ko'rgazmali vositalardan foydalanishning holati, pedagogik va psixologik shart-sharoitlari aniqlanganligi va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan omillar belgilangan. Shuningdek, tadqiqotda quyidagi muammolar o'z yechimini topgan, tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rgazma vositalarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy geografiya boshlang'ich kursini mahalliy ko'rgazmali vositalar asosida o'qitish muammosi yaxlit tadqiqot sifatida tadqiq etilgan, tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rgazma vositalarini qo'llashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalarga erishish shartlari ekanligi aniqlangan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rgazma vositalaridan qo'llashga doir samarali metodlar belgilab olingan, uning o'ziga xos tasnifi berilgan, unda mahalliy ko'rgazma vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy-uslubiy tavsiyalar berilgan.

Bekniyazova N. O'quvchilar dunyoqorashini, didini o'stirish, xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, tilning go'zzalligini his ettirish orqali ona tiliga bo'lgan muhabbat, milliy g'ururni yuksaltirish uchun xizmat qiluvchi vositalardan biri-predmet belgisini bildirgan so'zlarni o'rgatishning yaxshi yo'lga quyilmaganligi, bolalar so'z boyligining talab darajasida emasligi, nutq madaniyati shakllanmayotganligi bevosita o'qitish bilan bog'liq ekanligi o'zining nazariy hamda amaliy isbotini topgan.

Predmet belgisini bildirgan so'zlarni o'rgatish mazmunini belgilashning lingvodidaktik asoslaridan kelib chiqqan holda ularni quyidagi ikki guruhga:

1) so'zlashuv nutqiga xos so'zlar;

2) kitobiy (yozma nutqqa xos) so'zlarga ajaratish, mumkin o'rgatishda, mashqlar tizimini ishlab chiqishda mazkur xususiyatlarni xisobga olish, darsliklarda qo'llanish ko'zda tutilgan.

Predmet belgisini bildirgan so'zlarni o'z ma'nosidan qo'chma ma'nosi, tasviriy vosita sifatida qo'llanishi tomon o'rganish yo'li belgilangan. O'quvchilarga predmet belgisini bildirgan so'zlarni o'rgatishda turli didaktik vositalardan, shu jumladan testlar, tarqatma-didaktik materiallardan foydalanishning o'rni va vazifasi aniq ko'rsatilib berilgan. T.Abduxalikovning O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari mavzusidagi ilmiy ishida ko'tarilgan asosiy g'oya kasb-hunar ta'limi nazariyasi va amaliyotida ta'lim sifati monitoringi tushunchasi ilmiy asoslangan hamda uni amalga oshirish konsepsiyasidir. Shuning bilan birga ta'lim sifati monitoringi tushunchasi ilmiy asoslanib va izohlangan, ta'lim sifati monitoringining modeli loyihalashtirilgan va kasb-hunar kollejlari faoliyati natijalarining ko'rsatgichlari, ta'lim sifatini baholashning mezonlari va darajalari ajratib

ko'rsatilib, ilmiy asoslangan. Ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan va ta'lim oluvchi-ta'lim beruvchi, ta'lim-oluvchi-ta'lim muassasasi darajalarida ta'lim sifati monitoringini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan.

M. Ajiyeva esa, "Mahalliy xom-ashyo zaxiralaridan foydalanish asosida kimyoni o'qitish mazmuni va uslubiyotni takomillashtirish" nomli tadqiqot ishida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim samaradorligini rivojlantirishda ilk bor kimyo fanini o'qitish metodikasi bo'yicha akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonida foydalanish yo'llarini ko'rsatadi.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun dars o'tish metodi ishlab chiqilgan, unda Respublikadagi tabiiy xom ashyo zaxiralari, mahsulotlari va ularni qayta ishlab chiqish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan, bundan kelib chiqib shu fan bo'yicha o'quvchilarning yangi bilimini egallashga, o'zlashtirishga va o'tilgan mavzularni mustahkamlash, yangi pedagogik texnologiya orqali vatanidan g'ururlanishi va o'z ustida ishlash qobiliyatlarining oshishiga erishilgan.

Buning natijasida o'quvchilarning o'qitish jarayonidagi galogenlar haqida yangi tasavvurlarni shakllantirish, oshirish va o'stirishdan iboratdir.

So'nggi yillarda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ijtimoiy himoyalash muammolariga doir pedagogik fikrlar pedagogika ilmining ijtimoiy tarbiya tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratib, ijtimoiy zaruriyat sifatida maydonga chiqdi. Chunonchi mustaqillik davrida yaratilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy jihatlariga doir yangicha pedagogik qarashlar shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istonda uzluksiz ta'lim samaradorligini rivojlantirishga pedagogik fikrlarning ta'siriga, mazkur maqola muhim bir muammoning ma'lum qismi bo'lib, uni sohalar bo'yicha keng taraqqiy ettirish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod orzusi*. – T.: "Sharq", 1999. – 182 b.
2. Bekniyazova N. I. *Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ish sinflarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish (predmet belgisini bildirgan so'zlar misolida)* Ped.fan.nom. dis.... Avtoref. – T.: TDPU, 1998. – 22 b.
3. Gaypova R.T. *Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rgazma vositalardan foydalanishning uslubiy asoslari*: Ped.fan.nom.dis... Avtoref. – T.: TDPU, 2006. – 21 b.
4. Абдухаликов Т.Х. *Научно-педагогические основы организации мониторинга качества образования в среднем специальном, профессиональном образовании*: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Т.: ИПССПО, 2003. – С. 19.
5. Ажиева М.Б. *Совершенствование содержания и методики преподавания химии на основе использования местных сырьевых ресурсов (на примере темы "Галогены")*: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Т.: ТГПУ, 2007. – С.19.
6. Наурызбаева А.С. *Методика обучения конструированию предложений уроках каракалпакского языка в начальных классах школ с русским языком обучения*: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Т.: 2002. – С. 22.

Fayzulla TOLIPOV,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
TDTU dotsenti, t.f.n

ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA TALABALARNI ILMIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

(O'zbekiston tarixi darslari misolida)

Annotatsiya

Maqolada talabalarga tarix fanidan arxiv materiallari bilan ishlash bo'yicha tadqiqot olib borish usullari keng yoritilgan. Shuningdek, muallif arxiv materiallarini nafaqat tarix darslarida, balki mashg'ulotlardan tashqarida ham ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha tavsiyalar bergan.

Kalit so'zlar. Arxiv, arxiv materiallari, tarix, mashg'ulot, yozma va og'zaki manbalar, ilmiy tadqiqot.

В статье освещены методы использования архивных материалов в целях научных исследований на уроках истории. Даны рекомендации по проведению научных исследований с использованием архивных материалов на уроках и внеурочных занятиях.

Ключевые слова. Архив, архивные материалы, история, занятие, письменные и устные источники, научное исследование.

In this article there are given methods of using of archives materials with students in scientific research purpose in history lessons. Advisability of teaching history classes in archives with teaching aid is widely examined in this article.

Key words. Archives, archive materials, history, lessons, written and oral sources, scientific research.

Arxiv materiallari barcha moddiy va ma'naviy hamda yozma manbalar qatori tarixiy jarayonlarni haqqoniy hamda xolis o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Aslida arxiv hujjatlaridan ilmiy-tadqiqot va o'quv maqsadlarida foydalaniladi. Shu bois, fanga oid mavzuni yoritish hamda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishda arxiv materiallaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston tarixi fani oliy o'quv yurtlarining birinchi kurslarida o'qitiladi hamda uni o'rganishda ko'p jihatdan tarixiy adabiyotlar bilan birga, arxiv manbalariga ham tayaniladi. Zero, tarix xalq madaniyatining, ma'naviyatining hamda merosining ulkan manbai bo'lsa, arxiv ana shu merosning bebaho xazinasidir.

Respublika Markaziy davlat arxivi, viloyatlar va tumanlarda joylashgan arxivlar mamlakatimiz tarixiga oid ko'plab hujjatlar saqlanadigan muhim markazlardir. Yurtimizdagi mavjud tarixiy fondlarda 40 mingdan ziyod qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq noyob kitoblar va 10 mingdan ortiq sharq tillarida yozilgan hujjatlar saqlanadi. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qo'lyozma hujjatlar, nodir

kitoblar, qimmatli ma'lumotlar xorijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda ham saqlanmoqda. Ana shu qo'lyozma hujjatlar orasida arxiv hujjatlarining o'rnini katta.

Bugungi kunda arxivlardan unumli foydalanish va "Ustoz-shogird" an'anasi asosida talabalarda arxiv hujjatlaridan foydalanish uslublarini to'g'ri shakllantirish yoki oliy o'quv yurtlarida turli usulda darslar tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, olimlar ularga asoslanib tariximizni haqqoniy ilmiy yoritishga erishadilar. Avvalombor arxiv hujjatlaridan nusxalar olib ko'rgazmalar va muzeylar tashkil etilishi mumkin shuningdek, O'zbekiston tarixining ayrim mavzulari bo'yicha hujjatlar to'plami tayyorlanib, ulardan ma'ruza yoki seminar darslarida foydalanish mafsadga muvofiq.

Darsda arxiv hujjatlaridan foydalanishda tegishli idoralar bilan hamkorlikda ishlash yaxshi samara beradi. Masalan, shogirdlar hamkorligida ilmiy maqolalar e'lon qilish, hujjatlar ko'rgazmasini muzeylar bilan birgalikda tashkil etish, hujjatlarni gazeta va jurnallarda e'lon qilish, ular asosida radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar tayyorlash, gazeta va jurnallar tahririyatlari, telestudiyalar, radio bilan hamkorlikda amalga oshirish mumkin. Undagi masalalarni yoritishda va tahlil qilishda namunaviy o'quv dasturiga asoslangan holda mavzularning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanish, sabablari, oqibatlar va natijalariga katta e'tibor qaratildi. Shuningdek, Yurtimiz hududida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqariladi.

Ilmiy-tadqiqot maqsadlarida Davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan darslarda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi usullarda foydalanish mumkin:

- *Arxiv hujjatlardan foydalanishning asosiy shakllaridan biri, ulardan arxivning o'zida foydalanishdir.* Ma'lumki, har bir arxivda o'quv xonalari mavjud. O'qituvchi yoki tadqiqotchi hujjatlardan talabalar ishtirokida yoki ilmiy maqsadlarda, ya'ni individual holda, bevosita arxiv o'quv xonalari foydalanishlari mumkin. Bunda, avvalombor, arxivga a'zo bo'lish, ro'yxatdan o'tish va kerakli hujjatlarga buyurtma berish uslubini o'zlashtirib olish zarur.

- *Ko'rgazmalar tashkil etish, albomlar, plakatlar tayyorlash.* Muhim tarixiy sanalar, voqealarga, tarixiy shaxslarning yubileyariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilish, albomlar, stendlar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalarda hujjatlar, fotosuratlar, xaritalar, kitoblar, va boshqa manbalar namoyish qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

- *Arxiv hujjatlariga oid ma'lumotlardan foydalangan holda maqola, ilmiy-ommabop risolalarni matbuot nashrlarida chop etish, ommaviy axborot vositalarida radioeshittirish va teleko'rsatuvlar tayyorlash.* Ilmiy xodimlar arxiv hujjatlari haqida ayrim tarixiy mavzular bo'yicha ilmiy maqolalar, risolalar tayyorlashlari mumkin. Ularning mavzulari muhim tarixiy voqealarga bag'ishlangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ular matbuotda arxiv, uning hujjatlari to'g'risida maqolalar yozishi, televidenie va radioda chiqishlar qilishlari, shuningdek, muhim ahamiyatga molik hujjatlarni chop etishlari mumkin.

- *Arxivning o'zida tarix darslarini tashkil qilish.* Oliy o'quv yurtlari, xususan, universitetlar, institutlar talabalari uchun tarix darslarini arxivlarning o'zida tashkil etish mumkin, ularda saqlanayotgan hujjatlardan o'sha yerda bevosita foydalanish eng samarali usuldir. Zero, "Ming bor eshitgandan ko'ra bir bor ko'rgan afzal", degan naqlga

amal qiladigan bo'lsak, haqqoniy tarixiy hujjatlarni ko'rish, ulardan foydalanish katta ilmiy ahamiyatga molikdir. Shu bilan birga tarix fani bo'yicha kichik filmlar yaratish, hujjatlarning foto yoki kseronusxa to'plamlarini olish ham mumkin.

Arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadlarda foydalanish asosida olingan ma'lumotlar hamda ulardan kutilayotgan natijalar quyidagicha:

1. Arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadlarda foydalanish tadqiqotchi, o'qituvchi, magistr yoki bakalavr bosqichi talabalarini mustaqil ilmiy ijod qilishga, o'z ustida ishlashga undaydi. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishning dolzarbligi hamda ahamiyatini bayon etishga, mazkur fanning mazmuni hamda mohiyatini, fan bo'yicha o'qitishning ilmiy, o'quv va nazariy mohiyatini ochib berishga undaydi.

2. Hujjatlardan foydalanish, yaqin va uzoq o'tmish haqida tushunchalar berish orqali talabalarning dunyoqarashi, ilmiy tafakkurini, mustaqil ijod qobiliyatlarini namoyon etishlarini va shu asosda yakuniy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

3. Talabalarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalaydi, ularda ilmiy bilim hamda ko'nikmalarni, tashabbus va erkin ilmiy ijod qilish sifatlarini shakllantiradi.

Tarix fanini o'qitishda arxiv manbalaridan foydalanish orqali ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g'oyaviy asoslarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Bunda tarixga xalqning milliy va umuminsoniy qadriyati hamda muqaddas ma'naviy merosi sifatida qarash lozim. Tarixiy hujjatlar, xususan, ma'naviy merosga chuqur hurmatda bo'lish va unga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish lozim. Zero, tarix jamiyat va tabiat hamda insoniyat taraqqiyotining ma'lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlari asosida rivojlanishini to'g'ri anglash bugungi kun talabidir. Fan insonlar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantiruvchi moddiy va ma'naviy merosni vujudga keltiruvchi muhim manba, xalqni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan jipslashtiruvchi asos ekanligini tushuntirish zarur.

O'qituvchi, talabalarga Vatanimiz tarixini o'rganishda yozma manbalarining o'rni katta ekanligini tushuntirgan holda, xalqimizning ulkan moddiy va ma'naviy merosining bir qismi kutubxonalar, arxivlarda saqlanib kelayotganiga urg'u berar ekan, talabalarga manbalarining turlari, shakllari xususida ma'lumotlar beriladi. Yozma manbalar ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan barcha yozma meros namunalari, hujjatlar, kitoblar va boshqalarning o'rni va qimmatini haqida fikr yuritib, mashg'ulotlarni arxiv hujjatlarining ahamiyati katta ekanligi haqidagi xulosalari asosida yakunlaydi.

Mashg'ulot jarayonida o'qituvchi turli dars texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarga mavzuga doir ma'lumotlarni berishga hamda darsga ijodiy yondashishga erishadi. Talaba esa mavzuni yetarlicha o'zlashtirishga, mavzu yuzasidan zarur xulosalar chiqarishga, fanni o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini anglab yetishga, masalalarni o'rganishga va tahlil etishga hamda tegishli topshiriqlarni bajarish jarayonida ilmiy, o'quv-uslubiy ko'nikmalarni shakllantirishga erishadi.

Shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda talabalarda yangicha ilmiy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish, darslarni yangicha ilmiy o'quv-uslubiy yondashuvlar, yangicha manbalar va materiallarga tayangan holda o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, bu O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasining qadim o'choqlaridan biri ekanligini, uning jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni katta ekanligidan kelib chiqib, tarixni ilmiy o'rganishda arxiv manbalarining o'rni hamda ahamiyati muhim ekanligini tasdiqlamoqda.

Umuman manbalar o'z mazmuni va shakliga ko'ra, yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yozma manbalar eng qadimgi rasmlar, yozuvlar, bitiklar, hujjatlar va kitoblardan iboratdir. Hozirgi kunga qadar mamlakatimiz hududida va boshqa hududlarda bitilgan qadimgi va o'rta asrlarga oid yozma manbalarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda qilinadigan ishlar hali ko'p. Mavjud manbalar xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy qadriyatlari xususida to'liq, zarur va yetarli ma'lumotlarni beravermaydi. Shu bois boshqa manbalar kabi arxiv hujjatlarini ham yanada boyitish, ularni sinchiklab o'rganish, tarjima qilish, yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etish muhimdir.

Shuningdek arxiv materiallari asosida alohida guruhlarda ishlash ham ma'lumotlarni yanada kengroq o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. Jumladan, guruhlarda ishlash va uning tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Guruhlarda topshiriqlarni taqsimlash 1-2 min.

2. Jamoalarda topshiriqlar ustida ishlash, savollarga birgalikda navbat bilan javob berish – 15 min.

3. Javoblar va ko'rgazmali qurollar taqdimotini o'tkazish 5-8 min.

Bu usulning asosiy jihati shundaki, o'rganilayotgan mavzu talabalar faoliyatini turlicha namoyon bo'lishiga va umumiy xulosaga kelish bilan yakunlanadi.

Olimlar arxiv hujjatlari asosida, qimmatli dalillarga tayangan holda izlanish olib borishlari haqqoniy tariximizni xolislik asosida o'rganishlari lozim. Dars jarayonida ulardan unumli hamda o'z o'rnida foydalanish professor-o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. O'qituvchi manbalarning turi, shakli, vazifalari hamda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlari xususida talabalarga to'g'ri tushunchalar berishi maqsadga muvofiq. Shunday ekan yozma manbalar tarixni ilmiy-nazariy jihatdan xolis o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda yozma manbalarning o'rnini hamda ahamiyati katta ekanligi, ushbu fanni jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk, milliy g'oya ruhida tarbiyalangan yoshlarni tarbiyalashdagi o'rnini katta ekanligining o'ziyoq arxiv manbalarining talabalar ilmiy faoliyatidagi o'rnini muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (o'quv qo'llanma) – T., 2011.*
2. *Oblomurodov N, Tolipov F. O'zbekiston tarixi. (o'quv-uslubiy qo'llanma) – T., 2009.*
3. *O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: "Sharq", 2001.*

Гавхар КАРИМОВА,
старший научный сотрудник
УзНИИПН им. Т.Н.Кары Ниязи

РАЗРАБОТКА СОДЕРЖАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА В ПРОЦЕССЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Ushbu maqolada pedagog monitoring mazmunini shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonidagi savollar ko'rib chiqilgan. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishdagi shaxsga yo'naltirilgan jarayonini didaktik ta'minlashning asosiy talablari ishlab chiqilgan. Ta'limning zamonaviy etapidagi o'quv tarbiyaviy jarayonga shaxsga yo'naltirilgan omillar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik monitoring, ta'lim va tarbiya, uzluksiz ta'lim, didaktika.

В данной статье рассмотрены вопросы разработки содержания педагогического мониторинга в процессе личностно-ориентированного образования. Названы основные требования к разработке дидактического обеспечения личностно-ориентированного процесса обучения и воспитания подрастающего поколения. Перечислены факторы личностно-ориентированного подхода к учебно-воспитательному процессу на современном этапе образования.

Ключевые слова. Личностно-ориентированное образование, педагогический мониторинг, обучение, воспитание, непрерывное образование,

In this article are discussed about working out the content of pedagogic monitoring during the process of personal oriented education.

There are given basic demands of reworking of didactic provides of the personal oriented approach process and training of a young generation.

Key words. Personal oriented approach, pedagogic monitoring, learning, training, students, continuous education.

Личностно-ориентированное образование есть системное построение взаимосвязи учения, обучения и развития. Это целостный образовательный процесс, существенно отличающийся от традиционного учебно-воспитательного процесса.

Содержание личностно-ориентированного образования, его средства и методы структурируются так, что позволяют ученику проявить избирательность к предметному материалу, его виду и форме. В этих целях разрабатываются индивидуальные программы обучения, которые моделируют исследовательское мышление. Всякое обучение – это есть создание условий для развития личности и, следовательно, оно является развивающим, личностно-ориентированным.

Личностно-ориентированное образование есть системное построение взаимосвязи учения, обучения и развития. Это целостный образовательный процесс,

существенно отличающийся от традиционного учебно-воспитательного процесса.

Содержание личностно-ориентированного образования, его средства и методы структурируются так, что позволяют ученику проявить избирательность к предметному материалу, его виду и форме. В этих целях разрабатываются индивидуальные программы обучения, которые моделируют исследовательское мышление. Всякое обучение – это есть создание условий для развития личности и, следовательно, оно является развивающим, личностно-ориентированным.

Личностно-ориентированное обучение используется в педагогической практике нашего времени довольно часто, и каждому педагогу необходимо знать основы личностно-ориентированного развивающего обучения.

И.С. Якиманская утверждает, что каждый ученик как носитель индивидуально-личного (субъектного) опыта "...прежде всего, стремится к раскрытию собственного потенциала, данного ему от природы в силу индивидуальной организации".

Личностно-ориентированное обучение – это такое обучение, где во главу угла ставится личность ученика, его самобытность, самооценность, субъектный опыт. Личностно-ориентированное обучение исходит из признания уникальности субъектного опыта самого ученика, как важного источника индивидуальной жизнедеятельности, проявляемой, в частности, в познании.

Признание ученика главной действующей фигурой всего образовательного процесса и есть, по нашему мнению, личностно-ориентированная педагогика. Поэтому при проектировании образовательного процесса мы исходим из признания двух равноправных источников: обучения и учения. Последнее является самостоятельным, личностно значимым, а потому очень действенным источником развития личности.

Существующие модели личностно-ориентированной педагогики можно условно разделить на три основные группы: социально-педагогическая; предметно-дидактическая; психологическая.

Социально-педагогическая модель реализует требования общества, которое формулирует социальный заказ образованию: воспитать личность с заранее заданными свойствами. Общество через все имеющиеся образовательные институты формирует типовую модель такой личности. Задача школы заключается в том, чтобы каждый ученик по мере взросления соответствовал этой модели, был ее конкретным носителем. Личность при этом понимается как носитель и выразитель массовой культуры.

Предметно-дидактическая модель личностно-ориентированной педагогики связана с организацией научных знаний в системе образования, с учетом их предметного содержания. Это своеобразная предметная дифференциация, обеспечивающая индивидуальный подход в обучении.

Психологическая модель личностно-ориентированной педагогики сводится к признанию различий в познавательных способностях, понимаемых как сложное психическое образование, обусловленное генетическими, анатомо-физиологическими, социальными причинами и факторами в их сложном взаимодействии и взаимовлиянии. В образовательном процессе познавательные способности проявляются в обучаемости, которая определяется как индивидуальная способность к усвоению знаний. Принципы построения данной системы нацелены на всестороннее развитие личности.

В традиционной педагогике процесс обучения и воспитания исходит из признания ведущей роли (детерминации) внешних воздействий (роли педагога, коллектива, группы), а не саморазвития отдельной личности. Аналогичным образом разрабатываются и соответствующие дидактические модели, через которые реализовывается индивидуальный подход в обучении. Он сводится в основном к разделению учащихся на сильных, средних и слабых, к педагогической коррекции через специальную организацию учебного материала по степени его объективной

сложности, уровню требований к овладению этим материалом (программированное, проблемное обучение).

В настоящее время разрабатывается иной подход к пониманию и организации личностно-ориентированного обучения. В основе его лежит признание индивидуальности, самобытности, самооценка каждого человека, его развития не как “коллективного субъекта”, а прежде всего как индивида, наделенного своим неповторимым субъектным опытом.

Так, обучение не столько задает вектор развития, сколько создает для этого все необходимые условия. Тем самым существенно меняется функция обучения. Его задача – не планировать общую, единую и обязательную для всех линию психического развития, а помогать каждому ученику с учетом имеющегося у него опыта познания совершенствовать свои индивидуальные способности, развиваться как личность. В этом случае исходные моменты – обучения – не реализация его конечных целей (планируемых результатов), а раскрытие индивидуальных познавательных возможностей каждого ученика и определение педагогических условий, необходимых для их удовлетворения.

Развитие способностей ученика – основная задача личностно-ориентированной педагогики, где “вектор” развития строится не от обучения к учению а, наоборот, от ученика к определению педагогических воздействий, способствующих его развитию. На это должен быть нацелен весь современный образовательный процесс.

Эффект создания и управления личностно-ориентированным обучением зависит не только от организации, но в значительной мере от индивидуальных способностей ученика как основного субъекта образовательного процесса. Это делает само проектирование гибким, вариативным, многофакторным.

Проектирование личностно-ориентированной системы обучения предполагает:

- признание ученика основным субъектом процесса обучения;
- определение цели проектирования – развитие индивидуальных способностей ученика;
- определение средств, обеспечивающих реализацию поставленной цели посредством выявления и структурирования субъектного опыта ученика, его направленного развития в процессе обучения.

Реализация личностно-ориентированного обучения требует разработки такого содержания образования, куда включаются не только научные знания, но и приемы и методы познания. При этом важной является разработка специальных форм взаимодействия участников образовательного процесса (учеников, учителей, родителей).

Технологизация личностно-ориентированного образовательного процесса предполагает специальное конструирование учебного текста, дидактического материала, методических рекомендаций и их использование, типов учебного диалога, форм контроля за личностным развитием ученика в ходе овладения знаниями. Только при наличии дидактического обеспечения реализуется принцип субъектности образования.

Основные требования разработки дидактического обеспечения личностно-ориентированного процесса:

- учебный материал (характер его предъявления) должен обеспечивать выявление содержания субъектного опыта ученика, включая опыт его предшествующего обучения;
- изложение знаний в учебнике (учителем) должно быть направлено не только на расширение их объема, структурирование, интегрирование, обобщение предметного содержания, но и на преобразование наличного опыта каждого ученика;
- в ходе обучения необходимо постоянное согласование опыта ученика с научным содержанием задаваемых знаний;

- активное стимулирование ученика к самооценке образовательной деятельности должно обеспечивать ему возможность самообразования, саморазвития, самовыражения в ходе овладения знаниями;

- учебный материал должен быть организован таким образом, чтобы ученик имел возможность выбора при выполнении заданий и решении задач;

- необходимо стимулировать учащихся к самостоятельному выбору и использованию наиболее значимых для них способов проработки учебного материала;

- при введении знаний о приемах выполнения учебных действий необходимо выделять общелогические и специфические предметные приемы учебной работы с учетом их функций в личностном развитии;

- необходимо обеспечивать контроль и оценку не только результата, но главным образом процесса учения, т.е. тех трансформаций, которые осуществляет ученик, усваивая учебный материал;

- образовательный процесс должен обеспечивать построение, реализацию, рефлексию, оценку учения как субъектной деятельности. Для этого необходимо выделение единиц учения, их описание, использование учителем на уроке, в индивидуальной работе (различные формы коррекции, репетиторства).

Развитие ученика как личности (его социализация) идет не только путем овладения им нормативной деятельностью, но и через постоянное обогащение, преобразование субъектного опыта, как важного источника собственного развития. Учение как субъектная деятельность ученика, обеспечивающая познание (усвоение), должно разворачиваться как процесс, описываться в соответствующих терминах, отражающих его природу и психологическое содержание.

Необходимость личностно-ориентированного подхода к учебно-воспитательному процессу на современном этапе обуславливается объективно существующей совокупностью факторов:

- динамичное развитие общества требует формирования в человеке не столько социально типичного, сколько ярко индивидуального, позволяющего обучаемому стать и оставаться самим собой в постоянно изменяющемся социуме;

- новому поколению обучаемых присущи такие качества личности, как психологическая раскрепощенность и независимость, что естественно требует новых подходов и технологий во взаимодействии учителя (преподавателя) и ученика;

- современные образовательные учреждения остро нуждаются в гуманизации отношений обучаемых и взрослых обучающихся, взаимном уважении, в демократизации жизнедеятельности школьного (студенческого) сообщества.

Таким образом, можно сделать вывод о том, что личностно-ориентированное обучение играет важную роль в системе образования. Поскольку современное образование должно быть направлено на развитие личности ученика, раскрытие его возможностей, талантов, становление его самосознания и самореализации, которая способствует более детальной разработке содержания педагогического мониторинга в процессе личностно-ориентированного образования обучающихся.

Использованная литература:

1. Якиманская И.С. *Развитие пространственного мышления школьника*. – Москва, 1980.

2. Джураева Р.Х., Андриянова В.И. *Современные педагогические технологии в личностно-ориентированном обучении и воспитании: Учебно-методическое пособие для учителей и воспитателей*. – Ташкент: ООО “Сано-Стандарт”, 2008. – С.346.

3. *Разработка технологии личностно-ориентированного обучения // Вопросы психологии*. – Москва, 1995. – № 2.

Нигора АХМЕДОВА,

соискатель Ташкентского государственного
педагогического университета им. Низами

ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

Maqolada boshlang'ich sinflarda chet tillarini o'qitish jarayonini intensivlashtirishda kompyuter dasturlari va o'rgatuvchi disklar ahamiyati tahlil qilingan. Muallif fikricha, chet tili darslarida kompyuter va multimediya dasturlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Intensifikatsiyalash, kompyuter dasturlari, o'quv jarayoni, chet tillarni o'qitish jarayoni, multimediya.

В данной статье рассматриваются вопросы использования компьютерных программ и обучающих дисков как средства интенсификации процесса обучения иностранным языкам в начальных классах. По мнению автора, применение компьютера и мультимедийных программ на уроках иностранного языка способствует повышению эффективности процесса обучения.

Ключевые слова. Интенсификация, компьютерные программы, учебный процесс, процесс обучения иностранным языкам, мультимедиа.

The given article considers computer programs and training disks as factor of intensification process of education foreign language in elementary grades.

Key words. Intensification, teacher, computer programs, pupil, process of education, foreign language.

Новые мультимедийные технологии дают высокий эффект обучения иностранному языку, если они подкреплены передовыми методическими приемами.

Основные виды работы с персональным компьютером на уроках английского языка можно разделить на две группы: использование обучающих и познавательных программ на CD и создание программ в различных приложениях самим учителем с дальнейшим применением на уроках при объяснении материала или при его отработке и проверке.

Использование обучающих и познавательных программ на CD – наиболее доступный способ использования компьютера как на уроках, так и во внеурочное время. Учитель может проводить групповую и индивидуальную работу с детьми, используя обучающие программы с игровыми элементами: “Triple Play Plus”, “Euro Talk. Elementary”, “Euro Talk. Intermediate”, “Professor Higgins”, “Learn to Speak English”.

Овладение языком через игру – один из основных принципов системы обучения в начальных классах. Разнообразные мультимедийные игры способствуют расширению словарного запаса, знакомят с грамматикой английского языка, учат понимать речь на слух, правильно писать.

Мультимедийные возможности позволяют прослушивать речь на изучаемом языке, адаптируя ее в соответствии со своим уровнем восприятия, а регулирование скорости звучания позволяет разбивать фразы на отдельные слова, параллельно сопоставляя произношение и написание слов. Использование микрофона и автоматического контроля произношения позволяет скорректировать фонетические навыки.

В каждую программу заложена задача, желание решить которую создает позитивную мотивацию к обучению. Усвоение учебного материала происходит без какого-либо стороннего побуждения.

Н.Э. Аносова пишет: Для работы со всем классом применяются программы, предполагающие возможность соучастия детей в процессе обучения. За клавиатурой работает учитель, а учащиеся совместно обсуждают материал, который выводится на экран. Учащиеся во время такого урока делятся на группы, где работают совместно, а учитель, анализируя выводы, сделанные ими, вводит результат в компьютер.

Среди наиболее удачных программ надо отметить Triple Play Plus (Multimedia Teacher 3, вышедшую еще в 1997 г. С ее помощью можно обучать детей восприятию речи на слух, к тому же они учатся читать, правильно произносить на трех уровнях, что дает возможность учителю сравнивать (при наличии микрофона) речь учащихся с эталоном, а также ассимилировать анализируемый голос под особенности говорящего (выбор – мужчина/женщина/ребенок). Наиболее успешно используемая часть программы – это описание внешности. Учащимся предлагается создать фоторобот представленного человека. При помощи мыши или микрофона можно собрать портрет и отработать всю лексику по описанию внешности. Для более полной отработки темы в программе имеются и другие интересные варианты задач и игр. Выполняя задание по рисунку, который представляет собой мозаику частей тела человека, отрабатывается обширный словарный запас. На данном диске есть материал для описания жилища. С его помощью отрабатываются предлоги. Учащиеся должны найти карточки или предметы обихода, расположенные в комнате (кухне). На диске имеются следующие темы: Food and Drink; Numbers: Home and Office: Places and Transportation; People; Activities.

Среди наиболее широко известных программ на CD – рекомендованный Министерством образования РФ компакт-диск “Профессор Хиггинс”. Программа рассчитана на индивидуальную работу учащегося по фонетике и грамматике. Данный диск нашел применение в следующих видах работы:

- отработка фонетики (с микрофоном) на начальном этапе обучения.
- постановка произношения пословицы скороговорок (с микрофоном).
- индивидуальный зачет по изученным грамматическим темам, которые варьируются по уровню сложности, позволяя один и тот же грамматический материал отработать с учащимися разных классов, учитывая их подготовку.

Диски Euro Talk имеют, три уровня: Elementary, Intermediate, Advanced. Применяются они для индивидуальной отработки материала. Наиболее интересным представляется возможность выдавать учащимся “международный сертификат”, так как при наборе определенного количества очков программа (при наличии

принтера) отпечатывает сертификат на занесенную в программу фамилию даже с подписями руководителей группы Euro Talk. Этот диск удобно применять на первых этапах обучения сначала с наиболее сильными учащимися группы.

На старших этапах для всесторонней отработки лексических тем с успехом использовалась программа Learn to Speak English (2 CD). Диски, состоящие из 30 тем-уроков, имеют большой набор диалогов, упражнений, игр на эти темы, а также видеоролики о городах. Причем учитель может демонстрировать видеофрагменты с английскими субтитрами или без них. При использовании данной программы в течение двух-трех уроков можно всесторонне отработать имеющиеся темы.

Используются такие упражнения и методические приёмы, как, например: Упражнения для овладения диалогом. Часто в таких обучающих программах запрограммирован самоконтроль над этим процессом. Возможны такие виды работы, как:

- Диалог со свободно конструируемым ответом. Такой диалог обеспечивается обучающей программой со всеми возможными вариантами ответов на каждый поставленный компьютером вопрос с тем, чтобы последний мог “узнать” и “оценить” правильность ответа;

- Диалог с запрограммированным ответом. Такой диалог обеспечивается несколькими ответами, один или два из которых являются правильной реакцией на сказанное. Если же обучаемый выбирает неправильный ответ, то в программе есть реплика, которая не только поправит обучаемого, но и сделает это в юмористическом режиме. Такие реплики неизменно вызывают положительную реакцию обучаемого и служат для более стабильного запоминания нужного умения;

- Вопросно-ответный диалог. Суть работы обучаемого состоит в том, чтобы участвовать в воспроизведении части диалога, используя в качестве основы языковой материал, содержащийся в диалоге и показанный на экране компьютера в диалоговом окне. Производится запись произносимого материала диалога, которую можно прослушать для оценки качества воспроизведения диалога. При этом обучающей программой имитируется полное участие обучаемого в диалоге;

Упражнения для овладения лексикой, грамматикой и синтаксисом. Возможны такие виды работы, как:

- Упражнения на заполнение пропусков. Обучающая программа предлагает обучаемому набор предложений с пропусками. В случае неверного ответа возможны следующие варианты развития событий:

- запрет обучаемому переходить к следующему заданию или предложению;

- переход обучаемого к следующему заданию или предложению с последующей их корректировкой, а именно выделение другим цветом правильного ответа или проставление знака “крестик”, означающего неверный ответ;

- Упражнения в виде кроссвордов, где при написании слова неправильная буква высвечивается серым, а не чёрным цветом;

- Упражнения в виде игры на составление предложений, во время которой обучаемый наводит курсор на необходимое слово, которое после этого перемещается в составляемое предложение и становится за последним перемещённым словом. Недостатком такой игры является невозможность переместить в необходимое место любое слово, перемещённое ранее последнего без коренной ломки всего предложения;

- Обучающая программа предлагает соотнести два списка слов (узбекских и иностранных) и найти эквивалентные пары этих слов в обоих языках;

- Обучающая программа предлагает соотнести два списка иностранных слов и установить пары синонимов или антонимов.

Применение презентаций на уроках дает возможность введения анимации, изменения и выделения наиболее значимых элементов при помощи цвета, шрифта, наклона, размера. Так, например, при объяснении образования вопросов в английском языке учащиеся видят, как постепенно перестраивается предложение из повествовательного в вопросительное. При необходимости можно повторить тот или иной этап. Кроме этого, в презентацию можно добавить фотографии, схемы или таблицы, что еще более усиливает эффект воздействия. Подобный прием в значительной степени опирается на визуализацию, что ведет к лучшему усвоению материала. Однако подготовка такого вида программ требует определенной подготовки учителя, а именно умения работать в Microsoft Word и Microsoft Power Point. При достаточном же опыте работы создание презентации в Microsoft Power Point занимает в среднем от одного до трех часов, в зависимости от сложности материала.

Кроме Microsoft Power Point учебные материалы для использования на уроках можно создавать и в Microsoft Word. Успешно в практике обучения используются документы и шаблоны для проверки запоминания лексики. Наличие spellера у компьютера в данном случае выступает не облегчающим фактором, а вспомогательным средством обучения правильности написания, так как усиливает процессы запоминания визуального образа лексических единиц.

Обобщая опыт применения компьютера и мультимедийных технологий на уроках иностранного языка и во внеурочное время, можно сделать вывод:

- мультимедийные технологии ускоряют процесс обучения;
- они способствуют резкому росту интереса учащихся к предмету;
- улучшают качество усвоения материала;
- позволяют индивидуализировать процесс обучения;
- дают возможность избежать субъективности оценки.

Таким образом, внедрение компьютерных технологий создает предпосылки для интенсификации образовательного процесса. Они позволяют на практике использовать психолого-педагогические разработки, обеспечивающие переход от механического усвоения знаний к овладению умением самостоятельно приобретать новые знания. Компьютерные технологии способствуют раскрытию, сохранению и развитию личностных качеств обучаемых.

Использованная литература:

1. Аносова Н.Э. Обучающие компьютерные программы – новые возможности преподавания иностранного языка // *Вопросы филологии*. – 1995. – № 1. – С.102-103.
2. Китайгородская Г.А., Леонтьев А.А. Содержание и границы понятия интенсивное обучение. В сб.: *Методика и психология интенсивного обучения иностранным языкам*. Изд. АПН СССР, М., 1990.
3. Денисова Л.Г. Интенсивная методика на внеклассных занятиях в школе. – *Иностранные языки в школе*, 1990, № 2, С. 69-76, № 3, С. 58 – 63.
4. Денисова Л.Г. Место интенсивной методики в системе обучения иностранному языку в средней школе. – *Иностранные языки в школе*, 1995, № 4, С. 6 – 12.

Шерзодхон КУДРАТХОДЖАЕВ,
доцент, кандидат политических наук

АКТУАЛЬНОСТЬ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация

Mazkur maqolada mediata'limning mohiyati va uning global informatsion kenglik sharoitidagi ahamiyati tahlil etilgan. Xorijiy mamlakatlar misolida mediata'lim yo'nalishi o'r-ganilib, uning turli davlatlarda joriy etish tajribasi keltirilgan. Shuningdek, muallif ta'lim tizimida mazkur yo'nalishning kiritilishi bo'yicha bir qator uslubiy tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Axborot, kommunikatsiya, media, ommaviy axborot vositalari, mediasa-vodxonlik, mediata'lim, mediamadaniyat.

В статье проанализированы значение и актуальность медиаобразования в усло-виях глобального информационного пространства. Изучены направления медиаобразо-вания в зарубежных странах приведены примеры из зарубежного опыта, разработаны предложения по внедрению данного направления в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова. Информация, коммуникация, средства массовой информации, медиаграмотность, медиаобразование, медиакультура.

In the article has been analyzed importance and actuality of mass media education in the conditions of global information area. Has been given examples from foreign practice, developed suggestions to implement of the given direction in Uzbekistan.

Key words. Information, communication, media, mass-media, media literacy, media education, media culture.

Вопросы специализации в ходе подготовки журналистских кадров сегод-ня являются актуальными в силу увеличения информационного влия-ния во всех сферах человеческой деятельности. Перед системой жур-налистского образования в Узбекистане сегодня поставлена задача подготовки специалистов, владеющих современными технологиями и умеющих работать с информацией. В этой связи функционирует магистратура для специалистов, имеющих другую базовую специальность.

Здесь, речь идет об образованной при Национальном Университете Узбекистана новой структуре – Высших курсов журналистики. Согласно Положению, данные курсы являются двухгодичными и нацелены на подготов-ку журналистских кадров, имеющих другую базовую специализацию. И поэтому, представляется весьма актуальным, чтоб педагоги, юристы, врачи, экономисты, строители и другие специалисты бакалавры получали знания и в сфере медиа-образования. Ведь в итоге, полученные знания и навыки, помогут им специали-

зироваться в освещении экономической, политической, аграрной, культурной и других направлений. Решение вопроса о медиаобразовании и медиаграмотности обусловлено необходимостью информационного обеспечения всех уровней производственных процессов. В каждой организации сегодня есть потребность в специалистах, владеющих аналитическими способностями и имеющих навыки работы с информационными материалами. Ведущие зарубежные аналитики считают, что в условиях информационного общества представляется чрезвычайно важным включение людей уже на ранних этапах их сознательной жизни в самостоятельный поиск необходимой информации, обучение творческому отношению к тому, что они видят, читают, слушают по различным медийным каналам. В данном случае, поднимается вопрос о необходимости развивать умение анализировать и оценивать медиатексты.

Изучение опыта зарубежных стран относительно данного направления показывает, что в начале XXI века процесс медиаобразования на Западе начал приобретать характер массового развития. В таких странах как Канада, Австралия и Соединённое Королевство ему придаётся первостепенное значение.

В Германии медиаобразование является, к примеру, одним из направлений деятельности Департамента по защите молодежи Северной Саксонии (LJS), основанного в 1978 году. Основная цель работы с медиа – “предохранительная” – защитить детей и молодежь от негативных последствий воздействия медиа. LJS работает в основном с воспитателями, социальными педагогами, учителями и т.д. Им предоставляются возможности изучить теорию и историю медиа, методические подходы в медиаобразовании с помощью специальных занятий по повышению квалификации, информационных мероприятий, семинаров, выполнения совместных и независимых проектов, разработки информационных и рабочих материалов, организации и координации кружков.

Как известно, США с давних пор является мировым лидером в области медиакультуры. Американская пресса, радио, звукозапись и особенно кинематограф, телевидение и Интернет практически доминируют в информационном поле большинства регионов планеты. Влияние средств массовой информации и коммуникации США на формирование сознания подрастающего поколения всего мира трудно переоценить.

В отличие от медиакультуры, медиаобразование в США поначалу развивалось не столь интенсивно, как, к примеру, в Канаде или в Великобритании, однако к началу XXI века уже можно говорить о сложившейся системе американского медиаобразования, которая с помощью интернет-сайтов, публикаций, конференций оказывает влияние и на другие страны. В США активно действуют несколько крупных ассоциаций медиаобразования: Центр медиаобразования (Center for Media Education) в Вашингтоне, Центр медиаграмотности (Center for Media Literacy) в Лос-Анджелесе, движение “Граждане за медиаграмотность” (Citizens for Media Literacy) в Северной Каролине, Центр медиаобразования (Media Education Center) в Нью-Мексико, Образовательный видеоцентр (Educational Video Center) в Нью-Йорке, Ассоциации “Стратегии по медиаграмотности” (Strategies for Media Literacy) и Национальный альянс медиаискусств и культуры (National Alliance for Media Arts and Culture) в Сан-Франциско, Национальный совет по телевидению и медиа (National Telemedia Council) в Вирджинии, Центр медиаискусств (Media Arts Center) в Сиэтле, Фонд медиаобразования (Media Education Foundation) и др.

Вместе с тем до сих пор за рубежом наблюдается своего рода смешивание понятий “медиаобразования” и “медиаграмотности”. Немалые разночтения можно обнаружить и в теоретических подходах к медиаобразованию, к выделению его наиболее важных целей, задач, способов внедрения в учебный процесс и т.д.

“Медиаобразование” (media education) – это изучение медиа, которое отличается от обучения с помощью медиа. Медиаобразование связано одновременно с познанием того, как создаются и распространяются медиатексты, так и с развитием аналитических способностей для интерпретации и оценки их содержания (тогда как изучение медиа (*media studies*) обычно связывается с практической работой по созданию медиатекстов). Как медиаобразование (*media education*), так и изучение медиа (*media studies*) направлены на достижение целей медиаграмотности (*media literacy*)”.

В отличие от этого **“медиаграмотность” (media literacy)** – помогает учащимся/студентам общаться с медиа под критическим углом зрения, с пониманием значимости медиа в их жизни. Медиаграмотный (*media-literate*) учащийся/студент должен быть способен критически и осознанно оценивать медиатексты, поддерживать критическую дистанцию по отношению к популярной культуре и сопротивляться манипуляциям. В более специфической терминологии обучение медиаграмотности должно предоставить учащимся/студентам возможность:

- развивать способности, знания и отношения, необходимые для анализа способов, с помощью которых медиа активно конструируют реальность;
- получать знания социального, культурного, политического и экономического значения этих конструкций и распространяемых ими ценностей;
- развивать уровень оценки (*appreciation*) и эстетического восприятия медиатекстов;
- декодировать медиатексты, чтобы распознать и оценить культурные ценности, практическую значимость, идеи, содержащиеся в них;
- распознавать, анализировать и применять разнообразие технического использования и создания медиатекстов;
- осознавать, что те, кто создают (конструируют) медиатексты, делают это, исходя из множества мотивов (контроль, давление и др.) – экономических, политических, организационных, технических, социальных и культурных;
- понимать, что каждый человек вовлечен в селективный и аналитический процесс исследования медиатекстов. Этот процесс и связанные с ним смыслы/значения зависят от психологических, социальных и природных факторов.

Некоторые педагоги слишком упрощенно понимают медиаобразование как развитие “критического мышления”, сужая спектр изучения до работы с рекламой или телевизионными информационными программами (где, естественно, легче всего выявить те или иные попытки манипуляции) и полностью оставляя в стороне художественную сферу медиа.

Считается, что аудитории надо дать ориентир в условиях переизбытка разнообразной информации, научить грамотно воспринимать ее, понимать, анализировать, иметь представление о механизмах и последствиях ее влияния на зрителей, читателей и слушателей. Односторонняя или искаженная информация (которая передается, к примеру, телевидением, обладающим большой си-

лой пропагандистского внушения), несомненно, нуждается в осмыслении. Вот почему считается полезным, чтобы учащиеся могли определить: различия между заданными и общеизвестными фактами, требующими проверки; надежность источника информации; пристрастность суждения; неясные или двусмысленные аргументы; логическую несовместимость в цепи рассуждения и т.д.

Цели медиаобразования могут меняться в зависимости от конкретной тематики и задач занятий, от возраста аудитории, от той или иной теоретической базы медиаобразования и т.д., однако практика показывает, что так или иначе, в силу тех или иных причин многие медиапедагоги могут довольно четко выделить наиболее важные для них цели.

В Узбекистане медиаобразование в том плане, как это представлено в зарубежных странах не внедрено. Однако, учитывая то, что расширение медиа-среды и Интернета в Узбекистане создает предпосылки для организации на отечественном медиа-поле нового мультикультурного информационного пространства в системе высшего образования по отдельным специальностям внедрены предметы и специальные курсы по информационной безопасности и современным информационным угрозам.

Целями подобных специальных курсов и предметов являются:

- изучение средств массовой информации и Интернета как эффективного средства воздействия на общественное сознание;
- изучение и умение различать средств воздействия посредством СМИ и Интернета;
- изучение отечественного и зарубежного опыта;
- приобретение умений различать целевые установки воздействия посредством СМИ и Интернета;
- изучение механизмов ответной реакции на идеологическое воздействие посредством СМИ и Интернета;
- предоставление информации и знаний по информационным атакам, изучение опыта зарубежных стран на примере событий, произошедших в мире.

Нужно отметить, что в школах, колледжах, лицеях учащиеся очень часто за дополнительными образовательными и справочными данными обращаются в различные СМИ, но направления по работе с такими источниками им не предоставляются. В результате молодежь, зная и не зная, как работать с источниками, не умея ориентироваться в информационном пространстве, всецело поглощает имеющуюся и доступную информацию, зачастую ангажированную. В данном случае, в условиях глобализации информационных процессов и расширения медиа-среды и медиа пространства особую значимость приобретает важный вопрос об информационной культуре населения, которую как показывает практика зарубежных стран, необходимо формировать уже на стадии школьного образования.

Актуальность введения этого нового направления в сферу образования очевидна и из идей Президента Узбекистана Ислама Каримова. В частности, в третьей главе произведения “Юксак маънавият энгилмас куч” он подробно излагает вопрос о процессах глобализации и угрозах духовности. Автор отмечает, что глобализация, как социальное явление имеет как положительные, так и отрицательные стороны (аспекты), оказывает неоднозначное влияние на дальнейшее развитие государств и народов.

Несомненно, динамичное ускорение жизни способствует развитию межинтеграционных процессов, усилению сотрудничества, создаёт широкие возможности для иностранных инвестиций, движению капиталов, товаров и услуг, но как показывают жизненные реалии, достижения прогресса можно использовать как в позитивных, так и в негативных целях.

Данная тема соприкасается также с тезисом о том, что результаты глобализации в сегодняшних условиях превращаются в своего рода оружие идеологического воздействия и разные политические центры используют их в корыстных целях. Как справедливо отметил Президент Узбекистана Ислам Каримов “На сегодняшний день идеологические полигоны имеют большую силу, чем ядерные полигоны”.

Совершенно очевидно, что обилие распространяемой информации по радио, ТВ, печати, Интернет дезориентирует взрослое население, не говоря уже о воздействии на молодежь. Однако неразумно в противодействие ставить запреты и огораживаться. Метод цензуры или любые ограничения, а также фильтрация информационных потоков каким-либо органом обычно бывают рассчитаны на краткосрочную перспективу и малоэффективны.

В связи с этим, актуализируется введение нового комплекса учебных дисциплин, которые бы помогли молодому поколению, магистрам, студентам и учащимся колледжей, а также школьникам различать и распознавать виды и типы СМИ, уметь ориентироваться в них, чувствовать истинный посыл информации, уметь читать между строк, понимать и распознавать скрытый смысл. Медиаобразование должно помочь аудитории, самой отличать: где правда, где ложь, где достоверная информация, а где дезинформация. И таким образом, реципиент мог бы фильтровать информацию и противостоять негативному информационному воздействию извне. Этот метод, в отличие от первого способствует формированию информационного иммунитета аудитории, повышению ее политического и гражданского самосознания.

Мы живём в эпоху когда, происходит усиление влияния Интернета на общество, социальные группы и индивидов, и, учитывая возможности каждого гражданина стать автором, соавтором в информационном обмене, необходимо ставить вопрос о непрерывном медиаобразовании населения.

Использованная литература:

1. Каримов И.А. *Юксак маънавият – энгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008.*
2. *International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2001.3. Duncan, 1989.*

Фахридин ХАЛИЛОВ,
д.п.н.проф. ТГПУ имени Низами
Сурайё ХОДЖАЕВА,
старший преподаватель Узбекской
государственной консерватории

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

Ushbu maqola maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida musiqiy-ritmik harakatlardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif ta'lim muassasalarida bolalarning normal jismoniy rivojlanishini ta'minlash uchun ma'lum harakat turlari bilan bog'liq bo'lgan musiqaviy-ritmik harakatlarini muhimligini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Ritmika, musiqa, musiqa ta'limi, gimnastika, xotira, idrok etish, hissiyot, eshitish qobiliyati.

Статья посвящена проблеме обучения детей школьного и дошкольного возраста средствами музыкально – ритмического движения. Авторы отмечают, что занятия ритмикой помогают усвоить детям основные музыкально-теоретические понятия, развивают музыкальный слух и память, чувство ритма, активизируют восприятие музыки.

Ключевые слова. Ритмика, музыка, музыкальное образование, гимнастика, восприятие, память, чувство, слух.

This article deals with problem of teaching children to school and pre-school age with means of musical – rhythmic movement. Here revealed educational opportunities of this kind of activity

Key words. Rhythm, music, musical education, gymnastics, perception, memory, feeling, hearing.

В Законе “Об образовании” и Национальной программе по подготовке кадров определено, что современной школе нужен не просто дипломированный специалист, а творчески активная личность, широта кругозора и разносторонность интересов которой обеспечивают наиболее полную реализацию в педагогической деятельности духовного богатства и профессионального мастерства.

Творчество, как активная самостоятельная деятельность, порождает нечто новое. Новизна творчества может быть оценена с объективной и субъективной точек зрения. В первом случае критерием становится социальная ценность и

новизна решения, здесь можно говорить о творчестве в полном смысле слова как деятельности художника, ученого, изобретателя, педагога и т.д. Во втором случае творческий процесс не обладает новизной и социальной значимостью, но, тем не менее, в процессе творческой деятельности могут иметь место те же психологические процессы, которые характерны для полноценных форм творчества. Это объясняется тем, что субъект творчества во втором случае также совершает открытия, но – для себя самого, и таким образом обогащает свои способности, творческий потенциал и внутренний мир в целом. Именно поэтому творческая деятельность учащихся в самых разнообразных проявлениях становится важным средством успешного развития многих социально-значимых креативных качеств личности (воображение, мышление, смелость, решительность, волевые качества), и приобщение к данной деятельности рассматривается современной дидактикой как необходимый элемент содержания образования.

Исследуя процессы взаимосвязи творчества и образования, ученые приходят к выводу, что они в своей основе представляют “искусство поиска, применения комбинации знаний новыми методами”, “... поиск совершенно новых новаторских педагогических решений и целевых систем”

(Н.А.Венгерский, С.Г.Вершиловский).

Педагогический процесс в общеобразовательной системе должен обеспечивать планомерное развитие способностей личности, которые стимулируют деятельность, получая добавочный импульс, энергию для более интенсивной творческой деятельности. Примечательны в этом плане суждения о том, что сегодня много и плодотворно работают над вооружением педагога специальными научными знаниями, совершенствуется общая и психолого-педагогическая подготовка учителя.

В музыкально-педагогических колледжах урок ритмики входит в цикл музыкально-теоретических дисциплин. Её основной задачей является развитие общей музыкальности и чувства ритма у детей и закрепление их знаний по теории музыки, которые они получают на занятиях по смежным музыкальным дисциплинам.

В основе ритмики лежит изучение тех элементов музыкальной выразительности, которые наиболее естественно и логично могут быть отражены в движении. Занятия ритмикой помогают усвоить детям основные музыкально-теоретические понятия, развивают музыкальный слух и память, чувство ритма, активизируют восприятие музыки.

Приобщение детей к музыке – один из важных путей эстетического воспитания ребенка, так как музыка особенно сильно воздействует на чувства, а через чувства и на его отношение к окружающим явлениям. Д.Шостакович в беседе с молодежью говорил: “Любите и уважайте великое искусство музыки. Оно откроет вам целый мир великих чувств, страстей, мыслей. Оно сделает вас духовно богаче, чище, совершеннее. Благодаря музыке вы найдете в себе новые, неведомые прежде силы. Вы увидите жизнь в новых тонах и красках”.

Действительно, музыка вызывает к жизни еще неосознанные мысли и чувства, очищает их от всего мелкого и случайного, укрепляет достоинство человека, его веру в свои внутренние силы, в свое призвание.

Над созданием современной системы музыкально-ритмического воспитания работали многие музыканты, педагоги, психологи, методисты, музыкальные руководители школьных и дошкольных учреждений. Ведущее место среди них принадлежит Н.Г.Александровой, а также ее ученикам и последователям – Е.В.Коноровой, Н.П.Збруевой, В.И.Гринер, Н.Е.Кизевальтер, М.А.Румер. Научные исследования в области дошкольного музыкально-ритмического воспитания проводили А.В.Кенеман, Н.А.Ветлугина и их ученики – А.Н.Зими́на, Л.Палавандашвили и другие.

Создателем системы музыкально-ритмического воспитания является Эмиль Жак-Далькроз (1856-1950) – швейцарский педагог, композитор, общественный деятель.

Занимаясь в Женевской консерватории со студентами, Далькроз обратил внимание на то, что далеко не все могут выполнять ритмический рисунок в пределах определенного метра и достаточно точно координировать движения при игре на музыкальном инструменте. Понимая, что ритм связан с моторикой, он начал вводить на уроках сольфеджио различные ритмические упражнения.

Так постепенно им была создана система ритмической гимнастики, которая впоследствии стала называться ритмикой. В отличие от обычной гимнастики, подчиненной только метру, в ритмической гимнастике Далькроза все движения шли от музыки.

С усложнением ритмических заданий выявлялась и воспитательная роль уроков ритмики: они развивали у обучающегося внимание, сосредоточенность, укрепляли волю, стремление достичь поставленной цели, вырабатывали слаженность действий всего коллектива. Занятия ритмикой положительно влияли также на общий тонус учащихся, снижая утомляемость.

Значение музыкально-ритмических движений в жизни ребенка заключается в том, что они:

- обогащают эмоциональный мир детей и развивают музыкальные способности;
- развивают познавательные способности;
- воспитывают активность, дисциплинированность, чувство коллективизма;
- способствуют физическому совершенствованию организма.

Главным направлением в работе над музыкально-ритмическими движениями является систематическое музыкальное развитие ребенка.

Музыка не просто сопровождает движение, а определяет его сущность, т.е. движение не должно быть только движением под аккомпанемент музыки или на фоне музыки, оно должно соответствовать:

- характеру музыки;
- средствам музыкальной выразительности;
- форме музыкального произведения.

Органическое единство музыки и движения необходимо и естественно. Движения должны раскрывать содержание музыки, соответствовать ей по композиции, характеру, динамике, темпу, метроритму. В то же время движения побуждают к сознательному восприятию музыкального произведения.

В процессе занятий музыкально-ритмическими движениями укрепляется организм ребенка; развиваются музыкальный слух, память, внимание; воспитываются морально-волевые качества – ловкость, точность, быстрота, целеустремленность, вырабатываются такие свойства движения, как мягкость, пружинистость, энергичность, пластичность; улучшается осанка детей.

Дошкольный возраст – это период накопления музыкальных впечатлений, интенсивного развития музыкального восприятия. В зависимости от возрастного развития характер музыкально-ритмической деятельности детей изменяется.

В самом раннем детстве ребенок с радостью бежит, прыгает, приплясывает. Но это еще не исполнение игры, пляски, а лишь частичное включение в этот процесс. В эти годы у детей развиваются эмоциональную отзывчивость на музыку, способность слушать ее, запоминать и выполнять связанные с музыкой движения, показанные воспитателем и согласующиеся со словами песни.

Двигательной основой музыкально-ритмических движений, которые проводятся с детьми в виде игр, плясок и упражнений, являются:

- основные движения – ходьба, бег, подскоки, прыжки;
- гимнастические движения с предметами (мячами, лентами, обручами, флажками);
- танцевальные движения;
- имитационные движения, которые представляют собой сочетания основных движений с имитацией разнообразных действий и движений птиц, людей, зверей, транспортных средств и т.д.

Все эти движения передаются детьми по-разному и являются полезным материалом для развития воображения и творческой активности.

Основное место в музыкально-ритмических движениях занимают игры. Музыкальная игра – это активная деятельность, направленная на выполнение музыкально-ритмических задач. Она вызывает у детей веселое, бодрое настроение, влияет на активность процесса развития движений, формирует музыкальные способности.

Вся деятельность ребенка в процессе музыкальных игр представляет собой активное слушание музыки, требующее непосредственной реакции, острого музыкального восприятия, связанного с переживанием, различением и узнаванием музыкального образа. Выполнение музыкальных заданий в игре предполагает определение характера музыки, темпа, различение динамики, отдельных частей произведения.

Эффективность музыкального развития ребенка в процессе музыкальных игр обеспечивается тем, что игру как самую близкую ему форму деятельности легко объяснить. Кроме того, интерес к игре и эмоциональная приподнятость в процессе ее исполнения, доступность игровых образов способствуют развитию творческой инициативы ребенка.

Перед разучиванием игры педагог проводит ряд образных упражнений, облегчающих детям ее восприятие и воспроизведение, и слушание музыкального произведения с его анализом. Перед первичным проведением игры педагог рассказывает ее содержание – сюжет. В образном рассказе педагог должен точно следовать временному разворачиванию музыкального произведения. Затем ис-

полняет музыкальное произведение и предлагает детям поиграть. В более развернутых сюжетных играх можно чередовать образный рассказ и слушание музыки к игре.

В процессе игры педагог наблюдает за исполнением детей, не вмешиваясь с указаниями в ее ход, чтобы не помешать проявлениям детского творчества. После окончания игры оценивает деятельность детей, предлагает поиграть еще. Если в игре наблюдалось много неудачных моментов, например, несогласованность движений с музыкой, педагог в дальнейшем проводит ряд образных упражнений, уточняющих игровые действия. Затем неоднократно повторяет игру. Сюжетные игры хорошо проводить как спектакль: часть детей играет, они – артисты, другая часть оценивает, они – зрители, и наоборот. Перед разучиванием любого вида пляски с зафиксированными движениями музыка к ней сначала слушается и анализируется детьми на одном из музыкальных занятий. Затем проводится ряд подготовительных упражнений, и только после этого пляска показывается целиком музыкальным руководителем и воспитателем или заранее подготовленными детьми, а затем исполняется всей группой.

В музыкальных играх детей учат действовать согласованно, самостоятельно искать выразительные движения, не подражая друг другу. В плясках они должны творчески использовать знакомые им элементы движений, комбинировать их, составлять несложные композиции. Дети должны не только овладеть различными движениями, но и знать их названия.

Игры для старшего дошкольного возраста очень разнообразны. За последнее время композиторами и педагогами создано много новых игр, отвечающих программным требованиям. Их также необходимо использовать в работе с детьми.

В каждой из игр воспитатель обучает детей музыкальным навыкам и одновременно разучивает с ними движения. В играх дети могут имитировать различные движения трудовых процессов, некоторых животных, передавать образы окружающей жизни. Часто в игры включаются пляска, маршировка, различные построения, перестроения, элементы соревнования.

Таким образом, методика обучения музыкально-ритмическим движениям разнообразна и вариативна, что способствует глубокому и осознанному усвоению детьми музыкально-ритмических навыков, необходимых для их общего музыкального развития.

Для того, чтобы правильно организовать процесс разучивания с детьми игр, плясок и упражнений, педагог должен соответствующим образом подготовиться:

- тщательно разучить музыкальное произведение;
- проанализировать его с точки зрения общего характера и музыкальной формы;
- исполнить самому движения данной игры, пляски, упражнения, стремиться к их выразительности, точности, образности на основе анализа произведения и указаний авторов;
- запланировать программные требования к детям по основным музыкально-ритмическим навыкам, разработать методику обучения.

Программные требования опираются на следующие аспекты:

- характер музыкального произведения (бодрый, спокойный, торжественный);
- темп (быстрый, медленный, умеренный и т.д.);
- динамику (громко, тихо, не очень громко и т.д.);
- метроритм (размер, акцентировка, ритмический рисунок);
- форму музыкального произведения (одна, две, три части, вступление, заключение).

У детей надо воспитывать восприятие целостности каждого музыкального произведения. Естественный путь для этого – развитие у них восприятия мелодии как главной носительницы содержания музыки, разумеется, в единстве со всеми другими средствами музыкальной выразительности.

Осваивая музыкально-двигательный материал, дети учатся вслушиваться в мелодию, запоминать ее, двигаясь, напевать ее про себя. Мелодия – основа музыкально-двигательного образа. В упражнениях, играх, танцах она помогает им следовать за разворачивающимся содержанием музыки, чувствовать логическое завершение музыкальной мысли (устремление к тонике).

Взаимодействие слова педагога, исполнения музыки и показа движений бывает различным в зависимости от игры, программных требований. В одних случаях дети слушают рассказ к игре, музыку, а потом играют. В других сразу после ее названия вовлекаются в действие, в третьих – воспитатель берет на себя главную роль и использует различные варианты игры.

Таким образом, музыкально-ритмическое движение является средством развития эмоциональной отзывчивости на музыку и чувства музыкального ритма.

Видя красоту движения в играх, плясках, хороводах, стремясь выполнить движение как можно красивее, изящнее, согласовать его с музыкой, ребенок развивается эстетически, приучается видеть и создавать прекрасное.

Использованная литература:

1. Бреслава Г.М. *Эмоциональные особенности формирования личности в детстве.* – М., 1990.
2. Ветлугина Н.А., Кенеман А.В. *Теория и методика музыкального воспитания в детском саду.* – М., 1983.
3. Волжина Е., Нурматов Х. *Ритмика.* –Ташкент; 2007.
4. Зимина А.Н. *Основы музыкального воспитания и развития детей младшего возраста.* – М.: “Владос”, 2000.
5. Цыпин Г.М. *Психология музыкальной деятельности.* – М., 1994.
6. Петрушин В. *Музыкальная психология.* – М. “Владос”, 1999г.